


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

«Kimyo-texnologiya» kafedrasi

## **Kimyo fanidan laboratoriya mashg'ulotlari**

o'tkazish uchun uslubiy ko'rsatma



Namangan - 2020

**LABORATORIYA ISH №1**  
**IMYO LABORATORIYASIDA ISHLASH, HA VFSIZLIK TEXNIKASI QOIDALARI**

Kimyo laboratoriyasida laboratoriya ishi boshlashdan avval, talaba texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishib chiqishi shart va maxsus daftarga imzo chekishi lozim.

Laboratoriya mashg'ulotlarining samaradorligi unga talabalarining e'tibori, nazariy bilimining chuqurligi bilan belgilanadi. SHuning uchun har bir talaba bajariladigan ishning nazariy ma'lumoti haqida xabardor bo'lsagina, bajaradigan ishining izchilligi haqida tasavvurga ega bo'lsagina ishni bajarishga ruxsat beriladi.

Kimyo laboratoriyasida tajribalar o'tkazish uchun talabalar quyidagi ehtiyyot choralarini ko'rishi kerak:

1. Har qaysi laboratoriya ishi belgilangan joyda bajarilishi shart. |
2. Mashg'ulot paytida talaba maxsus kiyim (xalat)siz ishlashi mumkin emas. I
3. Mashg'ulot rejasida ko'rsatilmagan ishlarni bajarishi taqiqlanadi. |
4. Laboratoriya ishlaganda ozodalikka, saranjomlikka, tinchlikka va xavfsizlik texnikasi qoidalariiga rioya qilishi lozim. SHoshilish va xavfsizlik qoidalariiga rioya qilmaslik tajribada xatolikka yo'l qo'yishga va ko'ngilsiz hodisalarga olib keladi. |
5. Tajribani rahbarni ijozati bilan boshlash lozim. Ishni bajarish tartibi laboratoriya daftariga yozilishi va uni rahbar tekshirib ko'rgan bo'lishi lozim. |
6. Zaxarli va badbo'y hidli moddalar bilan qilinadigan tajribalami mo'rili shkafda bajaring. |
7. Agarda reaktivlarni hididan aniqlamoqchi bo'lsangiz, uni og'zidan o'zingizga tomon oxista elpib xidlang. |
8. Konsentrangan kislotalami suyultirishda kislotani suvg'a childiratib quyib, aralashtirib turgan xolda suyultiring. Suvni kislotaga kuyish mumkin emas. !
9. Reaktivlarni probirkalarga quyishda ularni gavdangizdan uzoqroqda tuting. |
10. Qizdirilayotgan reaktiv ustiga engashib qaramang. |
11. Probirkaga biror modda solib qizdirayotganingizda uni og'zini o'zingizdan va yoningizdag'i sheringizdan chetga bo'ring. |
12. Elektr asboblari bilan ishlashda, uni to'liq izolyasiyalanganligiga ishonch hosil qilmasdan turib ish boshlamang. |
13. Oson o't oluvchi moddalar bilan qilinadigan tajribalami olovdan uzoqroqda bajaring. |
- Bunday moddalarни qizdirishda suv yoki qum hammomidan foydalaning.
14. Benzin, spirt, efir va shu kabi oson o't oluvchi moddalar o't olib ketsa, qum sepib o'chiring. Suv sepilmaydi, chunki alanga hajmi kengayib ketadi. |
15. Kislota ta'sirida kuygan joy avvalo mo'l miqdordagi suv bilan, so'ngra suyultirilgan natriy bikarbonat eritmasi bilan yuviladi. |
16. Agar biror eringiz yong'in yoki issiqlik ta'sirida kuyib qolsa, kuygan joyingizni kaliy permanganatning suyultirilgan eritmasi bilan yuvish yoki steptosid emulsiyasi surtish lozim. |
17. Zaxarli gazlar (xlor, brom, vodorod sulfid, oltingugurt yoki azot oksidlari) bilan zaxarlanib qolgan kishini darhol ochiq havoga olib chiqish va vrachga murojaat qilish lozim. |
18. Ishqorlar ta'sirida zararlangan joyni avval qayta-qayta suv bilan, so'ngra esa sirkaga yoki limon kislotaning suyultirilgan eritmasi (3%) bilan yuvish lozim. |
19. Ishqor, kislota va yonuvchan suyuqliklarni rakovinaga to'kish yaramaydi. Bunday keraksiz suyuqliklarni maxsus idishlarga quyish kerak. Rakovinaga qum, qog'oz va shunga o'xshash narsalami tashlamang. j
20. Simob va simobli asboblar bilan ehtiyyot bo'lib ishlang. Simobli asbob (termometr va manometr) sinsa, uni tezda maxsus usul bilan yig'ib oling va suvli stakanga solib, simob to'kilgan joyga oltingugurt kukuni sepib uni o'diring. j
21. Gazlar bilan ishslashda juda ehtiyyot bo'lish kerak, gazlar tozaligini tekshirib va asbob germetikligini aniqlab, so'ngra ish boshlash lozim. >
22. Reaktiv olish uchun ishlataladigan qoshiqcha va menzurka aralashtirilib yi<sup>lh/t,mc,t1,t2</sup> f

23. Mashg'ulot tugagach, ishlatalgan moddalarni o'z joyiga qo'yish, asboblarni va shisha idishlami tozalab yuvib, laborantga topshirish kerak.  
 24. Laboratoriyanan ketishdan oldin gaz, vodoprovod jo'mraklarini berkitilganligini, clickli asboblarni o'chirilganligini tekshirib ko'ring.

## LABORATORIYAISHI №2 METALL EKVIVALENTINI ANIQLASH

### Nazariy qism

#### Moddalar massasining saqlanish qonuni.

M.V.Lomonosov reaksiya uchun olingen modda va reaksiya natijasida hosil bo'lgan maxsulotlaming og'irligini ulchash yuli bilan kimyoviy reaksiyalarning borishini o'rungi. Natijada u birinchi marta 1748 yilda moddalar massasining saqlanish qonunini ta'rifladi. 1756 yilda metallami og'zi kavsharlab berkitilgan idish (retorta) da qizdirish yo'li bilan bu qonimni to'g'riligini tajribada isbotladi:

*Reaksiyaga kirishayotgan moddalarning massasi, reaksiya natijasida hosil bo'ladi* *gazlarning massasiga teng bo'ladi*

1789 yilda Lomonosov ishidan bexabar holatda, fransuz kimyogari A. L. Lavuaze ham moddalar massalari saqlanish qonunini e'lon qildi:

*Kimyoviy reaksiya paytida fakatgina reaksiyada ishtirok etayotgan moddalar massalarigina o'zgarmay kolmasdan, ular tarkibiga kiruvchi elementlar massalari ham o'zgarmasdan koladi.*

#### Tarkibning doimiylilik qonuni.

J.L.Prust Bertolening yuqoridagi xulosasiga qarshi chiqdi. Kimyoviy toza moddalarni puxla analiz qildi va toza birikmalaming miqdoriy tarkibi bixil bo'lishini o'ziningiuda ko'p analizlai bilan isbotladi. 1809 yilda kimyoning asosiy qonunlaridan biri tarkibning doimiylilik qonuni quyidagicha ta'riflandi:

*Xar qanday kimyoviy toza birikma olinish usulidan qat'iy nazar, o'zgarmas miqdoriy tarkibga ega.*

Toza suv tarkibida 11,11% vodorod va 88,89% kislород bo'lib, suv 0°C da muzlaydi, 100°C da qaynaydi. Uning 4°C dagi zichligi 1000 kg/m<sup>3</sup> yoki 1 g/sm<sup>3</sup> ga teng.

#### Karrali nisbatlar qonuni.

Karrali nisbatlar qonumi 1808 yilda Dalton tomonidan yaratilgan.

*Agar ikki element o'zaro ta'sirlashib bir necha birikmalar hosil qilsa, elementlardan birining shu birikmalardagi ikkinchi elementning bir xil massa miqdoriga to'gri keladigan massa miqdorlari o'zaro kichiq butun sonlar nisbati kabi nisbatda bo'ladi.*

Masalan:

|               |          |                |
|---------------|----------|----------------|
| Metan         | 75% C    | 25% H          |
| Etilen        | 85,71% C | 14,29% H       |
| Metan         | 3 m.q. C | 1 massa qism H |
| Etilen        | 6 m.q. C | 1 massa qism H |
| 3 : 6 = 1 : 2 |          |                |

#### Ekvivalentlar qonuni.

1804 - 1814 yillardagi Rixter, Dalton va Vollastonlarning tajribalari natijasida ekvivalentlar qonuni aniqlandi:

*Reaksiyaga kirishuvchi moddalar massalarining nisbati ularning ekvivalentlari nisbaliga teng, yoki, hamma moddalar ekvivalent nisbatlarda ta'sirlashadi.*

Kimyoviy ekvivalentni quyidagicha ifodalash kiritilgan :

1 o.k. vodorod yoki 8 o.k. kislород bilan birika oladigan yoki o'rin almashina oladigan modda miqdori shu moddaning kimyoviy ekvivalenti deyiladi.

#### Hajmiy nisbatlar qonuni.

Bu qonun 1805 yilda Gey-Lyussak (Fransiya) tomonidan kashf etilgan bo'lib u quyidagicha ta'riflanadi:

*Bir xil fizikaviy sharoitda (R, T) kimyoviy reaksiyaga kirishuvchi gazlarning hajmlari I o'zaro va reaksiya natijasida hosil bo'ladi* *gazlarning hajmlari bilan oddiy butun sonlar nisbati kabi nisbatda bo'ladi.*

Masalan, 2 hajm vodorod 1 hajm kislород bilan yuqori temperaturada reaksiyaga kirishganda 2 hajm suv bug'i hosil bo'ladi.

#### Avogadro qonuni.

Tabiiy bilishning asosiy qonunlaridan biri - Avogadro qonuni italyan olimi Avogadro tomonidan 1811 yilda maydonga tashlangan :

*Bir xil sharoitda (bir xil temperatura va bir xil bosimda) va baravar hajmda olingen turli gazlarning molekulalar soni o'zaro teng bo'ladi.*

Bu qonunni shuningdek, konsentrasiya uncha katta bo'limgan holatlarda ionlar va ionlashgan gazlar elektronlari uchun qo'llash mumkin.

#### « Ishning bajarilishi.

Bu metod yordamida Zn, Cr, Mn, Mg singari aktiv metallami ekvivalentini topish mumkin. Metall ekvivalentini rasmida ko'rsatilgan asbob yordamida aniqlanadi. Tajriba o'tkazishdan avval asbobning germetikligini aniqlanadi.

Buning uchun A<sub>2</sub> byuretkani 10-15 sm yuqoriga yoki pastga tushiring.

Agar 1-2 minut davomida byuretkadagi suv satxi o'zgarmasa, pridor germetik hisoblanadi.

P- probirkaga 4-5 ml. 10% li HCl eritmasidan qo'ying. Laborantdan og'irligi tortib qo'yilgan rux.Zn - metal ini oling va filtr qog'ozga o'rang. Qog'ozning bir uchini suv bilan ho'llab, uni probirkani ichki qismiga yopishiting. Probirkani propka bilan bekiting.

Metalni kislota ga tushishga yo'l qo'y mang. So'ng probirkani germetikligini yuqoridagi usul bilan yana bir bor tekshirib qo'ying. Byuretkalarni ulardagagi suv satxi bir xil balandlikda bo'ladi qilib o'mating. Byuretka A, dagi suv satxini (mensknig) holatini belgilab yozib qo'ying. Bu V, bo'ladi. Mensknig holatini belgilashda ko'zingiz suv satxi bilan o'rinma chiziqda bo'lishi kerak. Probirkani qiyalatib metalni kislota ga tushiring. Ajralib chiqayotgan vodorod (H<sub>2</sub>) gazi suvni A<sub>2</sub> byuretkadan A<sub>2</sub> byuretkaga siqib chiqaradi. Metalning hammasi erib bo'lghach, probirkani 3-4 minut davomida sovishini kuting. So'ng byuretkalardagi suv satxini bir xil holatga keltiring va A<sub>2</sub>, byuretdagi suv satxini (mensknig) belgilab yozib qo'ying. Bu hajm V<sub>2</sub> bo'ladi. Satxlar yani V<sub>2</sub>-V, orasidagi farq ajralib chiqqan vodorodning hajmidir.

Tajriba o'tkazilgan sharoitdagi temperatura t ni termometrdan, bosimi P ni esa barometrdan aniqlang. Tuyingan suv bug'ining ayni temperaturadagi bosimi - h ni tablisadan foydalash yozib qo'ying.


#### Natijalarni hisoblash.

- Ajralib chiqkan vodorotning hajmi: VH<sub>2</sub>=V<sub>2</sub>-V<sub>1</sub>
- Tajriba sharoitdagi atmosfera bosimi: P
- Vodorodning parsial bosimi: PH<sub>2</sub> = P-h
- Tajriba sharoitdagi xona harorati: t

5. Metalning og'irligi: g

6. Absolyut temperatura: To=273, T=273+

7. Vodorodning normal sharoitdagi bosimi: Ro=760 mm.sm.



8. Vodorodning normal sharoitdag'i hajmi:  $V = \frac{P \cdot V \cdot T}{r \cdot o}$
9. Bir gramm-ekvalentli vodorodning normal sharoitdag'i hajmi.  
 $V \cdot L^I = 11200 \text{ ml}$

Metall ekvalentini quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$X_{\text{amo}} = \frac{\mathcal{E} \cdot \mathcal{E}_1}{\mathcal{E}_2} \cdot 100$$

$E_m$ -rnetalning tajribada topilgan ekvivalenti  
 $E_{\text{--}}$ -metalning nazariy ekvivalenti.

### LABORATORIYA ISHI № 3,4 ANORGANIK MODDALARING ASOSIY SINFLARI

Barcha anorganik birikmalar ikkita katta guruhga bo'linadi: oddiy moddalar va murakkab moddalar.

Molekulalari bir xil element atomlaridan iborat bo'lgan moddalarni oddiy moddalar deb ataladi. Masalan: barcha metallar, kislordan (gaz), galogenlar, oltingugurtning liar xil allotropik shakllari va boshqalar.

Molekulalari har xil element atomlaridan iborat bo'lgan moddalarni murakkab moddalar deb ataladi. Masalan: kalsiy oksidi ( $\text{CaO}$ ), oltingugurt(VI)- oksidi ( $\text{SO}_4^{2-}$ ), bariy gidroksidi  $\text{Ba(OH)}_2$ , alyuminiy gidroksidi  $\text{Al(OH)}_3$ , nitrat kislota ( $\text{HNO}_3$ ), ortofosfat kislota ( $\text{H}_3\text{PO}_4$ ), kaliy sulfat ( $\text{K}_2\text{SO}_4$ ). natriy fosfat ( $\text{Na}_3\text{PO}_4$ ) va boshqalar.

Murakkab anorganik birikmalar asosan oksidlar, asoslar, kislotalar va tuzlar sinfiga bo'linadi.

#### OKSIDLAR

Kislordaning metall yoki metalmas element bilan hosil qilgan birikmalarini oksidlar deb ataladi. Masalan:  $\text{Na}_2\text{O}$  — natriy oksidi,  $\text{CuO}$  — mis (I)- oksidi,  $\text{S}_3\text{O}_2$  — oltingugurt (VI)- oksidi,  $\text{CuO}$  — mis (II)-oksidi,  $\text{S}_2\text{O}_3$  — oltingugurt (IV)- oksidi,  $\text{P}_2\text{O}_5$  — fosfor (V)- oksidi. Oksidlar kimyoiy xossalarga ko'ra beshta guruhga bo'linadi:

I. Asosli oksidlar; 2. Kislotali oksidlar; 3. Amfoter oksidlar; 4. Betaraf (indiferent) oksidlar; 5. Peroksidlar.

Oksidlarning gidratlari, ya'nii suv bilan hosil qilgan birikmalarini asos xossasiga ega bo'lgan oksidlar asosli oksidlar; gidratlari kislota xossasiga ega bo'lgan oksidlar kislotali oksidlar; gidratlari ham asos, ham kislota xossasiga ega bo'lgan oksidlar amfotep oksidlar deyiladi.




Masalan:  $\text{Na}_2\text{O}$ ,  $\text{CaO}$  kabi oksidlar asosli oksidlar, chunki ularning gidratlari  $\text{NaOH}$ ,  $\text{Ca(OH)}_2$  asos xossasiga ega.  $\text{SO}_3^{2-}$ ,  $\text{P}_2\text{O}_5$  kabi oksidlar kislotali oksidlar, chunki ularning gidratlari  $\text{Na}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{H}_3\text{PO}_4$

II.  $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$ ,  $\text{H}_3\text{PO}_4$ , kislota xossasiga ega;  $\text{ZnO}$ ,  $\text{Al}_2\text{O}_3$ ,  $\text{Cr}_2\text{O}_3$  kabi oksidlar amfoter oksidlar. chunki ularning gidratlari sum kislota. ham asos xossasiga ega bo'ladi.




Kislota va asoslar bilan reaksiyaga kirishmaydigan oksidlarni betaraf yoki tuz hosil qilma) digan oksidlar deyiladi.

Molekulalari tarkibidu  $\text{O}^{2-}$  ionlari bo'lgan oksidlarga peroksidlar deyiladi.

Kislotali oksidlar asosli oksidlar (yoki asoslar) bilan, asosli oksidlar esa kislotali oksidlar (yoki kislotalar) bilan reaksiyaga kirislib tu/. hosil qiladi:



Amfoter oksidlar asoslar va asosli oksidlar bilan, kislotalar va kislotali oksidlar bilan reaksiyaga kirishib, tuz hosil qiladi:



Shuningdek, asosli oksidlar asoslar va tuzlar bilan, kislotali oksidlar kislotalar ia tuzlar bilan reaksiyaga kirishmaydi (ba'zi holatlardan tashqari).

#### ASOSLAR




Asoslar molekulasi tarkibidagi gidroksil  $\text{OH}^-$  guruhning soniga qarab bir, ikki va uch gidroksidi (negizli yoki kislotali) bo'ladi. Masalan: bir gidroksid (kislota)li asoslar —  $\text{LiOH}$ ,  $\text{KOH}$ ,  $\text{NaOH}$ ;

ikki gidroksid (kislotali)li asoslar —  $\text{Be(OH)}_2$ ,  $\text{Mg(OH)}_2$ ,  $\text{Ca(OH)}_2$ ;



uch gidroksid (kislotali)li asoslar —  $\text{Al(OH)}_3$ ,  $\text{Fe(OH)}_3$ ,  $\text{Cr(OH)}_3$ .

$\text{NaOH}$ ,  $\text{Ca(OH)}_2$  kabi ishqoriy va ishqoriy-er metallarining gidroksidalarini *ishqorlar* deyiladi.

Asoslar odatda kislotalar, kislotali va amfoter oksidlar bilan reaksiyaga kirishadi. Masalan:



Bundan tashqari ishqorlar amfoter oksid va gidroksid hosil qiluvchi metallar va tuzlar bilan reaksiyaga kirishishlari mumkin. Masalan:



#### KISLOTALAR

Tarkibida vodorod atomlari bo'lgan va bu vodorod atomlari metall atomlari bilan urin almashinishi natija sida tuz hosil qiladigan moddalar *kislotalar* deb ataladi.






Metallarga o'rinni almashina oladigan vodorod atomlarining soniga qarab kislotalar bir negiz (asosli) yoki ko'p negiz (asosli) bo'ladi. Masalan:  $\text{HCl}$ ,  $\text{HN}_3$ ,  $\text{CH}_3\text{COOH}$  — bir negiz (asosli),  $\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_4$  — ikki negiz (asosli),  $\text{H}_3\text{B}_3\text{O}_3$ ,  $\text{H}_3\text{PO}_4$  — uch negiz (asosli) kislotalardir.

Kislotalar kislordoli va kislordosiz turlarga ham bo'linadi. Masalan:  $\text{HN}_3$  va  $\text{HN}_3$  — kislordoli,  $\text{HCl}$ ,  $\text{HBr}$  va  $\text{H}_2\text{S}$  — kislordosiz kislotalardir.

Kislordosiz kislotalami nomlashda avval kislota hosil qiluvchi elementning nomi aytilib, oxirida «id» qo'shimehasi qo'shiladi. Masalan:  $\text{HCl}$  — xlorid kislota,  $\text{HBr}$  — bromid kislota,  $\text{HF}$  — ftorid kislota,  $\text{HCN}$  — sianid kislota,  $\text{HSCN}$  — rodanid kislota,  $\text{H}_2\text{S}$  — sulfid kislota.

Kislordoli kislotalami nomlashda kislota ho sil qilgan element nomiga uning valentligini tavsiflaydigan qo'shimeha beriladi.

Masalan:



## TUZLAR

Kislotalaming vodorod atomlari to'liq yoki qiman metall atomlariga o'rin almashinishidan hosil bo'lgan moddalarga **tuzlar** deyiladi.

Masalan:  $\text{HCl}$  — kislota,  $\text{NaCl}$  — tuz,  $\text{H}_2\text{SO}_4$  — kislota,  $\text{MgSO}_4$  — tuz.

Tuzlar molekulalari tarkibiga ko'ra o'rta, nordon (kislotali), asosli(gidrokso-), qushaloq va aralash tuzlarga bo'linadi.

Molekulasi tarkibida faqat metall ioni bilan kislota qoldigi bo'lgan tuzlar ***o'rta (normal) tuzlar*** deyiladi. Masalan:  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  — natriy sulfat,  $\text{K}_2\text{CO}_3$  — kaliy karbonat,  $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2$  — kalsiy fosfat.

Molekulasi tarkibida metall ioni bilan vodorod ioni va kislota qoldigi bo'lgan tuzlar ***nordon (kislotali) tuzlar*** deyiladi. Nordon tuzlami nomlash uchun o'rta tuzlar nomi oldiga «gidro» qo'shimchasini qo'shish kerak. Masalan:  $\text{NaHSO}_4$  — natriy gidrosulfat,  $\text{Ca}(\text{HC}_2\text{O}_4)_2$  — kalsiy gidrokarbonat,  $\text{Na}_2\text{HPo}_4$  — natriy gidrofosfat,  $\text{NaH}_2\text{P}_2\text{O}_7$  — natriy digidrofosfat.

Molekulasi tarkibida metall ioni, gidrosil guruhi va kislota qoldigi bo'lgan tuzlar ***asosli (gidrokso-) tuzlar*** deyiladi.

Asosli tuzlami nomlash uchun tuzlar nomiga «gidroksis» qushimchasi Ig'ushish kerak. Masalan:  $\text{Cu}(\text{OH})\text{Cl}$  — mis(II) gidrosixlorid;  $\text{Fe}(\text{OH})_2\text{Cl}$  — temir(III) digidoksixlorid,  $\text{Al}(\text{OH})\text{SO}_4$  — alyuminiy gidroksisulfat.

Molekulasi tarkibida ikki xil metall ioni bilan bir xil kislota qoldigi bo'lgan tuzlar ***qushaloq tuzlar*** deyiladi.

Masalan:  $\text{KCl} \cdot \text{MgCl}_2$  — kaliy magniy xlorid.  $\text{KNaCO}_3$  — kaliy natriy karbonat.  $\text{K}_2\text{SO}_4 \cdot \text{Al}_2(\text{SO}_4)_2 \cdot 24\text{H}_2\text{O}$  kaliy alyuminiy sulfat.

Molekulasi tarkibida ikki xil kislota qoldigi bilan bir xil metall ioni bo'lgan tuzlarga ***aralash tuzlar*** deyiladi. Masalan:  $\text{Ca}(\text{C}_2\text{O}_4)\text{Cl}$  — xlorli ohakda ham xlorid kislota qoldigi ( $\text{C}_2\text{O}_4^{2-}$ ), ham gipoklorit kislota qoldigi ( $\text{ClO}_4^-$ ) bor.

Ba'zan tuzlar qatoriga kompleks birikmalar ham kiritiladi.

## Ishning bajarilishi

### Oksidlarga oid tajribalar

#### 1- tajriba: Magniy oksidi-MgO ni olinishi.

Magniy lentasini qisqich bilan tutib chinni kosacha ustida yoqing. Kumushdek yaltiroq metallni havoda yonishiga e'tibor bering. Metall rangini hosil bo'lgan magniy oksidi rangi bilan taqqoslang. Reaksiya tenglamasini yozing. Reaksiya mahsulotini 2-tajriba uchun saqlang.

#### 2- tajriba:Magniy oksidi - MgO ning kimyoiy xossalari.

Birinchi tajribada hosil qilingan  $\text{MgO}$  ni 3 ta probirkaga teng miqdorda soling. Birinchi probirkaga suv -  $\text{H}_2\text{O}$  quying va 1 - 2 tomchi fenolftalein eritmasidan tomizing. Ikkinchchi probirkaga sulfat kislota  $\text{H}_2\text{SO}_4$  va uchunchi probirkaga natriy gidrosid  $\text{NaOH}$  eritmasidan quying. Qanday hodisa kuzatiladi. Uchchala probirkada sodir bo'lgan kimyoiy reaksiya tenglamalarini yozing.

#### 3- tajriba : Sulfat angdirid - $\text{SO}_4^{2-}$ ni olinishi. (Tajriba mo'rili shkafda bajariladi.)

Probirkani yo'g'och qisqich bilan ushlab unga natriy sulfit  $\text{Na}_2\text{SO}_3$  ning bir necha kristalidan soling va ustiga 70% li  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasidan 2-3 tomchi qo'shing. O'tkir hidli gaz ajralib chiqishiga e'tibor bering. Reaksiya tenglamasini yozing.

#### 4- tajriba: Karbonat angdirid - $\text{CO}_3^{2-}$ ni olinishi.

Gazlarni ajratib olish uchun moslashtirilgan probirkaga bir necha bo'lak marmar  $\text{CaCO}_3$ , soling va 10% li  $\text{HCl}$  eritmasidan quying.

Gaz ajralib chiqishiga e'tibor bering. Rezina shlang uchiga shillangan universal indikator qog'ozidan tuting. Indikator qog'ozি rangi o'zgarishini kuzating. So'ng gaz o'tkazuvchi nayni ohakli suvga tushiring. Cho'kma hosil bo'lishiga e'tibor bering.

#### 5- tajriba: Xrom (III) - oksidi - $\text{Cr}_2\text{O}_7^{2-}$ ni olinishi.

Chinni kosachaga ammoniy dihromit -  $(\text{NH}_4)_2\text{Cr}_2\text{O}_7$  tuzidan ozroq miqdorda solib, shialiv shilankasi ustiga o'mating. Unga 2-3 tomchi spirit o'yib, gurgurt bilan yoqing.  $(\text{NH}_4)_2\text{Cr}_2\text{O}_7$  ni

vulqon singari parchalanib yonishini kuzating. Reaksiya natijasidagi o'zgarishlarga e'tibor bering. Reaksiya tenglamasini yozing.

### Asoslarga oid tajribalar

#### 1- tajriba: Natriy gidrosid - $\text{NaOH}$ ni olinishi. (Tajribani mo'rili shkafda bajaring)

Chinni kosachani yarmigacha suv quying. So'ng laborantdan filtr qog'ozga o'rab quritilgan moshdek natriy - Na metalini oling. Uni pintsent bilan chinni kosachadagi suvga tashlang. Darhol mo'rili shkaf oynasini tushiring. Sodir bo'layotgan hodisalamani diqqat bilan kuzating. Reaksiya tugagach, hosil bo'lgan eritmani fenolftalein yoki lakmus qog'ozи bilan sinab ko'ring. Reaksiya tenglamasini yozing. Tajribani Na metali o'rniga Ca metali olib takrorlang.

#### 2- tajriba: Rux gidrosidi - $\text{Zn(OH)}_2$ ni olinishi va xossalari.

Probirkaga 2-3 ml rux sul'fat  $\text{ZnSO}_4$  eritmasidan quying. Unga amiakli suv eritmasidan 5-6 tomchi qo'shing. Cho'kma hosil bo'lishiga e'tibor bering. Hosil bo'lgan cho'kmani 2 ta probirkaga teng bo'lib qo'ying. Birinchi probirkaga  $\text{NaOH}$  eritmasidan, ikkinchi probirkaga  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasidan cho'kma erib ketgungacha qo'shing. Reaksiya tenglamalarini yozing.

#### 3 - tajriba. Asoslarning tuzlar bilan reaksiysi.

Probirkaga 2 - 3 ml natriy gidrosid eritmasidan olib, ustiga lakmus qog'ozidan soling. Lakmus qog'ozи rangiga e'tibor bering. Eritma ustiga ehtiyyotlik bilan sulfat kislotaning 20 % li eritmasidan shuncha miqdor quying. Qanday o'zgarish kuzatiladi? Lakmus qog'ozи rangiga e'tibor bering. Reaksiya tenglamasini yozing.

#### 4 - tajriba. Asoslarning tuzlar bilan reaksiysi.

Probirkaga olib, unga natriy gidrosid eritmasidan 3-4 ml quying. Eritma ustiga shuncha hajm mis sul'fat eritmasidan quying. To'q ko'k rangli cho'kma hosil bo'lishini kuzating. Reaksiya tenglamasini yozing.

### Kislotalarga oid tajribalar

#### 1- tajriba : Karbonat kislota - $\text{H}_2\text{CO}_3$ ni olinishi.

Marmar -  $\text{CaCO}_3$  va 10%li  $\text{HCl}$  bilan zaryadlangan Kipp aparati yordamida  $\text{CO}_2$  gazni ajratib oling. So'ng  $\text{CO}_2$  gazini, gaz o'tgazgich nay orqali stakandagi distillangan suvga 5-6 minut davomida yuboring. Hosil bo'lgan eritmani rangini lakmusli yoki universal indikator qog'ozи bilan sinab ko'ring.  $\text{CO}_2$  va  $\text{H}_2\text{CO}_3$  lami hosil bo'lish reaksiyasini yozing.

#### 2 - tajriba. Kislotalaming turli hil metallarga tasiri

Uchta probirkaga olib, birinchisiga magniy, ikkinchisiga temir va uchinchisiga mis metalidan 2 grammdan soling. Har bir probirkaga xlorid kislotaning 20% eritmasidan 4-5 ml dan quying. Probirkalarda qanday o'zgarishlar sodir bo'lishini yozing. Reaksiya tezligini solishtiring. Reaksiya tenglamalarini yozing.

#### 3- tajriba.: Kislotalaming metall oksidlariga tasiri.

Ikkita probirkaga barobar miqdorida temir (111) - oksidi  $\text{Fe}_2\text{O}_3$  dan soling. Birinchi probirkaga  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasidan, ikkinchisiga esa  $\text{HCl}$  eritmasidan quying. Agar reaksiya ketmasa, probirkalarni biroz qizdiring. Qanday hodisa kuzatiladi. Reaksiya tenglamasini yozing.

#### 4- tajriba. Kislotalaming tuzlar bilan reaksiysi.

Probirkaga bariy xlorid eritmasidan 4-5 ml dan quying va ustiga shuncha miqdor sulfat kislota eritmasidan quying. Qanday hodisa kuzatiladi? Reaksiya tenglamasini yozing.

## Tuzlarga oid tajribalar

### 1 - tajriba. O'rta va nordon tuzlarni hosil bo'lishi.

a) o'rta tuzni hosil bo'lishi. Probirkaga 5-6 ml Ba(OH)<sub>2</sub> eritmasidan quying. Unga Kipp apparatidan chiqayotgan CO<sub>2</sub> gazini cho'kma hosil bo'lguncha yuboring. Reaksiya tenglamasini yozing. Cho'kmanni keyingi tajriba uchun saqlang.

b) nordon tuzni hosil bo'lishi, oldingi cho'kmanni erib ketgunga kadar CO<sub>2</sub> gazi yuborishni davom ettiring. Cho'kma erishdan sababini tushuntiring. Reaksiya tenglamasini yozing.

### 2- tajriba. Baryi sulfat tuzini hosil bo'lishi.

Probirkaga Baryi xlorid BaCl<sub>2</sub> eritmasidan 4-5 ml. quying. Uning ustiga shuncha miqdorda kaliy sulfat - K<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> eritmasidan qo'shing. Qanday hodisi kuzatiladi? Cho'kma rangiga e'tibor bering.

### 3 - tajriba. Tuzlar bilan asoslar orasida boradigan reaksiyalar.

Probirkaga 3-4ml kalsiy xlorid eritmasidan quying va ustiga shuncha miqdor natriy gidroksid eritmasidan qo'shing. Reaksiya natijasida kalsiy gidroksid cho'kmasi hosil bo'lishini kuzating. Cho'kma rangi qanday? Reaksiya tenglamasini yozing.

### 4-tajriba. Aktiv metallarning passiv metallarni ular tuzi eritmasidan siqib chiqarishi.

Stakanga mis sulfatning 40 % li eritmasidan 25ml quying. Unga temir plastinkani tozalab. so'ngra bir necha minutga solib qo'ying. Reaksiya vaqtida plastinka sirtiga qizg'ish-sariq rangli mis metali ajralib chiqishini kuzating. Reaksiya tenglamasini yozing.

## LABORATORIYA IS HI №5 KIMYOVIY REAKSIYA TEZLIGI

### Nazariy ma'lumot

Kimyoviy reaksiya tezligi va unga turli omillaming ta'siri haqidagi ta'iimotga kimyoviy kinetikci deyiladi.

Kimyoviy reaksiya tezligi reaksiyaga kirishuvchi moddalar konsentrasiyasining vaqt birligi ichida o'zgarishi bilan o'lchanadi (konsentrasiya moddaning hajm birligidagi modda miqdoridir). Masalan, reaksiya tezligi 0,25 mol/lbs deyilsa, bunda bir sekundda moddadan 0,25 mol reaksiyaga kirishgan bo'ladi. SHunday qilib, kimyoviy reaksiya tezligini o'lhashda moddalar konsentrasiyasini mol/l hisobida, vaqtin esa sekund, minut, soat, sutkalar hisobida olinadi. Reaksiya tezligi, unda ishtirot etayotgan qaysi modda miqdorini o'lhash qulay bo'lsa, o'sha modda konsentrasiyasining o'zgarishi bilan o'lchanadi.

Har qanday reaksiyaning tezligi reaksiyaga kirishuvchi moddalarning tabiatiga, konsentrasiyasiga, haroratga, qattiq moddalarning sirt yuzasiga va maydalanish darajasiga, bosimga, katalizalorning ishtirot etish-etmasligigabog'liq bo'ladi.

### Reaksiyaga kirishuvchi moddalar tabiatining reaksiya tezligiga ta'siri.

Reaksiya tezligi moddaning ichki tuzilishiga bog'liqidir. Odatda, qutbsiz molekulali moddalar reaksiyaga sekin kirishadi, oson qutblanuvchi va qutbli molekulalar reaksiyaga tezroq kirishadi. Ayniqsa, ion bog'lanishli moddalar suvdagi eritmalar o'zarlo tez reaksiyaga kirishadi.

**Reaksiya tezligiga konsentrasiya ta'siri. Massalar ta'siri qonuni.** Kimyoviy reaksiya tezligi reaksiyaga kirishuvchi moddalar konsentrasiyasiga bog'liq. Moddalar konsentrasiyasini qancha katta bo'lsa, hajm birligida shuncha ko'p molekula bo'ladi, shuning uchun ular tez-tez to'qnashadi va reaksiya mahsulotiga aylanadi. Natijada reaksiya shuncha tez boradi. Vaqt o'tishi bilan kimyoviy reaksiya tezligi kamayadi. CHunki reaksiyaga kirishuvchi moddalar konsentrasiyasini kamayib, ularning to'qnashishlar soni kamayadi.

Reaksiya kirishuvchi moddalar konsentrasiyasini bilan reaksiya tezligi orasidagi bog'lanishi massalar ta'siri qonunida o'z ifodasini topgan. Bu qonun 1867 yilda norvegiyalik olimlar K.Guldborg va P.Vaage tomonidan kashf etilgan.

Massalar ta'siri qonunu quyidagicha ta'riflanadi:

Kimyoviy reaksiya tezligi reabiyaga kirishayotgan moddalar konsentrasiyalarning ko'paytmasiga to 'g 'ri proporsionaldir. Masalan:

$$O \cdot A + e \cdot B \sim c \cdot C$$

reaksiya uchun massalar ta'siri qonuni

$$y = K[\pi]^a \cdot [\theta]^b$$

tenglama bilan ifodalanadi.

Bu erda, V-reaksiya tezligi; [A] va [B] - moddalar konsentrasiysi; K - tezlik konstantasi.

**Reaksiya tezligiga haroratning ta'siri, Vant-Goff qoidasi.** Haroratning ortishi, odatda reaksiya tezligining keskin ortishiga sabab bo'ladi. Reaksiya tezligining haroratga miqdoriy bog'liqligini Vant-Goff qoidasi bilan aniqlanadi: harorat har 10°C ga ko'tarilganda reaksiya tezligi 2-4 marta ortadi. Bu qoidaning matematik ifodasi quyidagicha:

$$V_{t_2} = V_{t_1} \cdot \gamma^{\frac{t_2 - t_1}{10}}$$

bunda V<sub>1/2</sub>- harorat t<sub>2</sub> gacha ko'tarilgandan keyingi reaksiya tezligi;

V<sub>t</sub> - reakiyaning h haroratdagi boshlang'ich tezligi;

y - reaksiyaning harorat koefisienti, ya'ni harorat 10°C ko'tarilganda reaksiya tezligining necha marta ortishini ko'rsatuvchi son.

**Katalizator, katalitik jarayonlar.** Kimyoviy reaksiya tezligi jarayonda katalizatoming ishtirot etish-etmasligiga ham bog'liq. Kimyoviy reaksiyalar tezligini o'zgartirib reaksiya mahsulotlari tarkibiga kirmaydigan moddalar *katalizator* deyiladi.

**Gomogen va geterogen kataliz. Adsorbsiya.** Barcha katalitik jarayonlar gomoogen vageterogen kataliz bo'linadi. Gomogen katalizda reaksiyaga kirishadigan moddalar ham, katalizator ham bir xil fazada (gaz holatida yoki eritmada) bo'ladi.

Gomogen katalizda katalizatoming reaksiya tezligiga ta'sirining mohiyati shundan iboratki, reaksiyaga kirishuvchi modda bilan katalizator orasida oraliq birikma hosil bo'ladi. Masalan:

$$A + V = A \cdot V$$

reaksiya sekin boradi. Shu reaksiyada katalizator qo'llanganda reaksiya qo'yidagicha boradi.

Dastlab, reaksiyaga kirishadigan moddalardan biri A modda katalizator bilan birikib oraliq birikma A Kat hosil bo'ladi.



$$A + Kat = A \cdot Kat$$

Oraliq birikma A Kat dastlabki olingan ikkinchi modda V bilan reaksiyaga kirishib A V moddani hosil qiladi.

$$A \cdot Kat + V = AV + Kat$$

$$A + V \xrightarrow{-tAV} \text{reaksiya tez boradi.}$$

Masalan, nitroza usuli bo'yicha H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> ishlab chiqarishda SC<sub>2</sub> ni SO<sub>2</sub>, ga aylantirish uchun NO katalizator sifatida ishlataladi.




Geterogen reaksiyada, reaksiyaga kirishuvchi moddalar va katalizator boshqa-boshqa fazalarda bo'ladi. Masalan, ammiak sintezi N<sub>2</sub> + 3H<sub>2</sub>  $\rightleftharpoons$  2NH<sub>3</sub>

reaksiyasing tezligi temir ishtirokida tezlashadi. Bunda reaksiyaga kirishuvchi moddalar gaz fazasida, katalizator qattiq fazada bo'ladi.

### Ishning bajarilishi

#### 1- tajriba. Reaksiya tezligini reaksiyaga kirishuvchi moddalar konsentrasiyasiga bog'liqligi.

Sulfat kislota -H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> bilan natriy tiosulfat --Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> o'zaro reaksiyaga kirishishi natijasida oltinugur S ajralib chiqib ,loyqa hosil qiladi va eritmalamni sutsimon rangga kiritadi.



Reaksiya boshlangandan loyqa hosil bo'lguncha utgan vaqt shu reaksiyaning tezligi hisoblanadi Uchta probirka oling. Ulaming birinchisiga 3 ml Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub>ning 0,1 n eritmasidan,6 ml distillangan suv qo'ying. Ikkinchisiga esa 6 ml Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> ning 0,1 n eritmasidan va 3 ml distillangan suv quying. Uchinchisiga esa 9 ml Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> ning 0,1n eritmasidan quying.

Uchta boshqa probirka olib, sulfat kislota H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> ning suyultirligani (1:200) eritmasidan 3 ml dan quying. Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> va H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> eritmalar uchun aloxida-aloxida ulchov silindridan foydalaning. Ularni almashtirib quyish mutloqo mumkin emas.

Birinchi probirkaga H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> eritmasini quying, chayqating va vaqtini belgilang. Eritmalar aralashirilgandan to loyqa hosil bo'lguncha utgan vaqtini sekundomerdan aniqlang. Qolgan probirkalar bilan ham tajribani takrorlang.

Tajribani natijalarini quyidagi jadvalga yozing.

| Probirkalarning nomeri | Reaksiyaga kirishayotgan modalarning hajmi (ml hisobida) |                  |   | Na <sub>2</sub> S <sub>2</sub> O <sub>3</sub> ning shartli kon-sentrasiysi | vaqt t-sekund | Reaksiyani nisbiy tezligi V=100/t |
|------------------------|--|------------------|---|--|---------------|-----------------------------------|
|                        | Na <sub>2</sub> S <sub>2</sub> O <sub>3</sub> eritmasi   | H <sub>2</sub> O | H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> eritmasi |  |               |                                   |
| 1                      | 3  | 6                | 3                                       |  | 1             |                                   |
| 2                      | 6  | 3                | 3                                       |  | 2             |                                   |
| 3                      | 9  | 0                | 3                                       |  | 3             |                                   |

Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> nisbiy konsentrasiyasini absissalar o'qiga nisbiy tezlikni esa ordinatalar o'qiga qo'yib grafik chizing. Reaksiyaning tezligi reaksiyaga kirishuvchi moddalarining konsentrasiyasiga qandav bog'liq ekanligi haqida xulosa chiqaring.

#### 2- Tajriba. Reaksiya tezligi temperaturaga bog'liqligi.

Bu tajriba uchun ham Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> va H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> laming bundan oldingi tajribada ko'rsatilgan konsentrasiyadagi eritmalarini oling.

Uchta probirkaga H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> eritmasidan 5 ml dan, boshqa uchta probirkaga Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> eritmasidan 5 ml qo'ying. Ular xar juftining bittasida Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> va bittasida H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> bo'lidan qilib uch juftga bo'ling.

Birinchi juft probirkalarni stakandagi sovuk suvgaga tushiring. Suv temperaturasini termometr yordamida aniqlang va 3-4 minutdan so'ng probirkalardagi eritmalarni bir-biriga aralashiring. Necha sekunddan keyin loyqa hosil bo'lishini aniqlang.

Stakandagi suvning temperaturasini issiq suv quyish yo'li bilan 10<sup>o</sup>Sga ko'taring va ikkinchi juft probirkalarni tushiring. 3-4 minutdan so'ng probirkalardagi eritmalarni bir-biriga qo'ying va so'ng loyqa hosil bo'lishini aniqlang.

Uchinchi juft probirkalarni temperaturasi 20<sup>o</sup>C ko'tarilgan stakanga tushiring va yuqoridagi tajribani takrorlang . Reaksiya tezligini temperaturaga bog'liq ekanligi haqida xulosa chiqaring.

Tajriba natijalari quyidagi jadvalga yozing

| Probirka nomeri | Na <sub>2</sub> S <sub>2</sub> O <sub>3</sub> ni miqdori ml | H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> ning miqdori ml | suvin temperatu-rasi °C | loyqa hosil bo'lish uchun ketgan vaqt t | Reaksiyaning nisbiy tezligi. V=100/t |
|-----------------|---|--|-------------------------|---|--------------------------------------|
| 1               | 5   | 5  |                         |   |                                      |
| 2               | 5   | 5  |                         |   |                                      |
| 3               | 5   | 5  |                         |   |                                      |

Absisalar o'qiga suvning temperaturasini va ordinatalar o'qiga reaksiyaning nisbiy tezligini quyib grafik chizing.

#### 3- Tajriba. Reaksiya tezligiga katalizatorning ta'siri.

Ikkita probirka olib,3 ml dan vodorod peroksid eritmasidan qo'ying. Gaz ajralib chiqish tezligiga e'tibor bering. Probirkalardan biriga pichok uchiga ozgina marganes (IV) oksid MnO<sub>2</sub> quying. Nima kuzatiladi? Reaksiya tezligiga katalizatorning ta'siri to'grisida xulosa chiqaring.

#### 4- tajriba. Sirt yuzasining reaksiya tezligiga ta'siri.


Ikkita probirka olib va xar biriga 5-6 ml. dan 10% eritmasidan qo'ying. Birinchi probirkaga no'xatdak keladigan marmar bo'lakchasiidan, ikkinchisiga esa marmar - CaCO<sub>3</sub> kukunidan bir chimdim tashlang. Probirkadagi reaksiya tezliklarini takkoslang. Sirt yuzasining reaksiya tezligiga ta'siri haqida xulosa chiqaring. Reaksiya tenglamasini yozing.

### LABORATORIVA ISHI №6 KIMYOVIY MUVOZANAT


#### Nazariy qism

**Qaytar va qaytmas reaksiyalar.** Kimyoviy reaksiyalar jarayonining qaytar va qaytmasligiga ko'ra ikki turga: qaytar va qaytmas reaksiyalarga bo'linadi. Faqat bir yo'nalishda boradigan va reaksiyaga kirishayotgan boshlangich moddalar oxirgi mahsulotlarga to'liq aylanadigan reaksiyalar *qaytmas reabiylar* deyiladi. Kimyoviy reaksiyalar reaksiya mahsulotlaridan biri reaksiyon muhit doirasidan chiqib ketadigan hollarda (gaz ajralib chiqkanda, cho'kma tushganda, amalda dissotsiyalanmaydigan moddalar hosil bo'lganda), shuningdek reaksiya natijasida katta miqdorda issiqlik ajralib chiqqan hollarda qaytmas reaksiya hisoblanadi.

Masalan:




yoki




Ko'pchilik kimyoviy reaksiyalarda reaksiya mahsulotlari bir-biri bilan ta'sirlashib dastlabki moddalarini hosil qilishi mumkin. Masalan uglerod (IV)-oksid (CO<sub>2</sub>) bilan vodorod (H<sub>2</sub>) qizdirilganda o'zaro reaksiyaga kirishadi, natijada uglerod (II)-oksid va suv bug'i hosil bo'ladi. Shu sharoitning o'zida CO va suv bug'i o'zaro ta'sirlashib dastlabki moddalar C<sub>2</sub>O<sub>2</sub> va H<sub>2</sub> hosil qiladi.

Bunday reaksiyalar odatda, bir tenglama bilan yoziladi va tenglik o'rniiga qarama-qarshi strelkalar qo'yiladi:



Ayni sharoitda bir vaqtning o'zida o'zaro qarama-qarshi yo'nalishda ketadigan reaksiyalar *qaytar reaksiyalar* deyiladi.

Qaytar reaksiyalarning umumiy tenglamasi quyidagichabo'ladi.



Bunda massalar ta'siri qonuniga asosan, to'g'ri va teskari reaksiyalarning tezliklari- V<sub>1</sub>, V<sub>2</sub> quyidagiha teng bo'ladi:

$$V_x = K | A |^a | B |^b | ea | K_2 = K_2 [cfM]$$

**Kimyoviy muvozanat. Muvozanat konstantasi.** To'g'ri reaksiyaning tezligi vaqt o'tishi bilan kamayadi, chunki reaksiyaga kirishuvchi A va B moddalarining konsentrasiyasi kamayib boradi. Teskari reaksiya tezligi ortib boradi. Chunki C va D moddalar konsentrasiyasi ortib boradi. Nihoyat, shunday payt keladiki, qarama-qarshi reaksiyalarning tezliklari tenglashadi (V<sub>1</sub> = V<sub>2</sub>)

Qaytar jarayonning to'g'ri va teskari reaksiyalar tezligi teng bo'lgan holati *kimyoviy muvozanat* deyiladi. Bunda V<sub>1</sub>=V<sub>2</sub> bo'lgani uchun:

$$K_{\text{c}}[A] \cdot [B] = K_{\text{c}}[c] \cdot [\text{f} > \Gamma \text{ bo'ladi.}]$$

cIII \*, κ

Bundan,

K<sub>m</sub> - muvozanat konstantasi.

K<sub>T</sub> - ning qiymati reaksiyaga kirishuvchi moddalaming tabiat va haroratsiga bog'liq, lekin aralashmaydigan moddalaming konsentrasiysi, bosim va katalizatorga bog'liq emas. Moddalaming muvozanat vaqtidagi konsentrasiysi *muvozanat konsentrasiysi* deyiladi.

Kimyoviy muvozanat qaror topganda reaksiya to'xtamaydi, o'zaro qarama-qarshi ikki jarayon orasida *harakatchan* (siljishi mumkin bo'lgan) kimyoviy muvozanat qaror topadi.

### Muvozanatning siljishi, Le-Shatele prinsipi.

Kimyoviy muvozanat faqat o'zgarmas sharoitda saqlanib turadi. Reaksiyaga kirishuvchi moddalaming konsentrasiysi, haroratsi yoki bosimi o'zgarsa, muvozanat buziladi va reaksiyada katnashuvchi hamma moddalaming muvozanat vaqtidagi konsentrasiysi o'zgaradi.

Sharoit o'zgarishi bilan reaksiyaga kirishuvchi moddalaming muvozanat konsentrasiyasingin o'zgarishi *muvozanatni siljishi* deyiladi. muvozanatni siljishi 1884 yilda ta'riflangan umumiy qoidaga - *Le-Shatele prinsipi* bo'yusunadi. Le-Shatele prinsipi quyidagicha ta'riflanadi: kimyoviy muvozanat holatida to'rgan sistemada tashqi sharoitlardan biri (masalan: harorat, bosim yoki konsentrasiya) o'zgartirilsa, muvozanat tashqi ta'simi kamaytiradigan reaksiya tomoniga siljiydi.

**Konsentrasiya o'zgarishining ta'siri.** Reaksiyaga kirishuvchi moddalardan birining konsentrasiysi ortganda, muvozanat shu modda konsentrasiyasingin kamayishiga olib keladigan reaksiya tomoniga siljiydi. Aksincha, reaksiyada qatnashuvchi moddalardan birining konsentrasiysi kamayganda, muvozanat shu modda hosil bo'ladigan reaksiya tomoniga siljiydi. Buni ushu reaksiya misolida ko'rib chiqamiz:




Agar CO yoki H<sub>2</sub>O ning konsentrasiysi oshirilsa, muvozanat o'ngga siljiydi. C<sub>0</sub><sub>2</sub> yoki 1L konsentrasiysi oshirilsa, muvozanat chapga siljiydi. CO yoki H<sub>2</sub>O ning konsentrasiysi kamaytirilganda ham muvozanat chapga siljiydi.

Harorating o'zgarishining ta'siri. Le-Shatele prinsipi muvofiq, harorat ko'tarilganda muvozanat endotermik reaksiya (ya'ni issiqlik yutilishi bilan boradigan reaksiya) tomoniga siljiydi. Harorat pasaytirilsa, muvozanat ekzatermik reaksiya (ya'ni issiqlik chiqarishi bilan boradigan reaksiya) tomoniga siljiydi. Masalan:



Bu reaksiyada harorat oshirilsa, muvozanat o'ng tomon, ya'ni NO ni hosil bo'lish reaksiyasi tomoniga siljiydi. Aksincha, haroratni pasaytirilsa, muvozanat chap tomon, ya'ni NO ni parchalanish reaksiyasi tomoniga siljiydi.

**Bosim o'zgarishining ta'siri.** Sistemada gaz moddalari ishtirok etsa, bosim ahamiyatga ega bo'ladi, chunki bosimning o'zgarishi konsentrasiyaning o'zgarishi demakdir. Le-Shatele prinsipi muvofiq bosimning ortishi. muvozanatni gaz aralashmasidagi molekulalar umumiy sonining kamayishiga va demak, sistemada bosimning kamayishiga olib keladigan reaksiya tomoniga siljitadi. Aksincha, bosim kamaytirilsa. muvozanat gaz molekulalarining umumiy sonining ortishiga va natijada sistemada bosimning ortishiga sabab bo'ladigan reaksiya tomoniga siljiydi. Masalan:




Bu reaksiyada bir molekula azot bilan uch molekula vodoroddan faqat ikki molekula ammiak hosil bo'ladi. Bunda molekulalar soni kamaygani uchun bosimning ko'tarilishi reaksiya muvozanatini o'ngga-ammiak hosil bo'lishi tomoniga siljitadi. Aksincha, bosim kamayganda. muvozanat chapga ammiak parchalanadigan tomoniga siljiydi.

Gaz moddalaming hajmi o'zgarmaydigan jarayonlarda bosim muvozanatga ta'sir ko'rsatmaydi. Kimyoviy muvozanat qonunlarini o'rganish qaytar kimyoviy reaksiyalami boshqarishda va ulardan ko'proq mahsulot olishda katta ahamiyatga egadir.

### Ishning bajarilishi

1- *tajriba. Reaksiyaga kirishuvchi moddalalar konsentrasiyasining o'zgarishini kimyoviy muvozanatga ta'siri*

Temir (III) - xlorid bilan ammoniy radonit orasidagi reaksiya quyidagi tenglama bilan ifodalanadi.




Eritmaning koramtr kizil ranga kirishi Fe(SCN)<sub>3</sub> hosil bo'lganligidan dalolat beradi. Probirkaga 5-6 ml FeCl<sub>3</sub> ning 0,02 N eritmasidan qo'ying. Ustiga ushancha miqdordan NH<sub>4</sub>SCN ning 0,02 N eritmasidan qo'ying. Hosil bo'lgan eritmani teng miqdorda 4 ta probirkaga bo'ling. Birinchi probirkaga FeCl<sub>3</sub> ning tuyingan eritmasidan, ikkinchisiga NH<sub>4</sub>SCN tuyingan eritmasidan 3-4 tomchi qo'ying.

Uchchala probirkalardagi rangini o'zgarishini turtinchli probirka rangi bilan takkoslang. kimyoviy muvozanatning siljishiga konsentrasiyaning ta'siri to'grisida xulosa chiqaring. Sistemaning muvozanat konstantasi tenglamasini yozing. Eritma rangini o'zgarishiga qarab kimyoviy muvozatning siljishini quyidagi tablisaga yozing.

| Probirkaning raqami | qo'shilgan modda    | eritma o'zgarishi | rangingining muvozanatning siljishi yo'nalishi |
|---------------------|---------------------|-------------------|--|
| 1                   | FeCl <sub>3</sub>   |                   |  |
| 2'                  | NH <sub>4</sub> SCN |                   |  |
| 3                   | NH <sub>4</sub> Cl  |                   |  |

2- *Tajriba. Haroratning o'zgarishini kimyoviy muvozanatga ta'siri.*

Kraxmalga yod ta'sir ettinganimizda, ko'k rangli murakkab tarkibli barqaror modda hosil bo'ladi. Bu ekzotermik reaksiyadir. Sistemaning muvozanatini shartli ravishda quyidagi tenglama bilan ifodalash mumkin:



Ikkita probirka olib har biriga 2-3 ml dan kraxmal eritmasidan qo'ying, ustiga shuncha miqdorda yod quying. Ko'k rang paydo bo'lishiha axamiyat bering. Probirkalardan birini qizdiriling. Qizdirilganda eritma rangingining o'zgarishini Le-Shatele prinsipi asosida tushintirib bering.

### LABORATORIYA ISHI № 7,8 ERITMA TAYYORLASH

#### Nazariy qism

Dispers sistemalar. Bir modda ichida boshqa bir muddaning ma'lum darajada maydalangan zarralar hamda tarqalishi natijasida hosil bo'lgan sistemalar *dispers sistemalar* deyiladi.

Dispers fazalar zarrachalarning o'chamiga qarab, dispers sistemalar bir necha guruhga bo'linadi:

1. Dag'al dispers sistemalar.
2. Kolloid eritmalar.
3. CHin (haqiqiy) eritmalar.

Dag'al dispers sistemalarda dispers fazalar zarrachalarning o'chamiga 100 nm dan katta bo'lib, ularni ko'z bilan yoki oddiy mikroskopda ko'rish mumkin. Ular zarrachalari oddiy filtr qog'ozdan ham o'tmaydi. Dispers fazalar zarrachalari tezda idish tubiga cho'kadi yoki qavat holida ajraladi. Dag'al dispers sistemalar geterogen sistemalardir.

Dag' al dispers sistemalar tarkibiga ko'ra, suspenziya va emulsiyalarga bo'linadi. Dispers fa/n qattiq moddadan, dispersion muhit suyuq moddadan iborat dag' al dispers sistemaga *suspenziya* deyiladi. Suspenziyaga, bo'ming mayin kukuni va suv aralashmasi misol bo'ladi. Dispers faza ham, dispersion muhit ham suyuq moddadan iborat dag' al dispers sistemaga *emulsiya* deyiladi. Emulsiyagi. sut, o'simlik moyi yoki benzinning suv bilan aralashmasi misol bo'ladi.

Dispers fazazarrachalari o'lchami 1 nm dan 100 nm oralig'ida bo'lgan dispers sistemalar *kolloid eritmalar*, boshqacha aytganda, *zollar* deyiladi. Dispers muhit gazsimon bo'lgan moddalar sistemasi *aerozollar*, dispers faza qattiq bo'lganda *tutunlar* deyiladi. Agar dispers faza gaz dispers muhil suyuqlik bo'lsa, bunday sistema *ko pik* deyiladi. Kolloid eritmalar qon plazmasi, tuxum oqsilining suvdagi eritmasi misol bo'ladi.

Kolloid zarrachalaming molekulyar tortishish kuchi ta'sirida bir- biriga yopishib, ancha yirik agregatlar holida cho'kishi *koagulyasiya* deyiladi.

Agar kolloid eritmaldan nurlar dastasi o'tkazilsa, suyuqlikda yaxshi ko'rindigan yorug'lik konusi paydo bo'ladi, bu hodisa *Tindal effekti* deyiladi.

CHin (xaqiqiy) eritmalar zarrachalar o'lchami 1 nm dan kichiq bo'ladi, ular zarrachalarini mikroskop yordamida ham ko'rib bo'lmaydi. Har qanday filtr qog'ozdan o'tib ketadi, yorug'lik no'rim to'g'ridan-to'g'ri o'tkazadi, koagulyasylanmaydi. CHin eritmalariga, osh tuzi yoki shakaming suvdagi eritmasi misol bo'ladi.

**Eritmalar konsentrasiyasi. Eruchanlik.** Eritmaning yoki erituvchining ma'lum massi miqdorida yoki ma'lum hajmida erigan modda miqdori *eritma konsentrasiyasi* deb ataladi. Eritma konsentrasiyasi bir necha usulda ifodalash mumkin:

1. Eigan moddaning massa ulushi yoki foiz konsentrasiyasi Eigan modda massasini eritmaning umumiyl massasiga nisbati erigan moddaning massa ulushini tashkil qiladi.

$$\frac{m}{m \cdot M} \text{ - } \frac{\text{еригаи мө(к)а}}{\text{эрима}} = \frac{m}{m \cdot H_i} \text{ - } \frac{\text{эригаи эритувчн}}{\text{эримма}}$$

Bu qiyatni 100 ga ko'paytirlsa, massa ulushini foizlar ifodalangan qiyati *foiz konsentrasiyasi* olinadi.

$$\frac{m}{m \cdot H_i} \cdot 100\% = \frac{100\%}{\text{эримма}}$$

2. Molar konsentrasiya

11(1000ml) eritmada erigan moddaning mollar soni bilan ifodalanadigan konsentrasiyasi *molar konsentrasiya* deyiladi.

$$c = \frac{m}{M \cdot V} \cdot 1000 \text{ yoki } C = \frac{c}{M}$$

bu erda  $C_M$  - eritmaning molar konsentrasiyasi, mol/l yoki molyarli;

$\text{УП}$  - erigan moddaning massasi (g);

$M$  - erigan moddaning molekulyar massasi (g/mol);

$V$  - eritmaning hajmi (ml);

$n$  - erigan modda miqdori (mol);

$V$  - eritma hajmi (1).

3. Normal konsentrasiya.

11(1000ml) eritmada erigan moddaning gramm ekvivalentlar soni bilan ifodalanadigan konsentrasiyasi *normal konsentrasiya* deyiladi.

$$C_M = \frac{1000}{M \cdot V}$$

bu erda  $C_M$  - eritmaning normal konsentrasiyasi

E - erigan moddaning ekvivalent masasi (g/ekv)

M- erigan moddaning masasi

V - eritmaning hajmi (ml).

4. Molyal konsentrasiya. 1000 g erituvchida erigan moddaning gramm molekulalar soniga *molyal konsentrasiyasi* (*molyallik*) deyiladi.

$m$  - 1000

$m_{\text{нр. ВИЛУ}}$

$m_{\text{Jpуме4u}}$

Tir 1 ml eritmadagi erigan moddaning massa miqdori *titr* deb ataladi va T harfi bilan belgilanadi.

$$T = \frac{m}{1000}$$

bu erda E-erigan modda ekvivalent massa.

N- eritmaning normal konsentrasiyasi

Moddaning biror erituvchining 100 grammida eriy olish xususiyati *moddaning eruvchanligi* deyiladi. Moddalaming eruvchanligi (ya'ni tuyingen eritmasining konsentrasiyasi) erigan moddaning va erituvchining tabiatiga shuningdek, harorat va bosimga bog'liq.

Ayni moddaning ma'lum haroratda 100 g erituvchida erib, tuyingen eritma hosil qiladigan massasi uning *eruvchanlik koeffisienti* deb ataladi.

Quyida ba'zi moddalaming 20°C dagi eruvchanligi keltirilgan.

| Modda       | eruvchanlik g. |
|-------------|----------------|
| $C_6H_nO_6$ | 200            |
| NaCl        | 35             |
| $CaCO_3$    | 0,0013         |
| AgJ         | 0,00000013     |

Nazariy jihatdan olganda mutlaqo erimaydigan modda bo'lmaydi. Hatto, oltin va kumush ham juda oz darajada bo'lsa ham suvda eriydi.

### Elektrolitik dissotsilanish nazariysi. Vodorod ko'rsatkich - pH

**Elektrolitik dissotsilanish nazariysi.** Suvdagi eritmalar yoki suyuqlanmalari elektr tokini o'tkazuvchi moddalar *elektrolitlar* deyiladi. Kislota, asos va tuzlar elektrolitlardir.

Shved olimi S.Arrenius elektrolitlaming xossalarni o'rganib (1887y) quydagi xulosaga keldi.


Elektrolitlar suvdagi eritmalarida yoki suyuqlanmalarida musbat va manfiy ionlarga dissotsiyalani. Musbat zaryadlangan ionlar *kationlar*, manfiy zaryadlangan ionlar *anionlar* deyiladi. Ionlaming uzluksz harakati elektr tokini o'tkazishga sabab bo'ladi. Elektrolit ionlarga ajralganda bitta molekuladan ikki va undan ortiq ion hosil bo'lishi natijasida eritmadagi zarrachalaming umumiyl soni ortadi.

**Kislota, asos va tuzlarning dissotsilanishi.** Eritmada vodorod kationi ( $H^+$ ) va kislota qoldig i anioniga dissotsilanuvchi birikmalar *kislotalar* deyiladi.

Masalan:  $HNO_3 + 2VH + NO_3^-$


Hosil bo'lgan /Tionida elektron qavat bo'lmaydi. SHuning uchun u suvli muhitda

$H^* + H_2O \rightleftharpoons H_3O^+$  hosil qiladi. Eritmada  $/T$  ionining bo'lishi eritmalarning kislotali xususiyatiga sabab bo'ladi.




Biroq, dissotsilanish tenglamalarining soddalashtirish maqsadida  $H_2O$  o'miga  $H$  yoziladi.

Asoslar eritmalarida metall ionlari bilan gidroksid ionlariga dissotsilanadi, masalan:




Asoslar eritmalarida  $OH^-$  ionlarining borligi ishqoriy muhit hosil qiladi.

Kislota va asoslardan tashkari ham kislota ham asos xossalari ega bo'lgan gidroksidlar amfoter gidroksidlar deyiladi.





SHuning uchun **Zn** ( $OH^-$ )<sub>2</sub> ham kislota, ham asoslar bilan reaksiyaga kirishadi.



Tuzlar eritmalarida metall ionlari bilan kislota qoldig'i ionlariga dissotsilanadi.

Masalan:




Suvdagagi eritmalarida ionlarga to'liq ajraladigan elektrolitlar *kuchli elektrolitlar* deyiladi. Ular jumlasiga  $HClO_4$ ,  $HCl$  va boshqa kislotalar,  $NaOH$ ,  $KOH$ ,  $Ca(OH)_2$ , **Ba(OH)**<sub>2</sub> kabi asoslar va deyarli barcha tuzlar kiradi.

Suvdagagi eritmalarida qisman dissotsiyalib juda oz miqdorda ionlar hosil qiluvchi elektrolitlar *kuchsiz elektrolitlar* deyiladi. Ular jumlasiga kuchsiz kislotalar ( $\text{CaCO}_3, \text{CaS}, \text{CaCO}_3, \text{CaC}_2$ )

qiyin eruvchi asoslar, shuningdek  $NH_4OH$  va ba'zi tuzlar kiradi.

**Dissotsilanish darajasi.** Kuchsiz elektrolitning dissotsilanishi natijasida hosil bo'lgan kation va anionlar bir biri bilan to'qnashib qayta erigan modda molekulasini hosil qila oladi, demak kuchsiz elektrolitning dissotsilanishi qaytar jarayondir. Kuchsiz elektrolitning dissotsilanish tenglamasida kuchli elektrolitning dissotsilanish farqli o'laroq tenglik belgisi o'rniga qaytar belgisi yoziladi.



Erigan moddalar yoki eritmadiagi elektrolit miqdorining qancha qismi ionlarga ajralganligini ko'rsatuvchi kattalik elektrolitik *dissotsilanish darajasi* deyiladi va (Z harfi bilan belgilanadi).

$a - n$  —  $n$ -moddaning ionlarga ajralgan molekulalar soni;  $N$  — erigan moddaning molekulalar soni.

Elektrolitning dissotsilanish darajasini foizda ifodalash uchun  $a$  ni 100% ko'paytiriladi.

Agar elektrolitning dissotsilanish darajasi  $a < 3\%$  bo'lsa kuchsiz elektrolit,  $a = 3-30\%$  bo'lsa o'rta kuchli elektrolit, 30% dan ortiq bo'lsa, kuchli elektrolit hisoblanadi.

Dissotsilanish darajasi elektrolit va eritvuchining tabiatiga hamda eritmaning konsentrasiyasiga bog'liqdir. Elektrolitning dissotsilanish darajasi bir eritvuchidan boshqa eritvuchiga o'tish bilan o'zgaradi. Eritma suyturilganda dissotsilanish darajasi ortadi.

Toza suv kuchsiz elektrolit hisoblanadi. Suv oz bo'lsada ionlarga dissotsilanadi:



Suvning dissotsiasiya darajasi xona haroratida ( $25^\circ C$ ) juda kichiq kiymatgaega:  $a = 1.8 \times 10^{-4}$ .

Suvning dissotsiasiya konstantasi

$$K = \frac{[H^+][OH^-]}{[H_2O]} = 1.8 \times 10^{-4} \text{ ga teng.}$$

1 litr suvdagi uning konsentrasiyasi:

$$[H_2O] = 4000 \text{ g/l} = 1000 : 18 \text{ mol/l} = 55,56 \text{ mol/l}$$

Bunda suvning dissotsiasiya konstantasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$K[H_2O] = [H^+][OH^-]$$

$$[ff][Off] = 1.8 \times 10^{-4} \cdot 55,56 = 10^{-14} (\text{mol/l})^2$$

$$[H^+][OH^-] = Kw - suvning ion ko'paytmasi deyiladi.$$

Vodorod va gidroksid ionlarining konsentrasiyalari bir xil bo'lgan eritmalar neytral eritmalar deyiladi.

Neytral eritmalar uchun:

$$[H^+] = [OH^-] = 10^{-7} \text{ mol/l ga teng.}$$

Kislotali muhitda  $[H^+] > [OH^-]$ , ishqoriy muhitda esa  $[H^+] < [OH^-]$  bo'ladi. Suvning ion ko'paytmasidan foydalaniib, muhitning har qanday reaksiyasini miqdoriy jixatdan  $H^+$  ionlarining konsentrasiyasi bilan ulchash mumkin. Bunda quyidagi nisbatni hisobga olish kerak:

$$[H^+] = 10^{-14}/[OH^-] \text{ mold va } [Off] = 10^{-14}/[H^+] \text{ mold.}$$

Muhit reaksiyasini miqdoriy jixatdan ifodalash uchun, odatda,  $H^+$  ionlari konsentrasiyasi umiga uning manfiy ishorali unli logarifmidan foydalilanildi. Bu kiymat vodorod ko'rsatkich deb ataladi va pH bilan ifodalananadi:

$$pH = -\lg[H^+]$$

pH = 7 bo'lsa neytral, pH < 7 bo'lsa kislotali, pH > 7 bo'lsa ishqoriy eritma hisoblanadi.

pH = 1-3 kuchli kislotali muhit

pH = 3-7 kuchsiz kislotali muhit

pH = 7 neytral

pH = 7-10 kuchsiz ishqoriy muhit

pH = 10-14 kuchli ishqoriy muhit

### Ishning bajarilishi

#### I. Foiz konsentrasiyali eritma tayyorlash

A. *Qattiq moddani suvda eritib tayyorlash.*

$Na_2CO_3 \cdot 10H_2O$  ni suvda eritib natriy karbonatni 5% li eritmasidan 200 g tayyorlang.

200 g 5% li eritma tayyorlash uchun proporsiya yo'li bilan zarur bo'lgan suvsiz  $Na_2CO_3$  miqdorini hisoblab toping.

Hisoblangan miqdordagi  $Na_2CO_3 \cdot 10H_2O$  ni 0,1 g aniqlik bilan texnokimyoiy tarozida tortib oling. Olingen miqdorni eritish uchun qancha suv kerakligini hisoblang. O'lchov silindriderda shu hajmdagi suvni o'lchab oling. Maydalangan tuzni ozroq miqdordagi suvda 200 ml o'lchov kolbasiga qo'ying va belgichigacha suv qo'ying. Tayyorlangan eritmani molyar va normal konsentrasiyasini hisoblang.

B. Konsentrlangan eritmaga suv qo'shib tayyorlash.

Xlorid kislotaling (HCl) konsentrlangi 37 % li eritmasidan foydalaniib 250 g. 10 % eritma tayyorlash uchun kislotadan qancha og'irlik qism kerakligini hisoblang va topilgan og'irlik birligini hajm birligiga aylantiring.

Qancha hajm suv kerakligini hisoblang. Hisoblangan hajmdagi kislotani silindrda o'lchab olib malum qismigacha suv quylgan 250 ml o'lchov kolbasiga qo'ying va belgisigacha suv qo'ying.

C. Har xil konsentrasiyali 2 eritmani aralashirib tayyorlash.

Natriy xloridning 5% li va 20% li eritmalarini aralashirib 8% eritma tayyorlang. Aralashirish qoidasidan foydalanim bosqlang'ich eritmalarning og'irlik qismilarini toping. Bu eritmalarning solishtirma og'irliklarini aniqlab, orqali ulaming hajmini hisoblang. O'lchov silindriderda bilan hisoblangan hajmdagi eritmalami o'lchab oling va ularni qo'shib, yaxshilab aralashirib. Areometr yordamida tayyorlangan eritmaning solishtirma og'irligini toping. Tayyorlangan eritmaning molyar va normal konsentrasiyasini hisoblab toping.

## 2. Molyar va norma) konsentrasiyali eritmalarini tayyorlash

### A. Qattiq moddani suvda eritib tayyorlash

BaCl<sub>2</sub>·2H<sub>2</sub>O ni suvda eritib bariy xloridning 0,5 n eritmasidan 250ml tayyorlang. Bariy xloridning 0,5 n eritmasidan 250ml tayyorlash uchun qancha BaCl<sub>2</sub> ·2H<sub>2</sub>O kerakligini hisoblab toping. Og'irligi malum bo'lган stakanga BaCl<sub>2</sub> solib texnoximiyaviy tarozida uni hisoblangan miqdorini 0,01 g aniqlik bilan tortib oling. Tortib olingen tuzni ozgina suvda aniqlik bilan tortib oling. Tortib olingen tuzni ozgina suvda eritib 250 ml li o'lchov kolbasiga voronka yordamida qo'ying. Voronkada qolgan eritmani distillangan suv bilan yaxshilab yuvib tushiring. Kolbani belgisigacha suv qo'ying. Tayyorlangan eritmani solishtirma og'irligini Areometr yordamida aniqlang. Eritmani molar va foiz konsentrasiyasini hisoblang.

### B. Konsentrlangan nitrat HN<sub>0</sub><sub>3</sub> kislotadan 250 ml IMeritma tayyorlash.

Areometr yordamida HN<sub>0</sub><sub>3</sub> ni solishtirma og'irligini aniqlang. Eritma tayyorlash uchun kerak bo'lган kislotaning og'irligini hisoblab topib uni hajmi miqdoriga aylantiring. 250 ml li o'lchov kolbasining yarmigacha suv quyib ustiga hisoblangan hajmdagi kislotani o'lchov silindrida o'lchab voronka yordamida qo'ying. O'lchov silindrida qolgan kislota yuqini distillangan suvda chayib o'lchov kolbasiga qo'ying va yaxshilab aralashirting. So'ng o'lchov kolbasini belgisigacha distillangan suv qo'ying. Tayyorlangan eritmani solishtirma og'rligini areometr yordamida aniqlang va ayyorlangan sklyankaga qo'ying. Eritmaning foiz va normal konsentrasiyasini hisoblang.

### Eritmalar pH- muhitini aniqlash.

Kerakli jixozlar: KSL-1104 rusumli asbob, stakanlar.

Kerakli reaktivlar: NaCl, Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub>, NaHCO<sub>3</sub> ning 0,5 %li eritmalarini, CH<sub>3</sub>COONa, FeCl<sub>3</sub>, CuSO<sub>4</sub> i laming 1% li eritmalarini, distillangan suv, salfetkaqog'ozlar.

pH ni aniqlashda istek pH(ISE)DO- metr asbobidan foydalananamiz.

Asbobni ishlatalish uchun maxsus idishda belgilangan pH =4, pH =7, pH =10 standart eritmardan foydalanim kolibrovk ya'ni muvofikliqqa keltiriladi.

Asbob tok manbaiga ulanib eiekthrodlar SN2-TS tomonga ulanadi, chunki pH ni aniqlashda «V» kanalidan foydalanaladi, POWER bosiladi, channel «V» ga to'g'rilanadi. «V» kanal pHda bo'lishi kerak, har bir standart eritmada, ya'ni pH =4, pH =7, pH =10 ga solingen eiekthrodlar distillangan suv bilan ikki marta yuvib, salfetka bilan artiladi.

pH =4 bo'lган suyuqlikka elektrond tushiriladi.

- a) POWER bosiladi,
- b) RESET bosiladi,
- v) READY MFASURE tugmasi bosiladi va ekranni oxirgi bosqichgacha kuzatish zarur.

Ekranda pH =4ni ko'satsa, ekran POWER orqali o'chiriladi. So'ngra elektrond distillangan suvda yuvilib (2 marta) salfetkada artiladi.

Shu taripa pH =7, pH =10 bo'lган holatlar ham kuzatiladi.


Barcha pH lar normal holatda ekanligiga ishonch hosil qilgandan keyingina tajribadagi eritmalarini pH ni aniqlash lozim.

Stakanlarga NaCl, Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub>, NaHCO<sub>3</sub>, CH<sub>3</sub>COONa, FeCl<sub>3</sub>, CuSO<sub>4</sub> eritmalarini qo'ying va ularni pH ko'satgichlarini aniqlang. Bu eritmalar muhitini va eritmadagi gidroliz jarayoni va muhitning yuzaga kelish sababini izohlang.



| eritmalar                       | Vodorod<br>ko'satkich-<br>PH | Eritma muhitini | Gidroliz tipi |
|---------------------------------|------------------------------|-----------------|---------------|
| NaCl                            |                              |                 |               |
| Na <sub>2</sub> CO <sub>3</sub> |                              |                 |               |
| NaHCO <sub>3</sub>              |                              |                 |               |
| CH <sub>3</sub> COONa           |                              |                 |               |
| FeCl <sub>3</sub>               |                              |                 |               |
| CuSO <sub>4</sub>               |                              |                 |               |

## LABORATORIYAISHI № 9 OKSIDLANSH-QAYTARILISH REAKSIYALARI Nazariy ma'lumot

**Oksidlanish qaytarilish reaksiyalarining mohiyati.** Ko'pchilik kimyoiy reaksiyalarda reaksiyaga kirishuvchi moddalar tarkibidagi elementlarning oksidlanish darajasi (valentligi) reaksiya natijasida o'zgarmaydi.





Boshqa turdag'i reaksiyalarda elementlarning oksidlanish darajasi o'zgaradi.




Elektronlaming bir atomdan ikkinchi atomga o'tishi natijasida elementlarning oksidlanish darajasi (valentligi) o'zgaradigan reaksiyalar oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini deyiladi.

Oddiy moddalarida atomlar elektroneutral bo'ladi. SHuning uchun ulaming oksidlanish darajasi shartli ravishda nolga teng deb qabo'l qilingan.

Neytral atomlar elektron yo'qotishi natijasida musbat zaryadlangan ionga aylanadi va nechta elektron bergan bo'lsa o'shancha musbat oksidlanish darajasi namoyon qiladi. Atomlaming elektron berish jarayoni oksidlanish deyiladi.





Atomlar elektron biriktilib olsa manfiy zaryadlangan ionga aylanadi. Bunda atom nechta elektron qabo'l qilgan bo'lsa uning oksidlanish darajasi shuncha manfiy bo'ladi. Atomning elektron biriktilib olish jarayoni qaytarilish deyiladi. Masalan:





O'zidan elektron bergan atom qaytaruvchi, o'ziga elektron biriktilib olgan atom esa oksidlovchi hisoblanadi.

Faqat neytral atomlar emas, balki ionlar ham elektron biriktishi yoki berishi mumkin.




Qaytaruvchi elektron berganligi sababli, uning oksidlanish darajasi algebraik qiymati ortadi. Oksidlovchi elektron biriktilib olish tufayli uning oksidlanish darajasi algebraik qiymati kamayadi. Masalan:



Demak, oksidlanish - qaytarilish reaksiyasi yagona jarayondir. Oksidlanish vaqtida qaytarilish sodir bo'ladi, aksincha qaytarilish vaqtida oksidlanish jarayoni ham boradi.

Oksidlanish - qaytarilish reaksiyalarining quyidagi turlari ma'lum:


1 .Molekulalararo oksidlanish - qaytarilish reaksiyalarida oksidlovchi element bir modda tarkibida qaytaruvchi element boshqa modda tarkibida bo'ladi.



$\text{Ni}^{+2} + 2e^- \rightarrow \text{Ni}^{\circ}$  (oksidlovchi, o'zi qaytariladi)

$\text{C}^{+2} - 2e^- \rightarrow \text{C}^{\circ}$  (qaytaruvchi, o'zi oksidlanadi)

2.1chki molekulyar oksidlanish - qaytarilish reaksiyalarini bir molekula tarkibiga kiruvchi turli elementlarning oksidlanish darajasi o'zgaradi.



$2\text{Cl}^{+5} + 6e^- \rightarrow 2\text{Cl}^{\circ}$  (oksidlovchi, o'zi qaytariladi)

$2\text{O}_2^{\circ} - 4e^- \rightarrow 2\text{O}^{\circ}$  (qaytaruvchi, o'zi oksidlanadi)

3. Disproporsiyalanish reaksiyalaridan ham oksidlovchi ham qaytaruvchi vazifasini bir element atomlari bajaradi.






$\text{N}^{+3} - 2e^- \rightarrow \text{N}^{+5}$  (qaytaruvchi)

$\text{N}^{+3} + 2e^- \rightarrow \text{N}^{+2}$  (oksidlovchi)

### Ishning bajarilishi




#### 1- Tairiba: Ruxning sulfat kislota bilan o'zaro ta'siri.

Probirkaga 3-4 ml sulfat kislota  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasidan quyib, unga rux bo'lakchasidan tashlang. Vodorod ajralib chiqishini kuzating, reaksiya tenglamasini yozing. Elektron tenglamasi asosida oksidlovchi va qaytaruvchini ko'rsating.





#### 2- Tajriba: Misni uning birikmasi tarkibidan temir vordamida siaib chioarish.

Probirkaga 3-4 ml mis sulfat eritmasidan qo'ying. Unga yuzasi zangdan tozalangan temir plastinkasi tushiring. Temir plastinkani yuqori qismi suyuqlika botmasin. 2-3 minutdan so'ng plastinkani eritmada oling. Suv bilan yuvning va plastinkani ustida erkin xolda mis ajralib chiqqanligini kuzating. Reaksiyaning umumiyligi va elektron tenglamasini tuzing. Oksidlovchini va qaytaruvchini ko'rsating.



#### 3- Tajriba: Misni konsentrланган nitrat kislota bilan o'zaro ta'siri. (Tajriba murili shkafda bajariladi.)

Probirkaga 1-2 ml konsentrланган sulfat kislota  $\text{H}_2\text{SO}_4$  qo'ying. Unga bir bo'lak mis Cu simidan tushiring. Qo'ng'ir tusli gaz ajralishiga e'tibor bering. Reaksiyaning umumiyligi va elektron tenglamasini tuzing. Oksidlovchi va qaytaruvchini ko'rsating.






#### 4- Tajriba Temir-(IIP) xloridning kaliv vodid bilan o'zaro ta'siri.

Probirkaga 2-3 ml  $\text{FeCl}_3$  eritmasidan quyib unga bir necha tomchi kaliy yodid- KJ xamda kraxmal kleysteri eritmalaridan kushing. Klik rang hosil bo'lishiga etibor bering. Ko'k rangni hosil


bo'lishi eritmada KJ molekulalari vujudga kelganligidan dalolat beradi.  $\text{FeCl}_3 + \text{KJ} \Rightarrow \text{FeCl}_2 + \text{J}_2 + \text{KCl}$

Reaksiyaning elektron tenglamasini tuzing. Koeffisientlarini qo'ying. Oksidlovchi va qaytaruvchini ko'rsating.






S.Tairiba. Vodorod neroksidning kaliv vodid bilan o'zaro ta'siri.

Probirkaga 2-3 ml vodorod peroksid  $\text{H}_2\text{O}_2$  eritmasidan qo'ying. Unga bir necha tomchi kaliy yodid KJ eritmasidan qo'shing. Erkin xoldagi yod uchun xarakterli bo'lgan qo'ng'ir rangi paydo bo'lishini kuzating. Reaksiya ushbu sxemabo'yicha boradi.




Elektron tenglamasini yozing. Oksidlovchi va qaytaruvchini ko'rsating.





#### 6- Tairiba. O'z-o'zidan oksidlanisha avtarilish reaksiyasi.

3- 4 bo'lak yod J<sub>2</sub> kristalidan oling va unga natriy ishqori - NaOH eritmasidan tomizing va asta-sekin qizdiring. Yodning eritmagaoti shini va yod rangini o'zgarishiga ahamiyat bering.




Reaksiya tenglamasini yakunlang va elektron tenglamasi asosida koeffisientlar qo'ying.

Oksidlovchi va qaytaruvchini ko'rsating.





#### 7- Tairiba. Ichki molekulyar oksidlanish-qavtarilish reaksiyasi.

Bir necha dona ammoniy bixromat-  $(\text{NH}_4)_2\text{Cr}_2\text{O}_7$  kristalini azbestlangan to'ga qo'yib, parchalanish reaksiyasi sodir bo'luncha qizdiring. Reaksiya natijasida qattiq modda - CrO<sub>3</sub> gaz holidagi azot - N<sub>2</sub> varangli modda hosil bo'lishiga e'tibor bering.



Reaksiyasi tenglamasini yakunlang va elektron tenglamasi asosida koeffisientlar qo'ying.

Oksidlovchi va qaytaruvchini ko'rsating.



LABORATORIYA ISHI JV»10  
ISHQORIY METALLARNING KIMYOVIY XOSSALAR1

Nazariy ma'lumotlar

Metallarning umumiyligi xossalari

Metallar (simobdan boshqa) oddiy temperaturada o'ziga xos yaltiroqlikka ega, issiqlikni va elektr tokini yaxshi o'tkazuvchi qattiq moddalardir.

Ko'pchilik metallar atomlarningtashqi kvant qavatida 1-2 taelektron bo'ladi.

Metallarning atomlari o'zlarining valent elektronlarini oson yo'qotib, musbat zaryadlangan ionlarga aylanadi. Demak, erkin metallar - qaytaruvchilaridir.


Metallarning valentligi birga, ikkiga va uchga (kamdan-kam hollarda to'rtga) teng bo'lgandn, ulaming ion lari eritmada erkin holatda bo'ladi.

Agar metallarning valentligi juda yuqori bo'lsa, ular murakkab ionlaming ( $V_0^{3+}$ ,  $Cr_2O_7^{2-}$ ,  $MnO_4^-$ ) va hokozo) tarkibiga kiradi.

Metallar yuqori valentlikni namoyon qila oladigan birikmalar, masalan,  $KMnO_4$ ,  $K_2Cr_2O_7$ ,  $PbO_2$  aniq oksidlash xossasiga ega bo'ladi.

Quyi valentli metallarning ionlari, masalan  $Mn^{2+}$ ,  $Sn^{2+}$ ,  $Fe^{2+}$  odatda qaytaruvchilar.


Metallarning ko'pchiligi kislород bilan bevosita birikib, oksidlar hosil qiladi. Eng aktiv metallar havoda oson oksidlanadi:



Suvdan vodorodni siqb chiqaradi, bunda ishqorlar hosil bo'ladi:



Deyarli hamma metallar kislotalar bilan reaksiyaga kirishib tuzlar hosil qiladi. Metallar bilan kislotalaning o'zaro tasir etishi metalining aktivligiga ham, kislotalaning xossalari bilan konsentarsiyasiga ham bog'liq bo'ladi. Metalga kislota tasir ettirilganda yo vodorod ioni, yoki kislородli kislota qoldig'i oksidlovchi rolini o'taydi.



Bazi metallar, masalan, rux hamda alyuminiy ishqorlar tasirida tegishli kislotalarning juda kuchsiz tuzlarni hosil qiladi va vodorod ajralib chiqadi:



Metallar, odatda, vodorod bilan birikib, gazsimon modda hosil qiladi:



### Ishqorli metallar


Umumiy tavsif. Birinchi guruh asosiy guruhchasi elementlari ishqorli metallar deb atalib, ular Li, Na, K, Rb, Cs va Fr elementlaridan iborat. Bu elementlarning tashqi elektron qavatlari s' elektronlari mayjud. Shuning uchun bu elementlari kimyoiy reaksiya paytida s' elektronni osongina yo'qotib, kuchli qaytaruvchi xossalini namoyon qiladi va doimo +1 ga teng oksidlanish darajasiga ega bo'ladi. Bu elementlarda Li dan Fr ga tomon atom radiuslari kattalashadi, ammo ion zaryadlari o'zgarmaydi. Shuning uchun bu elementlarning metallik va qaytaruvchilik xossalari ortib boradi. Bu elementlarning ishqorli metallar deb atalishiga sabab, ular suv bilan shiddatli reaksiyaga kirishib, asos va vodorod hosil qiladi. Hosil bo'lgan birikmalar esa kuchli ishqorlardir.

**Tabiatda uchrashi.** Ishqorli metallar sof holda tabiatda uchramaydi. Ko'pgina elementlarga o'xshab, ular alyumosilikatlar tarkibida uchraydi. Litiyning eng muhim minerallari lepidolit  $K_2O \cdot 2Li_2O \cdot Al_2O_3 \cdot 6SiO_2 \cdot Fe(OH)_2$ , spodumen  $Li_2O \cdot Al_2O_3 \cdot 2SiO_2$ , ambligonit  $LiAlPO_4F$  yoki  $LiAlPO_4O_11$  va boshqalar. Natriy minerallari osh tuz  $NaCl$ , glabuer tuzi  $Na_2SO_4 \cdot 10H_2O$ , kriolit  $Na_3AlF_6$ , burn  $Na_2B_4O_7 \cdot 10H_2O$ , silvinit  $NaClKCl$ , chili selitrasi  $NaNO_3$ , dala shpati  $Na_2O \cdot Al_2O_3 \cdot 6SiO_2$  holida uchraydi. Kaliy minerallari silvinit  $NaCl$  KC1, dala shpati  $K_2O \cdot Al_2O_3 \cdot 6SiO_2$ , silvin KC1, karnallit  $KCl \cdot MgCl_2 \cdot 6H_2O$  va o'simlik kuli tarkibida  $K_2CO_3$  holida uchraydi.


Rubidiy elementi tabiatda keng tarqalgan bo'lishiga qaramay, muSraqil minerallarni hosil qilmaydi. Tabiatda u kaliyning yo'ldoshi hisoblanib, turli tog' jinslari ayniqsa, alyumosilikatlar tarkibida uchraydi. Seziy elementi rubidiya qaraganda ancha siyrak element hisoblanadi. Tarkibida eng ko'p seziy bo'lgan mineral-polusit  $4Cs_2O_4Al_2O_3 \cdot 18SiO_2H_2O$  dir.

Fransiy elementi minerallari tabiatda uchramaydi, uning izotoplari sun'iy ravishda hosil qilinadi.

**Olinishi.** Tarkibida bu elementlar bo'lgan minerallar birinchi navbatda boyitiladi. Boyitilgan rudalar tarkibidagi elementlarni eritmaga yoki qayta ishlash uchun qulay holga aylantirilib quyidagi usullar bilan olinadi:



Hosil qilingan  $Li_2SO_4$  ni karbonatlar holida cho'ktiriladi:




Hosil qilingan karbonatlar  $HC_1$  ishtirokida eritmaga o'tkaziladi.




Hosil qilingan  $LiCl$  ni 1:1 nisbatda  $KCl$  tuzi bilan aralashtirib suyuqlantiriladi va elektroliz qilinadi. Bunda anod sifatida grafitdan, katod sifatida temir elektroldardan foydalilanadi. Katodda Li metali qaytariladi:  $Li^+ + e = Li^0$



Anodda esa xlor ioni oksidlanadi:  $2Cl^- - 2e = Cl_2$



Hosil qilingan litiy minerali ishqor ta'sirida eritmaga o'tkaziladi:




Hosil qilingan  $LiOH$  eritmasi  $HC_1$  ta'sirida  $LiCl$  tuziga aylantiriladi, eritmani bug'latib, qolgan  $LiCl$  tuzini suyuqlantirib elektroliz qilinadi.




### Natriy metali asosan ikki xil usul bilan olinadi:

1 .Natriy gidroksidni suyuqlantirib elektroliz qilinadi. Bunda katod temirdan, anod esa nikeldan yasaladi. Katodda Na metali qaytariladi:




Anodda esa OH' ionlari oksidlanib, kislород ajralib chiqadi:



Bu usul toza holda natriy olinishi va jarayonning past temperaturada olib borilishi kabi afzalliklarga ega. Lekin xom ashyo sifatidagi



$NaOH$  ning tannarxi birmuncha yuqoriligini eslatib o'tish lozim.

2.  $NaCl$  tuzini suyuqlantirib, elektroliz qilinadi. Bu usulda xomashyo sifatida toza holdagi  $NaCl$  ishlatsila,  $NaCl$  bilan Na metallining suyuqlanish temperaturalrini bir-biriga yaqin bo'lgani uchun natriy metalini sof holda ajratib olish anchagini noqulaydir. Bundan tashqari, natriyning to'yigan bug'bosimi taxminan havoning to'yigan bug' bosimiga yaqin qiymatga ega, bu esa natriyning ko'p yo'qotilishiha sabab bo'ladi. Shuning uchun  $NaCl$  tuziga  $NaF$ ,  $KCl$  yoki  $CaCl_2$  tuzlari aralashtirilib, uning suyuqlanish temperaturasini kamaytirib, elektroliz qilinadi. Katodda Na va K metallari qaytariladi. Bu aralashmani haydab Na ajratib olinadi. Anodda esa Cl ioni oksidlanadi:




Yuqorida ko'rib o'tilgan usullami kaliy metalini olish uchun qo'llash mumkin emas. Chunki kaliyning reaksiyaga kirishish xususiyati kuchli, ya'ni ajralib chiqayotgan kislород bilan tezda oksidlanib ketadi. Shuning uchun **kaliyni olishda quyidagi usullardan foydalilanadi:**

1 .Suyuqlantirilgan KOH yoki  $KCl$  eritmasidan kaliyni natriy bilan siqb chiqariladi:





2.  $KCl$  va  $NaCl$  tuzlari aralashmasini suyuqlantirib elektroliz qilinadi. Katodda qaytarilgan Na va K aralashmalarini haydab kaliy ajratib olinadi.

3.  $KCl$  tuzini vakuumda alyuminiy yoki kremniy bilan qaytarib olinadi.





Rubidiy va seziyini olishning eng qulay usullari quyidagilardan iborat:

1. Xlorli birikmalarini qizdirib, vakuumda Ca bilan qaytariladi:




2. Karbonatlari yoki xloridlari yuqori temperaturada Mg yoki  $\text{CaCl}_2$  ishtirokida qaytariladi:




Li, Na, K metallari sanoatda germetik berkitilgan temir idishlarda, laboratoriya esa kerosinda saqlanadi. Rb va Cs metallari payvandlangan shisha ampulalarda saqlanadi.

Xossalari. Li, Na, K, Rb elementlari oq kumush rangli yaltiroq, Cs sarg'ish tilla rangli, oson suyuqlanadigan metallardir. Havoda o'z - o'zidan oksidlanadi. Oksidlanish nam havoda shiddatli ro'y beradi. Bu elementlar issiqlikni va elektr tokini yaxshi o'tkazadi. Kaliy va rubidiy kuchsiz radioaktiv xossasini namoyon qiladi. Fransiyning ko'p yashaydigan izotoplari yo'q. Tabiatda uchraydigan -izotopining yemirilish davri 21 minutni tashqil etadi. Hamma ishqoriy metallar kuchli qaytaruvchilardir. Ulaming Strandart elektrod potensiallari manfiy bo'lib, katta qiymatga ega. Ishqoriy metallar hosil qilgan molekulalarda qo'pincha ion bog'lanish mavjud. Bu bog'lanish litiydan seziyga tomon guruh bo'yicha kamayib boradi. Suyuqlantirilganda elementlar ionlashgan holatdabo'lib, elektr tokini yaxshi o'tkazadi. Ishqoriy metallar ionlari kompleks birikmalar hosil qilmaydi, Chunki ulaming zaryadlari kichik, radiuslari esa kattadir. Bundan tashqari ularning tashqi elektron qavatlarida d-elektronlar mayjud emas.


Birikmalar. Ishqoriy metallar vodorod bilan qizdirilganda birikib gidridlar hosil qiladi:



Bu gidridlar ionli panjaraga ega bo'lган qattiq kristall moddalardir. Gidridlarda vodorod ioni N-anion rolini bajaradi. Buni suyuqlantirilgan yoki ammiakli eritmalarini elektroliz qilish natijasida vodorod molekulasi anoddha hosil bo'lishi bilan isbotlash mumkin. Gidridlarning termik barqarorligi  $\text{LiH}$  dan  $\text{CsH}$  ga qarab guruh bo'yicha kamayib boradi. Ishqoriy metallarning gidridlari kuchli qaytaruvchilardir. Suv bilan shiddatli reaksiyaga kirishib vodorodni siqb chiqaradi:




Qizdirilganda gidridlar  $\text{CO}_2$  bilan birikib, organik birikmalar hosil qiladi:



Ishqoriy metallar gidridlarining reaksiyaga kirishish xususiyati  $\text{LiH}$  dan  $\text{CsHg}$  o'tgan sari oriih boradi. Hamma ishqoriy metallar kislород bilan oson reaksiyaga kirishadi. Ortiqcha miqdorda kislород ishtirokida litiy  $\text{Li}_2\text{O}$  va qisman  $\text{Li}_2\text{O}_2$  hosil qiladi, natriy esa  $\text{Na}_2\text{O}$  va  $\text{Na}_2\text{O}_2$ ,  $\text{KAl}_2\text{Cs}$  lar esa  $\text{Me}_2\text{O}$  va  $\text{Me}_2\text{O}_2$  tarkibli oksid va qo'sh peroksidlar hosil qiladi.


Litiy va natriy oksidlari rangsiz, kaliv va rubidiy oksidlari sariq, seziv oksidi esa qizg'ish tusli moddalardir. Bu metallarning peroksidlari diamagnit  $\text{O}_2^{2-}$  ioniga, qo'sh peroksidlari esa paramagnit  $\text{O}_2$  ioniga ega bo'lib, neytral molekulasidan bog'lanish energiyasi bilan qisman farq qiladi. Peroksidlar va qo'sh peroksidlar kuchli oksidlovchilardir. Ishqoriy metallarning peroksidlari vodorod peroksidning tuzlari bo'lib, suvdareshi natijasidagi liq gidrolizlanadi:




Hosil bo'lган  $\text{H}_2\text{O}_2$  ishqoriy muhitda tezda suvgaga va kislородга parchalanib ketadi. Ishqoriy metallarning qo'sh peroksidlariga suv ta'sir ettirilsa, kislород ajralib chiqadi:



Ishqoriy metallarning oksidlari suv bilan yaxshi reaksiyaga kirishib, hidroksidlari hosil qiladi:





Ishqoriy metallarning hidroksidlari rangsiz, suvda yaxshi eriydigan. oson suyuqlanuvchi kristall moddalardir. Sanoatda eng ko'p ishlatiladigan ishqorlar asosan o'yuvchi natriy( $\text{NaOH}$ ), o'yuvchi kaliv( $\text{KOH}$ )dir. Bu ishqorlar kuchli kristallgidratlar bo'lGANI uchun havodagi namni o'ziga oson birkirib oladi. Suyuqlantirilgan ishqorlar chinni va shishalarni eritaoladi:




O'yuvchi natriy texnikada asosan  $\text{NaCl}$  eritmasini elektroliz qilish usuli bilan olinadi. Bunda katod sifatida temirdan, anod sifatida grafitdan yasalgan elektrodlar ishlataladi.

Katodda suv qaytariladi:




Katodda qaytarilmagan  $\text{Na}^+$  ionlari bilan  $\text{OH}^-$  birikib  $\text{NaOH}$  ni hosil qiladi. Bu  $\text{NaOH}$  uncha toza bo'lmaydi, Chunki uning tarkibida elektrolizga uchramagan  $\text{NaCl}$  bo'ladi. Toza holdagi  $\text{NaOH}$  olish uchun, katod sifatida simobdan foydalilanadi.

U holda katodda vodorod ajralib chiqmay, natriy ioni qaytariladi:




Ajralib chiqqan Na metalini simob o'zida eritib amalgama hosil qiladi. Amalgamani suvli idishlarga solinganda, tarkibidagi Na erib,  $\text{NaOH}$  hosil qiladi. Ba'zi hollarda  $\text{NaOH}$  ni, soda eritmasini ohakli suv bilan ishlov berish usuli orqali olish mumkin:




Hamma ishqoriy metallar kislotalar bilan reaksiyaga kirishib, tuz hosil qiladi va vodorodni siqb chiqara oladi:




Ishqoriy metallar ozgina qizdirilganda galogenlar bilan birikib galogenidlar hosil qiladi:




Metallarga oltingugurit ta'sir ettirib yoki ishqorlami vodorod sulfid bilan neytrallab ishqoriy metallarning sulfidlari hosil qilinadi:  $2\text{Me} + \text{S} = \text{Me}_2\text{S}$



Ishqoriy metallardan faqatgina Li oddiy sharoitda azot bilan birikib nitrid hosil qiladi:





Litiyning bu nitridi suv bilan shiddatli reaksiyaga kirishadi:



Boshqa ishqoriy metallarning nitridlari yuqori temperaturada va elektr uchqunlari ta'sirida hosil qilinib, ular oddiy sharoitda beqaror bo'lган gazlardir. Ishqoriy metallar ko'p asosli kislotalar qoldiqlari bilan o'rta  $\text{Me}_2\text{CO}_3$ ;  $\text{Me}_2\text{SO}_3$ ;  $\text{Me}_2\text{PO}_4$  va nordon  $\text{MeHC}_0_3$ ,  $\text{MeHSO}_3$ ,  $\text{MeHSO}_4$ ,  $\text{MeHP}_0_4$ ,  $\text{Me}_2\text{HP}_0_4$ ,  $\text{MeHS}$  tuzlar hosil qiladi. Bu elementlarning nordon tuzlar hosil qilishi va ularning termik barqarorligi guruh bo'yicha Li dan Cs ga qarab ortib boradi. Ishqoriy metallarning tuzlari asosan suvda yaxshi eriydigan moddalardir.

Xalq xo'jaligining ko'pgina sohalarida keng qo'llaniluvchi soda hozirgi paytda quyidagi uch usul bilan olinadi:


1. Leblan usuli. Bu usulda osh tuziga konsentrangan sulfat kislota ta'sir ettirib, natriy sulfat hosil qilinadi. Hosil qilingan natriy sulfat ohaktosh va ko'mir bilan aralashtirib pechda qizdiriladi, ya'ni  $2\text{NaCl} + \text{H}_2\text{SO}_4\text{kom} = \text{Na}_2\text{SO}_4 + 2\text{HCl}$





2. Solvey usuli. Bu usulda osh tuzi ammiak va karbonat angidrid bilan to'yintirib  $\text{NaHC}_0_3$  cho'kmaga tushiriladi.



Cho'kmanni qizdirib soda ajratib olinadi.



3. Elektrolitik usul. Osh tuzi eritmasini elektroliz qiliz natijasida hosil bo'lган o'yuvchi natriyni karbonat angidrid ta'sirida cho'ktirib, so'ngra uni qizdirib soda olinadi.



Hosil bo'lган  $\text{CO}_2$  yana qayta ishlataladi.

tshlatilishi. Ishqoriy metallar va ularning birikmalarini organik moddalarni sintez qilishda, alyuminiy ishlab chiqarish, shisha va keramik moddalar olish, sun'iy tola ishlab chiqarish va mineral o'g'itlar olishda ishlataladi. Vatanimizda qurilayotgan soda zavodi (Qoraqalpog'iston) undan keng soxalarda foydalananishga imkon beradi.

## ISHNING BAJARILISHI

**1- tajriba. Natriyning havoda yonishi.** Natriyning bir bo'lagini pintset bilan olib filtr qog'ozgn qo'ying. Yaxshilab artilgach, pichoq bilan moshdek bo'lakchasi kesib olib, tigelga soling; tigelni maxsus tayyorlangan shtativdag'i chinni uchburchaklikka qo'yib, sekin qizdiring (*Qizdirish mo'rili shkafda olib borilishi short!*). Natriy suyulib aalangalangandan so'ng qizdirishni to'xtatib, sarg'isli rangli natriy peroksid hosil bo'lismeni kuzating. Natriy metalining yonishi natijasida peroksidga aylanish reaksiyasi tenglamasini yozing.

**2- tajriba. Natriy metalini suvga ta'siri** (*Qizdirish mo'rili shkafda olib boriladi*). Yuqoridagi tartibda natriy metalining moshdek kattalikdag'i bo'lagini kesib olib, tayyorlab qo'yilgan chinni kosadagi suvga soling va tezda mo'rili shkafning oynasini bekitib, natriy metalining suv bilan reaksiyaga kirishish jarayonini kuzating. Natriy litiya nisbatan, kaliy esa ularga nisbatan suv bilan shiddatli reaksiyaga kirishadi. Reaksiya tugagandan keyin reaksiya tenglamasini yozing.

**2-tajriba. Natriy peroksidning suv bilan o'zaro ta'siri.** Probirkaning yarmigacha suv solib ustiga ozgina natriy perosid soling. Gaz chiqishini kuzating. Reaksiya natijasida kislrorod ajralih chiqayotganimi isbotlang. Buning uchun probirkaga og'ziga uchi cho'g'lantirilgan cho'pni tutsangiz. alangananib yonishini ko'rasiz. Reksiya tamom bo'lgandan so'ng eritmani lakkus qog'ozni bilan sinah ko'ring. Muhit qandayligini aniqlang va reaksiya tenglamasini yozib, izohlang.

LABORA TORIYA ISHI №e 11

### Ishqoriy-yer metallarining kimyoviy xossalari

#### Nazariy ma'lumotlar

**Umumiy tavsif.** Ikkinci guruh asosiy guruhchasi elementlariga Be, Mg, Ca, Sr, Ba, Ra lar kiradi. Bu elementlaming tashqi elektron qavatlariда  $s^2$  elektronlari mavjud. Shuning uchun kimyoviy reaksiya paytida s elektronlarini berib, +2 ga teng oksidlanish darajasini namoyon qiladilar.





Ularning qaytaruvchilik xossalari ishqoriy metal lam ikiga qaraganda kuchsizroq ifodalangan. Ikkinci guruh asosiy guruhchasi elementlarining ion radiuslari ishqoriy metallarning ion radiuslaridan kichik. Shuning uchun bu elementlaming gidroksidlari ishqoriy metallarning gidroksidlariqa qaraganda kuchsizroq asos xossasini namoyon qiladi. Bu elementlaming gidroksidlari asos xossalari guruh bo'yicha Be dan Ra ga tomon ortib boradi, Chunki elementlaming ion radiuslari ortib boradi.  $Be(OH)_2$  amfoter,  $Mg(OH)_2$  kuchsiz asos, lar kuchli asos xossasiga ega. Be bilan Mg bir guruhda yonma-yon joylashganiga qaramay, xossalari bir-biridan keskin farq qiladi: berilliy oksidi va gidroksidi amfoter xossaga, Mg elementining oksidi va gidroksidi esa asos xossasiga ega. Bunga sabab shuki, Be ning ion radiusi Mg ning ion radiusiga qaraganda ikki marta kichiklidir.

**Berilliylar.** Berilliy ikkinchi guruh asosiy guruhchasi joylashgan bo'lib,  $1s^2 2s^2$  elektron konfigurasiyasiga ega. Uning oksidlanish darajasi +2 ga teng. Berilliyni birinchi bo'lib 1827 yilda Velyor berilliy xloridni kalyb bilan qaytarib olishga muvaffaq bo'lgan.

**Tabiatda uchrashi.** Berilliy tabiatda asosan berill  $Al_2O_3BeO 6SiO_2$  fenikit  $2BeO SiO_2$


xrizoberill  $JI1_2O_3BeO$  mineralari holida uchraydi.

**Olinishi.** 1.Tarkibida berilliy bo'lgan rudalar boyitiladi. Hosil qilingan konsentrat ohaktosh bilan aralashtirib kuydiriladi, so'ngra bu qorishma konentrangan  $H_2SO_4$  bilan ishlanadi;







Hosil qilingan berilliy xlorid tuzini natriy xlorid bilan aralashtirib (suyuqlanish temperaturasini pasaytirish maqsadida) suyuqlantiriladi va elektroliz qilinadi. Katodda berilliy metall holida qaytariladi.

2. Berilliyning ftorli birikmacini induksion elektr pechlarda magniy bilan qaytarib metall holida olish mumkin:




Hosil bo'lgan Be metalini 1300°C da suyuqlantirib  $MgF_2$  shlakidan ajratiladi.

**Xossalari.** Berilliy geksagonal kristall tuzilishga ega bo'lgan, kulrang kumushsimon yaltiroq metall. U suvda va havoda  $BeO$  holida yupqa parda bilan qoplanadi. Oddiy sharoitda xlorid, konentrangan sulfat kislotalar va ishqorlar bilan reaksiyaga kirishib, tuzlar hosil qiladi.





Berilliy konsentrangan kislota ta'sirida passivlanadi, suyultirilgan  $HN_3$  da yaxshi eriydi.







Berilliy qizdirilganda  $N_2$ , P, S va galogenlar bilan  $Be_3N_2$ ,  $Be_3P_2$ ,  $Be_2C$ ,  $BeG_2$  tarkibli birikmalar hosil qiladi.

**Berilliy birikmalar.** Berilliy oksid  $BeO$  - amfoter xossasiga ega bo'lgan, yuqori temperaturada suyuqlanuvchi, suvda erimaydigan oq rangli kukun. Yuqori temperaturada suyuqlantirilganda kislotali va asosli oksidlar bilan reaksiyaga kirishib tuzhosil qiladi:




Berilliy oksidi qaynoq kislotalar va ishqorlar bilan reaksiyaga kirishadi:



Berilliy oksidi o'tga va issiqlikka chidamli shisha va chinni materiallami olishda, atom texnikasida, organik moddalami sintez qilishda ishlataladi. Berilliy gidroksid  $Be(OH)_2$  amfoter xossaga ega bo'lgan, suvda erimaydigan oq rangli cho'kma. Kislota va asos xossasiga ega ekanligini quyidagi sxema bilan tushuntirish mumkin:



Shuning uchun  $Be(OH)_2$  kislotalar va ishqorlar bilan reaksiyaga kirishadi:




**Ishlatilishi.** Berilliy va uning birikmalarini issiqlikka va o'tga chidamli, shisha, keramik buyumlar olishda, cement sanoatida, medisindanida, qishloq xo'jalik zararkunandalariga qarshi kurashishda, to'qimilchilik va konditer sanoatida organik moddalarni sintez qilishda ishlataladi.


**Magniv.** Magniyning elektron konfigurasiysi  $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2$  dir. Toza holatda magniyni birinchi bo'lib 1829 yili A.Byussi ajratib olgan. Tartib nomeri 12, atom massasi 24, Z12. Magniyning uchta barqaror izotopi ma'lum: Mg, Mg. Magniv asosan silikatlar  $Mg_2SiO_3$ - olivin minerali holida, karbonatlar - dolomit  $CaMg(CO_3)_2$  va magnezit  $MgCO_3$  minerallari holida. Xloridlar-kamallit  $KClMgCl_2 6H_2O$  minerali holida uchraydi. Bundan tashqari dengiz suvlari tarkibida  $MgCl_2$  holida uchraydi.

**Olinishi.** 1. Tuzlari  $KC1 MgCl_2 6H_2O$  yoki  $MgCl_2$  ni suyuqlantirib elektroliz qilish usuli bilan olinadi. Bunda katodda Mg erkin holda, anodda esa  $Cl_2$  ajralib chiqadi.

**2. Metallotermik usul.** Bu usulda vakuum elektr pechlarda 1200-1300 °C da qizdirilgan dolomitni kreminiy bilan qaytarib olinadi:




3. Uglerodotermik usul. Bu usulda magniy birikmalari yuqori temperaturada qizdirilib oksidlarga aylantiriladi vacho'g'latilgan ko'mir bilan qaytariladi.




Kossalari. Magniy oq kumush rang, yaltiroq, asos xossasiga ega bo'Igan metall, zichligi 1,74 g/sm<sup>2</sup>, suyuqlanish temperaturasi 650°C, qaynash temperaturasi 1103°C. Magniy havoda oksidlanib, xiralashadi, o'z birikmalarida hamma vaqt ikki valentli bo'ladi, koordinasion soni 6 ga teng.

Magniy sovuq suv bilan juda sust, qaynoq suv bilan tezda reaksiyaga kirishadi:




Magniy HF va H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub> kislotalarda kam eriydi, HC<sub>1</sub>, H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>, HNO<sub>3</sub> kislotalarda yaxshi eriydi.



Magniy ishqorlarda erimaydi. Magniy qizdirilganda ko'pgina metallar ta'sirida Mg<sub>3</sub>Al<sub>2</sub>, Mg<sub>3</sub>Cl<sub>2</sub>, Mg<sub>2</sub>Pt tarkibli intermetall birikmalar hosil qiladi. Bundan tashqari magniy qizdirilganda ko'pgina metallmaslar bilan birikib, MgSi, Mg<sub>3</sub>P<sub>2</sub>, MgS, MgCl<sub>2</sub> tarkibli birikmalar hosil qiladi. Magniy vodorod bilan oddiy sharoitda birikmaydi. Faqat 200 atmosfera bosimida va 570°C da katalizatorlar ishtirokida birikadi. Magniyning vodorodli birikmasi asosan bilvosita usul bilan olinadi. Masalan: Mg(CH<sub>3</sub>)<sub>2</sub> MgH<sub>2</sub> + C<sub>2</sub>H<sub>4</sub>


Magniy gidrid MgH<sub>2</sub> kunkun holdagi kumush rang, qattiq modda, suv ta'sirida oson parchalanadi. Alyuminim va berilliyligida gideridlariga qaraganda termik barqaror. Bundan tashqari magniyning gidridi - eriydi, Mg[BH<sub>4</sub>]<sub>2</sub> va gidrid-alyuminat Mg[Al<sub>4</sub>]<sub>2</sub> birikmalar ham ma'lum.

Magniv oksid. MgO - yuqori temperaturada suyuqlanadigan, asos xossasiga ega bo'Igan oq tusli kristall modda. Texnikada asosan magniy karbonatni termik parchalanish natijasida olinadi:




Magniy oksid qaynoq suvda juda oz eriydi, kislotalar bilan reaksiyaga kirishib tuz hosil qiladi:

Magniv gidroksid. Mg(OH)<sub>2</sub> - suvda kam eriydigan, asos xossasiga ega bo'Igan kristall modda. Magniy hidroksid ammoniy tuzlaridan ammiakni siqib chiqara oladi.



Magniy xlorid MgCl<sub>2</sub> oktaedrik tuzilishiga ega bo'Igan, ion bog'lanishli oq tusli kristall modda. Magniy oksidni ko'mir ishtirokida xlorlash usuli bilan olinadi:



Ishlatilishi. Magniy va uning birikmalar intermetall birikmalar hosil qilishda, raketa texnikasida, keramik, shisha va sement olishda, to'qimachilikda, achchiqtosh olishda ishlataladi.


Kalsivga guruuhchasi elementlari. Kalsiy guruuhchasi elementlariga kalsiy Ca, Stronsiy Sr, bariy Ba va radiy Ra kiradi. Bu elementlarning tashqi elektron qavatlari s<sup>2</sup> elektronlar mavjud. Guruuh bo'yicha elementlarning atom va ion radiuslari ortib boradi. Shuning uchun bu elementlarning aktivligi ham ortib boradi.

Tabiatda uchrashi. Yer qobig'ida kalsiyning oltita, Stronsiyning to'rtta, bariyning ettita barqaror izotopi bor. Bulardan eng ko'p tarqalganlari Ca, Sr va Ba lardir. Radiy radioaktiv element bo'lgani uchun uning barqaror izotoplari yo'q. Lekin sun'iy ravishda hosil qilingan sakkizta radioaktiv izotoplari ma'lum.

Kalsiy yer qobig'ida eng ko'p tarqalgan elementlardan hisoblanadi. Tabiatda asosan silikatlar CaSiO<sub>3</sub> va alyumosilikatlar CaO A<sub>1</sub>O<sub>3</sub> 2SiO<sub>2</sub> holida uchraydi. Bulardan tashqari kalsiy karbonat CaCO<sub>3</sub>, angidrit CaSO<sub>4</sub>, gips CaSO<sub>4</sub> 2H<sub>2</sub>O fluorit CaF<sub>2</sub>, apatit Ca<sub>5</sub>(PO<sub>4</sub>)<sub>3</sub>(F, Cl, OH), fosforit Ca<sub>3</sub>(PO<sub>4</sub>)<sub>2</sub> lar holida uchraydi. Bariy va Stronsiylar asosan Sronsit SrCO<sub>3</sub>, viterit BaCO<sub>3</sub>, seliSrIn SrSO<sub>4</sub>, baril BaSO<sub>4</sub> minerallari holida uchraydi. Radiy esa uran rudasi tarkibida qisman uchraydi.

Olinishi. Kalsiy, Stronsiy, bariy metallarini, birinchini marta Xevi tomonidan elektroliz qilib olingan. Elektroliz qilishda ulaming tuzlarini yuqori temperaturada suyuqlantiriladi. Katodda metallar ajralib chiqadi. Bu elementlar tuzlarini suyuqlantirishda ulami suyuqlanish temperaturalarini kamaytirish uchun ba'zi tuzlardan foydalilanadi.

Bundan tashqari kalsiy, Stronsiy, bariy metallarini vakuumda alyumotermiya usuli bilan ham olisli mumkin:



Flozirgi paytda bu element karbidlarini yuqori temperaturada parchalab olish usuli ham ma'lum. Bunda elementlar bug' holida uchib chiqadi, uglerod esa qattiq grafit holida qoladi. Metall holidagi radiyi 1910 yilda Mariya Kyuri va Andre Debernu tomonidan RaCl<sub>2</sub> tuzi eritmasini elektroliz qilish usuli bilan olingan. Bunda simobdan yasalgan katod va platina bilan iridiy aralashmasidan tayyorlangan qotishmadan yasalgan anoddan foydalilanilgan. Katoddagi simobni 700°C da vodorod oqimi bilan haydab, radiy toza holda ajratib olingan.


Fizik xossalari. Ikkinci guruuning asosiy guruuhchasi elementlari berilliyni istisno qilganda metallik xossalarga ega. Erkin holda kumush rang - oq yumshoq moddalar bo'lib, ishqoriy metallarga qaraganda qattiqroq, erish va qaynash temperaturasi ancha yuqoridir. Radiydan boshqa elementlar zichligi bo'yicha engil metallarga kiradi. Berilliyl o'z xossalari bilan alyuminiyga, magniy esa xossalari bilan toq guruuhcha elementlari, ayniqsa ruxga yaqin turadi.

Kalsiy 850°C da eriydi, havoda oksid pardasi bilan qoplanadi, qizitilganda qizg'ish alanga berib yonadi. Bariy 710°C da eriydi, 1638°C da qaynaydi, zichligi 3,76 g/sm<sup>2</sup>. Stronsiuning erish temperaturasi 770°C, qaynash temperaturasi 1380°C, zichligi 2,63 g/sm<sup>3</sup>.


Kimovoviy xossalari. Bu metallar aktiv metallmaslar bilan odatdag'i sharoitda birikadi. Azot, vodorod, uglerod, kremniy kabi metallmaslar bilan bir oz qizdirilganda reaksiyaga kirishadi. Bu reaksiyalar issiqlik ajralib chiqish bilan boradi. Bu metallar qizdirilganda ko'pgina metallar bilan birikib intermetall birikmalar hosil qiladi. Metallarning reaksiyaga kirishish xususiyati Ca-Sz-Ba-Ra qatorida ortib boradi. Bu elementlar sovuq suv bilan ham reaksiyaga kirishadi. Reaksiyaga kirishish xususiyati Ca dan Ra ga o'tgan sari ortib boradi. Bu elementlar kislotalar bilan shiddatli reaksiyaga kirishadi ishqorlar esa ta'sir etmaydi.

Birikmalari. Kalsiy guruuhchasi elementlari kimoviy bog'lanish hosil bo'lishida - orbitallar katta rol o'ynaydi. Shuning uchun bu elementlarning koordinatsion sonlari 6,8 ga teng bo'ladi.

Bu elementlami MeH<sub>2</sub> tarkibli gidridlari ma'lum. Bu gidridlar tashqi ko'rinishi va xossalari bilan ishqoriy metallarning gidridlariga o'xshash. Lekin ularni parchalanish temperaturalarini birmuncha yuqori. Bu gidridlar suv ta'sirida oson parchalanadi.




Oksidlari va gidroksidlari. Bu elementlar MeO tarkibli oksidlar hosil qiladi. Elementlarning oksidlari ulaming karbonatlarini termik parchalash usuli bilan hosil qilinadi.





Elementlarning oksidlari yuqori temperaturada suyuqlanadigan moddalardir. Suyuqlanish temperaturalari CaO dan BaO ga tomon kamayib boradi. Bu oksidlari qizdirilganda suvda erib, Me(OH)<sub>2</sub> tarkibli asos xossasiga ega bo'Igan hidroksidlar hosil qiladi. Bu hidroksidlarning suvda erishi Ca(OH)<sub>2</sub> dan Ba(OH)<sub>2</sub> ga qarab ortib boradi.

Kalsiy guruuhchasi elementlari ham ishqoriy metallar kabi kislord bilan oq rangli MeO<sub>2</sub> tarkibli peroksidlar, sariq rangli MeO<sub>4</sub> tarkibli qo'sh peroksidlar hosil qiladi. Bu birikmalar element hidroksidlari uchun vodorod peroksid ta'sir ettirish bilan hosil qilinadi:



Ularning peroksidlari suv ta'sirida oson gidrolizlanadi va kislotalar bilan reaksiyaga kirishadi:






Suvning qattiqligi. Tabiiy suvlarda kalsiy va magniy tuzlaming bo'lishi suvning qattiqligini vujudga keltiradi. Bu esa tabiiy suvni texnikada ishlatalishga ko'pgina to'sqinlik qiladi. Tabiiy suvdan asosan doimiy va muvaqqat qattiqliklar kuzatiladi. Tabiiy suv tarkibida kalsiy va magniy hidrokarbonat ionlar bo'lsa muvaqqat qattiqlik, sulfat va xlorid ionlari bo'lsa doimiy qattiqlikda vujudga keladi.



Tabiiy suvlaming qattiqligini ikki xil: fizik va kimyoviy usullar bilan yo'qotish mumkin. Tarkibidn gidrokarbonatlar bo'lgan qattiqlikni suvni qaynatish yo'li bilan yo'qotiladi. Bunda gidrokarbonatlar erimaydigan karbonatlarga aylanib, cho'kmagatushadi:



Suvning qattiqligini kimyoviy usul bilan yo'qotishda tarkibida  $\text{CO}_3^{2-}$  va  $\text{OH}^-$  ionlari bo'lgan eritmalar bilan ishlaniib, kalsiy va magniyni qiyin eriydigan tuzlari holida cho'ktiriladi. Ko'pgina hollarda so'ndirilgan ohak yoki soda ishlataladi:



Hozirgi davrda texnikada suvning qattiqligini yo'qotishda ion almashtirish usulidan foydalaniilmoxqda. Bu usul suv tarkibidagi ionlami sun'iy olingen ko'p molekulali ionitlar bilan almashtirishga asoslangan. O'rinn almashtirilayotgan ionlar tabiatiga qarb ionitlar kationit va anionitlarga bo'linadi. Alyumosilikatlar, masalan,  $\text{Na}_2[\text{Al}_2\text{Si}_2\text{O}_8]*\text{nH}_2\text{O}$  kationitlarga misol bo'la oladi. Qattiq suv bilan alyumosilikatlar orasidagi ionlar almashinishini quyidagi sxema orqali ko'rsatish mumkin:




Bu yerda R-murakkab alyumosilikat anioni, ya'ni  $([\text{Al}_2\text{Si}_2\text{O}_8] \cdot \text{nH}_2\text{O})^2$  dir.

Ishlatilishi. Bu elementlar va ulaming birikmalar keramika, shisha, sement sanoatida, qurilisli materiallari olishda, bo'yqchilikda, organik moddalarini sintez qilishda, katalizator tayyorlashda, metalluriya va intermetall birikmalar olishda ishlataladi. Kalsiy ko'pgina qiyin eriydigan metallarni qaytarishda muhim ahamiyatga ega. Bu yo'l bilan toriy, vanadiy, sirkoniy, berilliyl, niobiyl, uran va tantal kabi metallar qaytariladi. Kalsiydan mis, nikel, bronza va maxsus po'lat tayyorlashda ham foydalaniлади. Stronsiy metallarni tozalashda xizmat qiladi. Misga qo'shilganda uning qattiqligi ortadi. Radiy va uning birikmalar nur qaytaruvchi bo'yoqlar tayyorlashda, meditsinada, qishloq xo'jaligida va radon olishda ishlataladi.

## ISHNING BAJARILISHI

a). *Suvning umumiyy qattiqligini trilonometrik usul bilan aniqlashi.* Bu usulda maxsus reaktiv «Trilon-B» ishlataladi (trilon-B-etilendiamintetraatsetat kislotaning 2 ta vodorodiga natriy almashining tuzdir).



«Trilon-B»  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlari bilan kompleks birikmahosil qiladi. Reaksiya kuchsiz ishqoriy muhitda yaxshi boradi. Bunday muhitni vujudga keltirish uchun ammiakli bufer eritma qo'shiladi (bufer eritma tayorlash uchun 100 ml 20%  $\text{NH}_4\text{OH}$  eritmasiga 100 ml 20%  $\text{NH}_4\text{Cl}$  eritmasidan quyib, uni bir litrgacha suv qo'shib suyultirish kerak).

Umumiy qattiqlikni aniqlash qora erioxrom-T indikatori ishtirokida olib boriladi (uning boshqacha nomi maxsus qora xromagent ET-00). Buning uchun tekshirilayotgan 100 ml suvga 5 ml bufer eritma, 1 ml 1,5-2% li  $\text{Na}_2\text{S}$  eritmasi (to'sqinlik qiluvchi kotionlarni sulfid holida cho'ktirish uchun) va 7 tomchi indikatorlar eritmasi qo'shiladi. Hosis bo'lgan qizil rangdagi eritmani trilon-B ning 0,05 n yoki 0,01 n eritmasi bilan havo rangga o'tguncha titrlanadi.

Tajribani uch marta takrorlab, trilon-B ning titrlash uchun sarf bo'lgan o'rtacha hajmini toping.

Suvning umumiy qattiqligini quyidagi formula bilan hisoblang:

$$\frac{\text{N}_{TP}}{\text{N}_{\text{мумии кам}}} = \frac{\text{P} - 1}{100}$$

bunda:  $N_{TP}$  - trilon-B eritmasining normalligi,

P - 1 titrlash uchun sarf bo'lgan trilon-B ning o'rtacha hajmi,

C<sub>n</sub>-o - tekshirilayotgan suvning hajmi

Hisobot tuzish.

1. Ishni bajarish uchun topshiriq.
2. Tajribaning qisqachabayoni.
3. Tadqiqt ishlalarining natijalari hisobi.
4. Tadqiqt natijalaridan chiqqan xulosalar

b). *Suvning karbonatli qattiqligini aniqlashi.* 200 ml stakanga tekshirilayotgan suvdan pipetka yordamida 50 ml olib, ustiga indikator (metiloranj) 2-3 tomchi tomizing. Boshqa byuretkada xlorid kislotaning 0,2 % li eritmasini tayyorlang va u bilan stakandagi tekshirilayotgan suvning sariq rangi sariq pushti rangga kirduncha titrlang. Titrlash ishini bir necha marta takrorlang. Qayta titrlash natijasida qiyatlamining o'zaro farqi 0,05 ml dan ortmasligi kerak.

Olingen maTumotlarga asosan suvning mg-ekv/1 bilan ifodalangan qattiqligini hisoblab toping.

Tajriba natijalarini quyida keltirilgan jadval shaklida yozing.

| Ishning tartibi | Suv hajmi, ml | Titrlashga sarflangan kislotaga hajmi, ml | O'rtacha qiymat, ml |
|-----------------|---------------|---|---------------------|
| 1-titrlash      |               |   |                     |
| 2-titrlash      |               |   |                     |
| 3-titrlash      |               |   |                     |
| 4-titrlash      |               |   |                     |

Tajriba natijalarini quyidagi tenglama bilan ifodalash mumkin:

$$100\% * x = NV x = NV / 100$$

Bu yerda 100 - olingen suvning hajmi, ml hisobida; N - xlorid kislotani normalligi; V - titrlashda sarflangan kislotanining hajmi ml hisobida; x - reaksiyaga kirishgan tuz eritmasining aniqlanayotgan normalligi, ya'ni tekshirilayotgan suvning 1 litridagi tuzning g-ekv lar soni.

Suvning karbonatli qattiqligini mg-ekv da ifodalash uchun "x" ning qiyatini 1000 ga ko'paytirish kerak.

## LABORA TORIY A ISHI № 12,13

VIAVZU: Davriy sistemaning V asosiy guruhchasi dementiari.

Azot va fosfor

Nazariy ma'lumotlar


Umumiy tavsiif. D.I.Mendeleev davriy sistemasing besinchchi asosiy guruhchasi elementlarining xossalari keskin o'zgarishi bilan xarakterlanadi. Masalan, azot barqaror gaz bo'lsa, fosfor qattiq holdagi metalmaslardan hisoblanadi. Vismut esa metaldir. Asosiy guruhchasi elementlarida azotdan vismutga o'tgan sari nisbiy elektrmaniylik birmuncha kamayib boradi. Elementlar sirtqi qavatidagi besh elektronini ( $s^2 p^3$ ) berganda oksidlanish darajasi +5, elementlar bilan kovalent bog'langanda uch valentli va uch elektron biriktirib olganda esa oksidlanish darajasi -3 ga teng bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, bu elementlarning o'z birikmaiaridagi oksidlanish darajasi +5 dan -3 ga qadar o'zgaradi. Azotdan fosforga o'tilganda ulaming +5 ga teng oksidlanish darajaga ega bo'lgan birikmalaming

mustahkamligi ortishi va aksincha, fosfordan vismutga o'tgan sari +5 ga teng oksidlanish darajasiga esa bo'lgan birikmalarning mustahkamligi kamayishi tajribalarda isbotlangan. Buni ularning oksidlari  $N_2O_5$ ,  $P_2O_5$ ,  $As_2O_5$ ,  $Sb_2O_5$ ,  $Bi_2O_5$  qatorida, kislotali xossalarning susayib, asosli xossalarning kuchayib borishi ham tasdiqlaydi.

**AZOT VA UNING UMUMIY XOSALARARI.** Azot, N - atom massasi 14,0067, elektron konfigurasiysi K -  $2s^2 2p^3$ . Tabiatda ikki barqaror izotop  $^{14}N$  va  $^{15}N$  lar sifatida tarqalgan. Bu element 1772 yili D.Rezerford tomonidan ochilgan bo'lib, ikki yildan keyin A.Lavuaze unga "azot" nomini bergan.





Azotning asosiy qismi atmosferada (massasi bo'vicha 75,6%) erkin holatda bo'lib, birikmalar, minerallar tarkibida va tirik organizmlarda uchraydi. Uning molekulasi ikki atomdan tuzilgan,  $N_2$  -  $196^{\circ}C$  da suyuqlanadi va  $-210^{\circ}C$  da qotadi. O'zi rangsiz va hidsiz gaz, suyuq havodan fraksialab haydash (rektifikasiya) yo'li bilan ajratib olinadi. Odatdagisi sharoitda kimyoviy inert hisoblanadi (faqt litiy bilan birikadi). Yuqori temperaturada ( $400\text{-}500^{\circ}C$ ) ishqoriy va ishqoriy-yer metallar bilan nitridlar hosil qiladi, platina ishtirokida kislород bilan,  $27\text{-}34$  MPa bosimda vodorod bilan reaksiyaga kirishadi. Elektr zaryadi ta'sirida bor, titan magniy yoki kalsiy nitridlari parchalanganidan hosil bo'lувчи aktiv azot kislород hamda vodorod bilan, oltingurgut, fosfor bug'i va ba'zi metallar bilan shiddatli reaksiyaga kirishadi.

Atmosferada bo'ladigan kuchli elektr razryadlari ta'sirida (chaqmoq chaqqanda) azot bilan kislород birikadi:




Bu reaksiya chaqmoq chaqqanda ajralgan issiqlik va havoning ionlanishi ta'sirida  $N_2$  molekulalari uzilishi tufayli boradi. Molekulyar holdagi azot ( $N_2$ ) dan tarkibida azot bor birikma hosil bo'lishini o'V ichiga oluvchi ushbu oddiy reaksiya azotni bog'lashga (fiksatsiyalashga) misol bo'la oladi. Sanoatda azotni bog'lashning dastlabki misoli Gaber usuli (ammiak olish) hisoblanadi. Bog'langan azot tuproq unumdorligini saqlash bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham ahamiyatlidir.

Laboratoriya da azotni quyidagi reaksiyalar yordamida olish mumkin:





Elektrmanfiyligi jihatdan azot ftor bilan kislороддан keyinda turadi, shu sababli azot atomi kislород va ftor atomlari orasidagi bog'larda musbat qutblangan bo'ladi. Xlor, brom va ba'zi boshqa elementlar bilan hosil qilgan birikmalar qutblanmagan kovalent bog'ga yaqin bo'ladi. Boshqa elementlar bilan birikkan azot manfib qutblanadi. Azotning ko'pgina birikmalar sanoat miqyosida ishlab chiqariladi va xalq xo'jaligining turli sohalarida qo'llanadi.

Birikmali. Azot vodorod bilan qator birikmalar hosil qiladi. Bulardan muhimmi ammiak  $NH_3$  hisoblanadi:




Laboratoriya da ammiak odatda ammoniy xloridga ishqor ta'sir ettirib olinadi:



Ammiak sanoatda po'lat kolonkalarda  $450^{\circ}C$  va  $30$  MPa bosimda sintez qilinadi. Reaksiyada g'ovak temir katalizator bo'lib xizmat qiladi. Reaksiya uchun zarur bo'lgan azot-vodorod aralashmasi tabiiy gazni konversiya qilib olinadi. "Chirchiqelektrokimyo sanoat" birlashmasida ammiak shu yo'l bilan olinadi.


Normal sharoitda gaz holatdagi 11 ammiak massasi  $0,77$  grammga teng. Ammiak -  $33,4^{\circ}S$  da suyuqlanadi,  $-77,8^{\circ}C$  da qotadi. Suvda yaxshi eridi: bir hajm suv 700 hajm ammiakni eritadi. Konentrangan eritmasida massasi bo'yicha  $25\%$  ammiak bo'ladi. Bu eritma nashatir (novshadil) spirit deb ham ataladi.

Suyuq ammiakda uning molekulalari vodorod bog'lari hisobiga assosilanadi. Suyuq ammiak yaxshi eritma bo'lib, unda qator aktiv metallar (ishqoriy, ishqoriy-er metallari, Al, Au va boshqalar) eridi. Metallaming ammiakdagi suytirilgan eritmalari zangori rangga, konsentrangan eritmalari metall yaltiroqlikka va rangiga ko'ra bronzani eslatadi. Ammiakda erigan metall asta-sekin amid birikmaga o'tadi:




Ammiakda azotning oksidlanish darajasi  $-3$  ga teng bo'lganligi uchun ammiak qator reaksiyalarda qaytaruvchi bo'ladi.


U kislородда och-ko'kish rang hosil qilib yonadi:



Ammiak havoda yonmaydi, platina katalizatori ishtirokida esa azot (V)-oksidgacha oksidlanadi:




Ammiak xlor bilan reaksiyaga kirishadi:




Ammiak asosida amidlar ( $NH_2$ ), imidlar ( $NH^2$ ) va nitridlar  $N^3$  olinadi. Bular odatda qattiq moddalar bo'lib, suv bilan reaksiyaga kirishganda yana ammiak va metallaming gidroksidlari hosil bo'ladi. Ba'zi nitridlarda ( $BN$ ,  $Si_3N_4$  va boshqalar) kimyoviy bog'lanish kovalent bog'lanishga yaqinlashadi va -elementlar nitridlari karbidlarga o'xshaydi. Bunday nitridlar qiyin eriydigan, qattiq va kimyoviy jihatdan inert bo'ladi. Ammiakning galogenli hosillari ma'lum. Ammiakda uchchala vodorodi galogenlarga almashgan birikmalar (bundan  $NF_3$  mustasno) portlash bilan azot va galogenlarga ajraladigan beqaror moddalardir. Azot florid -  $NF_3$  rangsiz gaz, oddiy sharoitda suv bilan reaksiyaga kirishmaydi, kizdirilganda vodorod bilan vodorod florid hosil qiladi.

Ammiakning suvdagi eritmasi ammoniy gidrosid deb ataladi. U kuchsiz asos  $NH_4OH$  molekulalarining dissosilanish natijasi sifatida izohlanadi:



Ko'pgina ammoniy tuzlari ma'lum, ular ammiak bilan kislotalarning o'zaro ta'siridan hosil bo'ladi. Tarkibida  $NH_4^+$  ioni bo'lgan bu tuzlar asosan qattiq moddalardan iborat bo'ladi. Uchuvchan kislotalar tuzlari qizdirilganda gaz xolga o'tib parchalanadi, sovitilganda yana birikadi. Buni ammoniy xlorid misolida ko'rish mumkin:  $NH_4Cl = NH_3 + HCl$

Tarkibida oksidlash xususiyati kuchliroq bo'lgan anioni bor ammoniy tuzlarining parchalanishi qaytmasi reaksiyadir. Bunga sabab shuki, bunday tuzlar qizdirilganda oksidlanish-qaytarilish reaksiysi ro'y berib, ammoniy ioni oksidlanadi, anion esa qaytariladi. Bunga ammoniy nitrit yoki ammoniy nitratning parchalanishi misol bo Ta oladi:



Ammiakning elektron donorlik xususiyatini ligand tarkibiga kiruvchi ko'pgina kompleks birikmalar ko'rish mumkin.


Ammiak va uning birikmalar keng qo'Uaniladi. Uning suvli eritmasi sanoatda, qishloq xo'jaligida, medisina va turmushda qo'llaniladi. Uning asosiy qismi mineral o'g'itlar, birikmalar olishda ishlatiladi. Sovitish texnikasida ammiakdan keng foydaliladi. Ammoniy sulfat -  $(NH_4)_2SO_4$ , ammoniy nitrat -  $NH_4NO_3$  muhim o'g'itlar sifatida keng qo'llaniladi. Ammoniy xlorid -  $NH_4Cl$  bo'yash ishlarida, chit va gazlama ishlab chiqarishda, galvanik elementlarda, qo'rg'oshin va qalay bilan ulanadigan metallar yuzasini tozalashda ishlatiladi.

Suyuq ammiak o'g'itining afzalligi shundaki, uning tarkibida azot ko'p. Bunday o'g'itlar respublikamiz kimyo korxonalarida (Chirchiqdagi "elektrokimyo sanoat", Navoiydagagi "Azot" ishlab chiqarish birlashmasi va boshqa korxonalarida) ko'plab ishlab chiqarilmogda va paxta dalalarida qo'llanilmoqda.


Azot oksidlari. Azot elektromanfiyligi jihatdan faqat ftor bilan kislороддан keyinda turishi ma'lum. Uning oksid va oksianionlaridagi oksidlanish darajasi  $+1$  dan  $+5$  ga boradi. Azotning oltita oksidi ma'um bo'lib, bular quvidagilardir:

N<sub>2</sub>O, NO, N<sub>2</sub>O<sub>3</sub>, NO<sub>2</sub>, N<sub>2</sub>O<sub>4</sub>, N<sub>2</sub>O<sub>5</sub>

Azot oksidlari gaz, suyuqlik va kristall holda uchraydi, rangsiz yoki qo'ng'ir rangga ega. A/oi gipoksid - N<sub>2</sub>O yоqimli hidga ega, uni xushnud qiluvchi gaz deb ham ataladi. Vodorod, ammin, uglerod-(II)-oksid va organik birikmalar bilan portlashga moyil aralashmalar hosil qiladi. Uni ammoniy nitrat - NH<sub>4</sub>NO<sub>3</sub> ni termik parchalash yo'li bilan olinadi:



Nitrit kislota HNO<sub>3</sub>. Suyultirilgan eritma holida mayjud bo'la oladi. Tuz va efirlari nitritlari deyiladi. Uni nitritlaming suvdagi eritmasiga kislota ta'sir ettirish yo'li bilan olinadi. Kuchsiz kislota, beqaror, parchalanganda nitrat kislota, azot oksid va suv hosil qiladi. Ishqoriy metallar nitritlarni (S, l'e ishtirokida) qizdirib olinadi:



Hitrat kislota HNCK Rangsiz suyuqlik, suvdan 1,5 baravar og'ir, 86,0°C da qaynaydi. Suv bilan aralashadi, azeotrop va kristallgidratlar hosil qiladi. Kuchli oksidlovchi, boshqa moddalarni oksidlaganda azotning oksidlanish darajasi +4,+3,+2,+1 va -3 gacha o'zgaradi.

Buni quyidagi sxema orqali ifodalash mumkin (nordon eritmada):



Nitrat kislota ammiakni havo kislordi yordamida 750°C da oksidlab olinadi. Uni diazot tetraoksiddan quyidagi reaksiya orqali olish usulini nitrat kislotaning bevosita sintezi deyiladi



Nitrat kislotaning ma'lum oksidlanish darajagacha qaytarilishi uning konsentrasiyasiga va qaytaruvchi moddaning aktivligiga bog'liq bo'lishi ko'p tajribalarda qo'rildigan. Unda qo'rg'oshin va qalay eriganda NO<sub>2</sub> ajraladi, kumush eritsa NO bilan NO<sub>2</sub> ning aralashmasi hosil bo'ladi. Suyultirilgan nitrat kislota mis bilan temirga ta'sir ettirilganda NO gazi ajraladi. Kislotaga Zn ta'sir ettirilganda konsentrasiyaga qarab N<sub>2</sub>O, N<sub>2</sub> va NH<sub>3</sub> hosil bo'ladi.

Nitrat kislota, oltingurgut, fosfor va uglerod bilan o'zaro ta'sir etib, sulfat kislota, fosfat kislota va karbonat angidrid hosil qildi.

Nitrat kislota plastik massalar sanoatida, dori-darmonlar ishlab chiqarishda, bo'yoqchilikda, portlovchi moddalar, azotli va kompleks o'g'itlar tayyorlashda keng qo'llaniladi.

Nitrat kislota ko'p metallarni o'zida eritish xususiyatiga egaligi tufayli undan sanoat miqyosida foydalaniladi. Sulfat kislota bilan aralashmasi nitratlovchi aralashma sifatida ishlataladi.

Bir hajm nitrat kislotaning uch hajm xlorid kislota bilan aralashmasi "zar suvi" deb yuritiladi. U o'zida oltin, platina va boshqa metallarni eritadi. Analitik kimyoda oksidlovchi sifatida qo'llaniladi.

Nitrat kislota tuzlari bo'lgan nitratlar asosan oq rangli kristallar bo'lib, suvda yaxshi eriydi. Natriy, kaliy, kalsiy, bariy va ammoniy nitratlar selitralar deb ham ataladi. Nitratlar metallarga, oksidlar, gidrksidlar va ba'zi tuzlarga HNO<sub>3</sub> bilan ta'sir etib olinadi. Nitratlar yuqori temperatura ta'sirida parchalanadi. Kumush guruhi elementlari nitratlari qizdirilganda parchalanmay suyuqlanish xossasiga ega. Aktiv metallar nitratlari parchalanganda nitratlarga aylanadi:



Azot birikmalarining qo'llanishi. Azot ammiak olishda, sovitish apparatlarida, kimyoviy va metalluriya jarayonlarida inert muhit sifatida, elektr lampalari hamda gaz termometrlarida qo'llaniladi. Tarkibida azot bo'lgan xilma-xil mineral o'g'itlardan qishloq xo'jaligida keng foydalaniladi. Azot va uning birikmalar qishloq xo'jaligi uchun zarurdir.

Yiliga yerdan olinadigan ekin hisobiga har gektardan 0.8-250 kilogrammgacha azot tuproqdan yo'qoladi. Havodagi elektr zaryadi paytida azot bilan kislordan azot oksidlari hosil bo'ladi. Ular qor va yomg'ir suvlarida erib, har gektar erni 15 kg azot birikmalar bilan boyitadi. Tuproqda bo'ladiyan bakteriyalar ham yer quvvatini bog'langan azot bilan kuchaytiradi. Bunday bakteriyalarning ma'lum turlari atmosfera azotini o'ziashtirib, har gektar erda 150 kilogrammgacha bog'langan azot yig'a oladi.

Tarkibida azot bo'lgan geterosiklik birikmalar o'nlab xil dori-darmonlar, yuqori molekulali birikma (polimer)lar, o'simliklarni himoya qiluvchi va metallar korroziyasiga qarshi ishlataluvchi vositalar tayyorlashda keng qo'llaniladi.

Respublikamizda o'g'it sanoatini vujudga keltirishda marhum akademik M.N.Nabievning xizmati beqiyosdir. Uning shogirdlari bilan birgalikda yaratgan qator o'g'it xillari paxtachilikda, meva, sabzavot va boshqa ekinlar hosilini oshirishda amaliy ahamiyat kasb etdi. O'g'itlar kimyosi ilmiyatdagi instituti xodimlari o'g'itlarning mikroelementli xillarini yaratishda diqqatga sazovor ishlami bajardilar va amaliyoti tatbiq etdilar. Bunday o'g'itlar nafaqat O'zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyo respublikalari qishloq xo'jaligida qo'llanilmoqda. Bu sohada F.M.Mirzaev, S.T.To'xtaev, S.Usmonov, R.Yoqubov, B.M.Beglov va boshqalaming bajargan ishlari tahsinga sazovordir.


### Ishning bajarilishi

#### 1. Azot va uning birikmalarining xossalari

*Ishning maqsadi:* Azot va uning birikmalarining xossalari o'rganish.

#### 1- tajriba. Ammiakning olinishi va xossalari.

Bir xil miqdorda olingen ammoniy xlorid va kal tsiy gidroksidni chinni havonchada yaxshilab aralashiting. Probirkaning 1/3 qismiga qadar aralashma soling va probirkani shisha nay o'rnatilgan probka bilan berkiting va shtativga o'rnatilgan (3-rasm).



#### 2- tajriba. Ammoniy tuzlarining parchalanishi.

a) Quruq toza probirkaga 1-2 gr ammoniy xlorid tuzidan olib, shtativga tik holda o'mating va tuz solingen joyini ohista qizdiring. Tuzning parchalanishini kuzating va reaksiya tenglamasini yozing.

Quruq toza probirkaga ammoniy nitrat tuzidan 1-2 gr olib, mo'ri shraf ostida qizdiring. Nima kuzatiladi? Reaksiya tenglamasini yozing.

b) Quruq toza probirkaga ammoniy dixromat tuzi kristallaridan ozgina oling va uni qizdiring. Nima kuzatdingiz? Reaksiya tenglamasini yozing.

v) Quruq toza probirkaga 1-2 gr ammoniy xlorid tuzidan olib, shtativga tik holda o'mating va tuz solingen joyini ohista qizdiring. Tuzning parchalanishini kuzating va reaksiya tenglamasini yozing.

#### 3- tajriba. Ammoniy ioniga xos sifat reaksiyasi.

Probirkaga ammoniyning biror tuzi eritmasidan ozgina soling va unga natriy ishqori eritmasidan 1-2 ml qo'shib, qaynaguncha qizdiring. Ajralib chiqayotgan bug'ga ho'llangan qizil lakmus qog'oz'i yoki universal indikator qog'ozini tuting. Uning ko'karishiga va gazning hidiga e'tibor bering. Reaksiya tenglamasini yozing.

#### 4-tajriba. Nitrat kislotaning oksidlovchilik xossalari.

Probirkaga ozroq mis bo'lakchalaridan tashlab, ustiga kontsentrlangan nitrat kislotadan 1-2 ml quying. Agar reaksiya sezilarli darajada bormasa, uni biroz qizdiring va qo'ng'ir rangli gazni ajralishini kuzating. Misning oksidlanish reaksiysi tenglamasini yozing.

## ANALITIK KIMYO

Analitik kimyo fanining mohiyati,  
maqsadi va vazifalari

Analitik kimyo - modda va ular aralashmalari tarkibini aniqlash to'g'risidagi fandir.

Analitik kimyo fanining predmeti - amaldagi kimyoviy analiz nazariyasining umumiyligi muammolarini hal qilish va analizing aniq hamda tez bajariladigan usullarini ishlab chiqishdan iborat. Analitik kimyo fanining asosiy vazifasi - ilmiy izlanishlardagi ish va jarayonlaming kimyoviy va fizik-kimyoviy analiz usullarini rivojlantirishdan tashkil topadi.

Analitik kimyo tekshirilayotgan moddalarning turiga qarab noorganik va organik analizlarga bo'linadi.

Atrof-muhitni muhofaza qilishda analitik kimyo fanining o'rni beqiyos katta ekanligini alohida ta'kidlash kerak. Chunki kundalik hayotimizda ishlatalayotgan ichimlik suvlarini havo tozaligini doimo nazorat qilish asosan ularning tarkibidagi zararli moddalar vaelementlarni analiz qilish bilangina amalga oshirilishi mumkin. Masalan: sanoat chiqindilar ko'pchilik hollarda ariqlarga, anhor va havuz kabilarga oqiziladi. Buni iste'mol qilinayotganligi hech kimga sir emas. Chiqayotgan chiqindi tarkibini analiz qilinganda zararli modda yoki element borligi ma'lum bo'lsa, eng avvalo chiqindilar zararsizlantiriladi, buning iloji bo'lmasa, oqin suvlarga sanoat chiqindilarini oqizilishiga chek quyiladi.

Analitik kimyo fani ikki bo'limdan iborat bo'lib, bular quyidagicha tushuntiriladi:

I. S i f a t a n a l i z i Bunda modda va ular aralashmalari tarkibi qanday modda, element yoki ionlardan tashkil topganligi aniqlanadi. Sifat analizida tekshirilayotgan moddadan ixtiyoriy (o'lchamsiz) miqdorda olib, aniqlanayotgan modda, ion yoki elementni boriigini ko'rsatadigan reaksiyaga mos reagent ta'sir ettiriladi. Natija modda va ular tarkibida tegishli modda, ion yoki element boryoki yuqligi haqidagi ma'lumot bilan cheklaniladi.

II. M i q d o r i y a n a l i z i Bu sifat analizi natijasiga ko'ra, modda va ular aralashmalari tarkibidagi mavjud modda, element yoki ionning qancha miqdorda bor ekanligi haqidagi ma'lumotlarni olish bilan shug'ullanadi. Natija tegishli modda, element yoki ion tekshirilayotgan modda va ular aralashmalarining necha foizini tashkil qilishi, agar eritma bo'lsa, konsentratsiyasi qancha ekanligi yoki necha normal (molyar) ekanligini aniqlash bilan tugaydi. Analizning bu usulida tekshirilayotgan modda va ular aralashmalaridan ham, tekshirish uchun qo'shilayotgan reagentdan ham aniq o'lchamda olinadi.

## Kationlar va anionlarning analitik sinflarga bo'linishi

Kationlarning sinflanishi. Hamma kationlar o'ziga xos xususiyatga ega. Shu xususiyatlar va bu kationlarni cho'ktira oladigan guruh reaktivlari qanday ta'sir etishiga qarab hamma kationlar analitik guruhlarga ajratiladi. Guruhlarga ajratishning bir necha usullari. bir necha sxemalari bor. Ulardan engqulay va ko'p tarqalgan kationlarning vodorod sulfidga munosabati bo'yicha guruhlarga ajratishdir. Bu usul 1871 yilda N.A. Menshutkin tomonidan tavsiya etilgan. Vodorod sulfid yordamida kationlarni guruhlarga ajratish sxemasi 1-jadvalda keltirilgan. Bu usul bo'yicha kationlar 5 ta analitik guruhga ajratiladi.

Kationlarning analitik guruhlarga bo'linishi  
(klassifikatsiyasi)

| Analitik guruhlar | Guruhga kiradigan kationlar  | Guruh reaktivlari   | Hosil bo'ladijan birikmalar  | Guruhning xususiyatlari  |
|-------------------|--|---|--|--|
| I                 | K <sup>+</sup> , Na <sup>+</sup><br>NH <sup>+</sup> , Mg <sup>2+</sup> va boshqalar.   | Yo'q  | -  | Xlorodlari, sulfatlari, sulfidlari karbonatlari (Mg <sup>2+</sup> dan tashqari) suvda eriydi.      |
| II                | Ba <sup>2+</sup> , Sr <sup>2+</sup> , Ca <sup>2+</sup>   | (NH <sub>4</sub> ) <sub>2</sub> CO <sub>3</sub><br>NH <sub>4</sub> OH<br>feffl4Cl | BaCO <sub>3</sub><br>CaCO <sub>3</sub><br>SrCO <sub>3</sub>  | Xlorodlari suvda, karbonatlari kislotada eriydi. Sulfatlari suvda, kislotada va ishqorda erimaydi. |
| III               | Al <sup>3+</sup> , Cr <sup>3+</sup> , Fe <sup>3+</sup> , Zn <sup>2+</sup> , Co <sup>2+</sup> , Ni <sup>2+</sup>                    | (NH <sub>4</sub> ) <sub>2</sub> S, NH <sub>4</sub> OH<br>1NH <sub>4</sub> Cl      | Al(OH) <sub>3</sub><br>Cr(OH) <sub>3</sub><br>ZnS, FeS<br>Fe <sub>2</sub> S <sub>3</sub> , SnS, CoS, NiS   | Xloridlari, sulfitlari suvda, sulfidlari suyultirilgan kislotada eriydi.                           |
| IV                | Cu <sup>2+</sup> , Cd <sup>2+</sup> , Bi <sup>3+</sup> , As <sup>3+</sup> , Sb <sup>3+</sup> , Sn <sup>2+</sup> , Sn <sup>4+</sup> | As <sup>5+</sup> , Sb <sup>5+</sup> , H <sub>2</sub> S<br>HCl                     | CuS, CdS, Bi <sub>2</sub> S <sub>3</sub> , HgS, As <sub>2</sub> S <sub>3</sub> , As <sub>2</sub> S <sub>5</sub> , SnS, SnS <sub>2</sub> , Sb <sub>2</sub> S <sub>3</sub> | Xloridlari suvda sulfidlari suyultirilgan kislotada erimaydi.                                      |
| V                 | Ag <sup>+</sup> , [Hg] <sup>2+</sup> , Pb <sup>2+</sup>  | HCl   | AgCl<br>PbCl<br>Hg <sub>2</sub> Cl <sub>2</sub>  | Xloridlari suvda suyultirilgan kislotada eriydi.   |

I va II guruh kationlarining umumiyligi tavsifi.

Kationlarning I analitik guruhiga ammoniy (IVH<sub>4</sub><sup>+</sup>), kaliy (K<sup>+</sup>), natriy (Na<sup>+</sup>), magniy {Mg<sup>2+</sup>} va ba'zi siyrak elementlarning ionlari kiradi. Ular hosil qilgan ko'pchilik tuzlar suvda yaxshi eriydi. Analiz uchun eng muhim ularning sulfidlari, gidroksidlari, karbonatlari va xloridlarining suvda eruvchanligidir. I guruh kationlari boshqa hamma guruh kationlaridan ana shu bilan farq qiladi. Bu tuzlar eriydigan bo'lgani uchun I guruh kationlar bosqqa guruhlaming guruh reagentlari, ya'ni HCl, H<sub>2</sub>S, (NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>S va (NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>COJ ta'sirida cho'kmaydi va boshqa guruh kationlarini qiyin eruvchan tuzlar holida ajratilganda ular eritmada qoladi. Boshqa guruh kationlari K<sup>+</sup>, Na<sup>+</sup> va Mg<sup>2+</sup> kationlarini topishga xalal bergani uchun sistematik analizda bu kationlar eritmadan to'liq yo'qotilgandan keyinginatopiladi.

K<sup>+</sup>, Na<sup>+</sup> va Mg<sup>2+</sup> kationlari (I guruh kationlariga kiradigan Li<sup>+</sup>, Rb<sup>+</sup> va Cs<sup>+</sup> ham) inert gazlar atomining tashqi qavatiga o'xshash sakkiz yoki ikki elektronli tugallangan tashqi qavatiga ega. I guruh kationlaridan Mg<sup>2+</sup> ioni alohida ajralib turadi; u D.I.Mendeleev davriy sistemasining ikkinchi guruhida joylashgan bo'lib, I va II analitik guruh kationlari o'rtaida oraliq holatni egallaydi; shu sababli uni I guruhga ham, II guruhga ham kiritish mumkin. Mg<sup>2+</sup> ionining II guruh kationlari bilan umumiyligi bo'lgan xossasi shundan iboratki, uning gidroksikarbonati (MgOH)<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> suvda qiyin eriydi. Lekin u ammoniy tuzlari ishtirokida yaxshi eriydi. II guruh kationlari ammoniy karbonat ta'sirida NH<sub>4</sub>OH va NH<sub>4</sub>Cl ishtirokida cho'ktirilgani uchun Mg<sup>2+</sup> ioni analiz davotnida II guruh bilan cho'kmasdan, I guruh bilan eritmada qoladi. Shuning uchun Mg<sup>2+</sup>ni I guruh kationlari bilan birga o'rganish qulay.

Birinchi analitik guruhga K<sup>+</sup>, Na<sup>+</sup>, NH<sub>4</sub><sup>+</sup> va Mg<sup>2+</sup> kationlari kiradi. Bu kationlarning hammasi rangsiz, shuning uchun ham anion rangli bo'lgan taqidirdagina (masalan, CrO<sub>4</sub><sup>2-</sup>, MnO<sub>4</sub><sup>-</sup> va b.) ularning tuzlari ham rangli bo'ladi. Kaliy, natriy va ammoniyning deyarli hamma tuzlari, shuningdek, ularning gidroksidlari ham suvda yaxshi eriydi. Bu guruh kationlarning hammasini cho'ktiruvchi guruh

reagenti (reaktiv) yo'q, chunki birinchi guruh kationlarining ko'pchilik tuzlari suvda yaxshi eriydi. Boshqa guruh kationlari  $K^+$ ,  $Na^+$  va  $Mg^{+2}$  kationlarini topishga xalaqtib bergani uchun sistematik analizda bu kationlar eritmadan boshqa hamma kationlar to'liq yo'qolgandan keyingina topiladi (3-jadval).

| Reagentlar   | Kationlar              |   |                                    |                         |
|--|------------------------|---|------------------------------------|-------------------------|
|  | $K^+$                  | $Na^+$                                      | $NH_4^+$                           | $Mg^{+2}$               |
| $NaHC_4H_4O_6$   | Oq kristall cho'kma    | -   | Oq kristall cho'kma                |                         |
| $Na_3[Co(NO_2)_6]$   | Sariq kristall cho'kma | -   | Sariq kristall cho'kma             | -                       |
| $KH_2SbO_4$  | -                      | Oq kristall cho'kma                         | Oq amorf cho'kma                   | Oq kristall cho'kma     |
| $CH_3(COO_2)Zn^+$<br>+ $CH_3(COO_2)UO_2^+$<br>+ $CH_3COOH$ | -                      | Sarg'ish kristall cho'kma<br>natriy atsetat | rux uranil                         | -                       |
| $KOH$  | -                      | -   | $NH_3$ gaz xolida ajralib chiqadi. | Oq amorf cho'kma        |
| Nessler reaktiv<br>$K_2HgI_4 + KOH$                        | -                      | -   | Qizil qo'ng'ir cho'kma             | Oq amorf cho'kma        |
| $Na_2HP_4 + NH_4OH$<br>$NH_4Cl$<br>ishtirokidi             | -                      | -   | -                                  | Oq kristall cho'kma     |
| oksinolin  | -                      | -   | -                                  | Yashil sarg'ish cho'kma |
| $(NH_4)_2CO_3 + NH_4Cl + NH_4OH$                           | -                      | -   | -                                  | -                       |
| Alangani qanday rangga kiritishi                           | Binafsha               | sariq                                       | -                                  | -                       |

II guruh kationlariga  $Ba^{+2}$ ,  $Sr^{+2}$ ,  $Ca^{+2}$  va boshqalar kiradi. Bularning guruh reagenti  $(NH_4)_2CO_3$  bo'lib, ammoniyli bufer ( $NH_4Cl:NH_4OH$ ) eritmasi ishtirokida ( $pH=9,2$ ) karbonatli tuziar ( $BaCO_3$ ,  $CaCO_3$ ,  $SrCO_3$ ) xolida chukmaga tushadi. Analizlar shundan dalolat beradiki, xloridli va sulfidli tuzlari suvda eruvchan, karbonatli tuzlari kislotada eriydi, sulfatli tuzlari suvda, kislotva ishkorlarda erimaydi.

## II - GURUH KATIONLARINING SIFAT REAKSIYALARI

Ikkinci analitik guruh kationlariga  $Ca^{+2}$ ,  $Ba^{+2}$ ,  $Sr^{+2}$  ionlari kiradi.  $CaO$ ,  $SrO$ ,  $BaO$  oksidlar suvda erib, gidroksidlar hosil qiladi. Ularning gidroksidlari kuchli ishqorlar hisoblanadi. Suvdag'i eritmalarda bu kationlar rangsiz bo'ladi. Ikkinci guruhdagi kationlar turli anionlar bilan birikib, qiyin eriyidigan tuziar hosil qiladi vash u jihatdan birinchi guruh kationlarining ko'pchiligidan farq qiladi. Masalan, II guruh kationlarining sulfatlari, fosfatlari, oksalatlari va karbonatlari suvda qiyin eriydi.  $Na_2CO_3$ ,  $Na_2SO_4$  esa yaxshi eriydi, shu xossaga asoslanib, ikkinchi guruh kationlarini suvda erimaydigan III-IV guruh kationlaridan ajratish mumkin.

II guruh kationlarining umumiy reagenti sifatida faqat ammoniy karbonat  $(NH_4)_2CO_3$  ishlatalishi mumkin, chunki bu maqsad uchun  $Na_2CO_3$  yoki  $K_2CO_3$  ishlataladigan bo'lsa, eritmaga  $Na^+$  yoki  $K^+$  ionlarini oldindan kiritib qo'yan bo'lamicib va bu ionlar analiz qilinayotgan eritmadan oldin bo'lgan-bo'limganligini aniqlash qiyin bo'lib qoladi. Ammoniy ionini kiritish esa xatoga olib kelmaydi, cho'kni u eritmaga II guruhning umumiy reagenti ta'sir ettirilishiga qadar eritmaning bir qismidan topiladi (6-jadval).

6-jadval

## II - guruh kationlarini aniqlash reaksiyalari.

| Reagentlar                            | Kationlar                                   |                                       |                                    |
|---------------------------------------|---|---------------------------------------|------------------------------------|
|                                       | $Ba^{+2}$                                   | $Sr^{+2}$                             | $Ca^{+2}$                          |
| $CN(H_4)_2CO_3$                       | Oq cho'kma<br>$BaCO_3$                      | Oq cho'kma $SrCO_3$                   | Oq cho'kma $CaCO_3$                |
| $Na_2HP_4$                            | Oq cho'kma<br>$BaHP_4$                      | Oq cho'kma<br>$SrHP_4$                | Oq cho'kma $CaHP_4$                |
| $H_2SO_4$ va eruvchan sulfatlar bilan | Oq cho'kma<br>$BaSO_4$                      | Oq cho'kma $SrSO_4$                   | Oq cho'kma $CaSO_4$                |
| $CaSO_4$                              | Oq cho'kma (shu zaxoti tushadi)<br>$BaSO_4$ | Oq cho'kma darhol tushmaydi. $SrSO_4$ | -                                  |
| $(NH_4)_2C_2O_4$                      | Oq cho'kma<br>$BaC_2O_4$                    | Oq cho'kma<br>$3rC_3O_4$              | Oq cho'kma $CaC_2O_4$              |
| $K_2CrO_4$                            | Sariq cho'kma<br>$BaCrO_4$                  | Sariq cho'kma<br>$SrCrO_4$            | -                                  |
| $K_2Cr_2O_7 + H_2O + CH_3COONa$       | $BaCrO_4$                                   | -                                     | -                                  |
| $K_4[Fe(CN)_6] + NH_4Cl$              | -   | -                                     | Oq cho'kma<br>$Ca(NH_4)_2Fe(CN)_6$ |
| Alanga rangining bo'yalishi           | Sarg'ish-ko'k                               | Och qizil                             | Qizil g'isht rangga kiradi.        |

laboratoriya ishi № 14

## I VA II guruh kationlarining sifat



### reaksiyalari

### Ishning bajarilishi

### $K^+$ kationini aniqlash reaksiyalari

$K^*$  kationini aniqlashda reaksiyalardan  $KCl$ ,  $K_2SO_4$  yoki  $KNO_3$ , tuzlaridan birortasining suvdagi eritmasidan reaktivlar ta'sirida cho'kma hosil qilishdan foydalanim o'tkaziladi.

1. Natriy gidrotartrat-v'mo kislotaning natriyli tuzi ( $Na_2H_4O_6$ ) kaliy tuzlarining eritmalari nordon tuzi oq kristall cho'kma - kaliy gidrotartrat  $KHC_4H_4O_6$  hosil qiladi.





Bu reaksiyalardan ko'rinish turibdiki, reaksiyada faqat  $K^+$  va  $HC_4H_4O_6^-$  ionlarigina ishtirok etadi, boshqa hamma ionlarni tenglamadan tushirib qoldirish mumkin.

tushmasligi mumkin. Shuning uchun reaksiyani sovutib olib borish kerak. Reaksiya o'tkazilayotgan probirka suv oqimiga tutib turilsa va shisha tayoqcha bilan probirka devorlari ishqalansa cho'kmanning hosil bo'lishi tezlashadi.

Hosil bo'lgan cho'kma kuchli kislotalarda, ishqorlarda va issiq suvda eriydi. Faqat sırka kislotalada erimaydi. Ko'proq miqdorda sovuq suvda ham eriydi.

2. Natriy kobaltonitrit  $\text{Na}_3[\text{Co}(\text{NG}_2)]$  kaliy tuzlari eritmasi bilan asosan  $\text{K}_2\text{Na}[\text{Co}(\text{NO}_2)]$  tarkibili sariq cho'kma kaliy-natriy geksanitrokobaltat, kobaltning III valentli kompleks tuzi hosil bo'ladi.



Ammoniy ioni ham xuddi shunday cho'kma hosil qiladi va kaliy ionini topishga xalaqit beradi, shuning uchun reaksiyalami ammoniy ioni ishtirokisiz o'tkazish kerak.

Analiz uchun yangi tayyorlangan natriy kobaltonitrit eritmashini darxol ishlatalish lozim, chunki u saqlanganida parchalanib, pushti rangli  $\text{Co}^{2+}$  ionlari ajralib chiqadi va bu reaktiv ish uchun yaroqsiz bo'lib qoladi. Bunday bo'imasligi uchun eritmada sırka kislotosi yoki ammoniy atsetat yordamida neytral yoki kuchsiz kislotali muhit hosil qilinadi.



Reaksiyalami bajarish uchun kaliy tuzi eritmashidan probirkaga 2-3 tomchi olib, ustiga yetarli miqdorda reaktiv oz-ozdan qo'shiladi. Bu reaksiya yetarli darajada sezgir.

3. Alangani bo'yalishi. Kaliy tuzlari gaz gorenkasining rangsiz alangasini sariq tusga bo'yaydi, chunki kaliy tuzlari oz miqdorda natriy tuzlari bilan aralashgan bo'ladi. Natriy esa alangani sariq tusga kiritadi. Alangaga ko'k shisha orqali qaralsa, sariq rang shishaga yutilib, binafsha rang yaxshi ko'rindi. Tajribani o'tkazish uchun shisha tayoqcha kavsharlangan platina yoki nixrom sim avval konsentrangan xlorid kislotala yuvib tozalanadi. Tozalangan sim kaliy xlorid eritmashida yoki konsentrangan xlorid kislotala xo'llanib, kaliyning biror tuziga tekiziladi, bunda simga kristallardan bir nechta yuqib qoladi. Sim gaz gorenka alangasining pastki qismidan kiritilib, uning yuqori temperaturali qismiga tomon asta-sekin ko'tariladi va alanga ranguining bo'yalishi kuzatiladi.

#### $\text{Na}^+$ kationini aniqlash reaksiyaları

$\text{Na}^4$  kationini aniqlash reaksiyalari  $\text{NaCl}$ ,  $\text{Na}_2\text{S0}_4$  yoki  $\text{NaNQ}_3$  tuzlaridan birortasining suvdagi eritmasi bilan o'tkaziladi.



1. Kaliy digidroantimonat  $\text{KH}_2\text{SbO}_4$  (ortosurma kislota  $\text{H}_3\text{SbO}_4$ ning kaliyli tuzi) natriy tuzlarining eritmalarini bilan oq kristall cho'kma - natriy digidroantimonatni hosil qiladi.



Reaksiyani bajarish uchun probirkaga natriy tuzi eritmashidan 2-3 tomchi solib, unga reagent eritmashidan  $\text{KH}_2\text{SbO}_4$  ham xuddi shuncha qo'shiladi va probirka devorlari shisha tayoqcha bilan ishqalanimadi. Bunda cho'kma hosil bo'ladi. (Cho'kma kristall halatda ekanligiga ishonch hosil qilinadi, bu  $\text{NaH}_2\text{SbO}_4$  ning muhim belgisi.) Buning uchun cho'kma batamom tushguncha eritma tinch qo'yiladi, keyin probirkaning oqzi teshikli tijinlar bilan berkitiladi va probirka to'nikariladi. Bunda probirka devorlarida kub shaklidagi yirik kristallar ko'rindi. Reaksiya neytral muhitda o'tkaziladi. Kislotali muhitda reaktiv  $\text{KH}_2\text{SbO}_4$  parchalanib, metaantimonat kislota  $\text{HSbO}_3$  ning oq amorf cho'kmasini hosil bo'ladi.

2. Mikrokristalloskopik reaksiya. Bu reaksiyani o'tkazish uchun uranil atsetat  $\text{UO}_2(\text{CH}_3\text{COO})_2$  dan foydalaniadi. Tekshirilayotgan eritmadan (neytral yoki sırka kislotali muhitda) bir tomchisi shisha plastinka usida extiyotik bilan bug'lataladi. Qurug qoldiq qolgandan keyin, unga 1-2 tomchi uranil atsetat qo'shiladi, shisha tayoqcha bilan aralashdiriladi. Bir necha minutdan so'ng  $\text{CH}_3\text{COONa}(\text{CH}_3\text{COO})_2\text{UO}_2^-$  natriy uranil atsetat - sariq rangli kristallar hosil bo'ladi. Ularni mikroskopda ko'rish mumkin. Ular to'g'ri tetraedrlar yoki oktaedrlar shaklida bo'ladi (11- va 12-rasmilar).


Reaksiya tenglamasi:



Bu reaksiya natriy kationiga xos sezgir reaksiyadir.

#### $\text{NH}_4^+$ kationiga xos bo'lgan reaksiyalar.



1. O'yuvchi ishqorlar. ( $\text{NaOH}$ ,  $\text{KOH}$ ) bilan ammoniy tuzlarining eritmalarini qo'shib qizdirilganda, gaz holida ammiak chiqadi:



Ajralib chiqayotgan ammiak o'tkir xididan, namlangan qizil iakmus qog'ozining ko'karishidan, konsentrangan xlorid kislota bilan xo'llangan shisha tayoqcha ammiak ajralayotgan probirka og'ziga yaqinlashtirilganda «oq tutun» hosil bo'lishi,  $\text{Hg}_2(\text{NO}_3)_2$  tuzining eritmasi bilan xo'llangan filtr qog'oz probirkadan chiqayotgan gaz ta'sirida qorayishidan bilib olish mumkin.

Bu tajribani o'tkazish uchun ammoniy tuzining 2-3 tomchi eritmasi yoki ozgina quruq tuzi solingen probirkaga 3-4 tomchi ishqor tomiziladi va probirka og'ziga namlangan iakmus qog'oz tutib turgan holda probirka suv hammomida qizdiriladi. Qizil iakmus qog'ozning ko'karishi reaksiya sodir bo'lganligini bildiradi.


2. Nessler reaktivini bilan o'tkaziladigan reaksiya. Nessler reaktiv  $\text{K}_2[\text{HgJ}_4]$  va  $\text{KOH}$  aralashmasi ammoniy ionlari bilan qizil-qo'ng'ir cho'kma oksodimerkurammoniy hosil qiladi.



Tajribani o'tkazish uchun ammoniy tuzining bir tomchi eritmashiga 1-2 tomchi Nessler reaktividan qo'shiladi. Qizil-qo'ng'ir rangli cho'kma hosil bo'lishi kuzatiladi. Bu reaksiya nihoyatda sezgirligi bilan ajralib turadi.

#### $\text{Mg}^{2+}$ kationi reaksiyaları.

1. O'yuvchi ishqorlar bilan reaksiyalar. O'yuvchi ishqorlar  $\text{KOH}$  yoki  $\text{NaOH}$  magniy kationlari bilan oq amorf cho'kma hosil qiladi:




Ushbu reaksiya yordamida birinchi analitik guruh kationlaridan  $\text{Mg}^{2+}$  ajratiladi, chunki  $\text{K}^+$ ,  $\text{Na}^+$ ,  $\text{NH}_4^+$  ning gidroksidlari suvda yaxshi eruvchandir. Cho'ktirishda  $\text{NH}_4\text{OH}$  dan foydalanimish maqsadga muvofiq emas, chunki  $\text{NH}_4\text{OH}$  kuchsiz asos bo'lib, eritmada kam dissotsilanadi va  $\text{OH}^-$  ionlarining konsentratsiyasi eritmada yetarli bo'lmaydi.

$\text{Mg}(\text{OH})_2$  cho'kmasi asos bo'lganligi sababli kislotalarda eriydi. Bu cho'kma ammoniy tuzlarida ham eriydi.

Bu jarayonni o'tkazish uchun probirkaga magniyning biror tuzi eritmashidan 2-3 tomchi solib, unga o'shancha miqdor ishqor eritmasi qo'shiladi. Bunda amorf cho'kma hosil bo'ladi. Boshqa probirkaga magniy tuzi eritmashidan 2 tomchi solib, unga dastlab,  $\text{NH}_4\text{C1}$  ning to'yingan eritmashidan 2 tomchi, so'ngra  $\text{NH}_4\text{OH}$  eritmashidan 2 tomchi tomiziladi. Cho'kma hosil bo'lmaydi.

2. Natriy hidrofosfat  $\text{NaHPO}_4$  magniy tuzlari bilan  $\text{NH}_4\text{OH}$  va  $\text{NH}_4\text{C1}$  ishtirokida reaksiyaga kirishib, mineral kislotalarda va  $\text{CH}_3\text{COOH}$ da eriydigan qo'shtuzmagniy ammoniy fosfat  $\text{MgNH}_4\text{P0}_4$  - oq kristall cho'kma hosil qiladi:




Hosil bo'igan cho'kma kislotalada eriydi. Magniy ammoniy fosfat 6 molekula suv bilan birga kristallanadi.

Reaksiyani o'tkazish uchun magniy tuzning 2-3 tomchi eritmasiga xuddi o'shancha miqdorda NH<sub>4</sub>OH qo'shiladi; hosil bo'lgan cho'kma Mg(OH)<sub>2</sub> eriguncha aralashmani chayqatib turgan holda NH<sub>4</sub>Cl eritmasidan qo'shiladi.

Tiniq eritmaga Na<sub>2</sub>HP0<sub>4</sub> reaktividan 4-5 tomchi qo'shib, shisha tayoqcha bilan aralashtirib turiladi. Ba'zan cho'kma hosil bo'lishi uchun 10-15 minut vaqt ketadi.

3. *Ervchan karbonatlar bilan bo'ladigan reaksiyalar.* Mg<sup>2+</sup> kationi Na<sub>2</sub>C0<sub>3</sub> va K<sub>2</sub>C0<sub>3</sub> tuzlarining eritmalari ta'sirida gidrosituzlari hosil qilib, cho'kmaga tushada:



Na<sub>2</sub>C0<sub>3</sub> ta'sirida tushgan cho'kma (MgOH)<sub>2</sub>C0<sub>3</sub> hamda ammoniy tuzlarida eriyda.

Tekshirilayotgan aralashmada NH<sub>4</sub>Cl tuzi mayjud bo'lsa, cho'kma umuman hosil bo'lmaydi. (MgOH)<sub>2</sub>C0<sub>3</sub> tuzining ammoniy tuzlarida ervchanligidan foydalanib, magniy kationi ikkinchi guruh kationlaridan ajralib, birinchi guruh kationlari qatorida o'rganiladi.

Karbonatlar bilan bo'ladigan reaksiyalami o'tkazish uchun probirkadagi magniy tuzining 2-3 tomchi eritmasiga xudi o'shancha Na<sub>2</sub>C0<sub>3</sub> eritmasidan qo'shiladi va aralashma qaynaguncha qizdiriladi. Shundan keyin cho'kma hosil bo'lishi tekshirilayotgan eritmada Mg<sup>2+</sup> kationi borligini bildiradi.

1-analitik guruh kationlari sifat reaksiyalarini laboratoriya davfariga yozish hisoboti 4-jadvalda keltirilgan\*

4-jadval

I - analitik guruh kationlarining sifat reaksiyalarini laboratoriyanaga yozish tartibi

Aniq  
lana

diga  
n  
katio

Yl  
:

2


K'  
tc

NaHC<sub>4</sub>HJD<sub>6</sub>  
(natriy gidrotartrat)


Qo'shiladigan  
reaktiv

Reaksiyaning borishi va uning qisqa  
ionli tenglamasi

Sodir bo'ladigan effekt



Oq kristall cho'kma,  
kislata va ishqor eritmalarida eriydi.




Sariq kristall cho'kma,  
ishqor eritmalarida eriydi

K'

geksanitrokobaltat


Na[B(Cr,Hs)J  
(natriy  
tetrafenilboratj



Oq mikrokristall  
cho'kma

Na


KH<sub>2</sub>SbO<sub>4</sub> (kaliy  
digidroantimonat)



Oq kristall cho'kma,  
ishqorda eriydi

Na


UO<sub>2</sub>(CH<sub>3</sub>COO)<sub>2</sub>,  
(uranil atsetat)



Mikrokristallokopik  
reaksiya, sariq rangli  
cho'kma, kuchli ishqorda  
eriydi

NH<sub>4</sub>

NaOH (KOH)  
ishqor



Gaz holida NH<sub>3</sub> ajraladi.  
qizil laksusni  
ko'kartiradi. Simob (I)-

NH<sub>4</sub>

K<sub>2</sub>[HgJJ + KOH



nitrat eritmasida eriydi  
Qizil-qo'ng'ir rangli

aralashmasi

$$= [\text{NH}_2\text{Hg}_2\text{OjJ} \cdot 17\text{KJ t III} + 311,0]$$

cho'kma, cho'kma  
oksoidl-merkurammoniy  
deb nomlanadi, Kuchli  
kislota ishqorda  
erishi mumkin.

oq kristall cho'kma

Sariq kristall cho'kma,  
ishqor eritmalarida eriydi  
Oq amorf cho'kma, kuchli  
kislota (HN<sub>3</sub>) tuz  
eritmalarida eriydi.

Oq kristall cho'kma  
kislota eriydi, 6  
molekula suv bilan  
kristallanadi.  
Cho'kma iushadi,  
cho'kma ammoniy  
tuzlarida eriydi.

|                      |   |   |  |  |
|----------------------|---|---|--|--|
| NH <sub>4</sub><br>+ | NaHC <sub>4</sub> H <sub>4</sub> O <sub>6</sub><br>(natriy<br>gidrotartratom)<br>Na[Co(NO <sub>2</sub> ) <sub>6</sub> ]<br>natriygeksanitrokobaltat (III)<br>NaOH (KOH)<br>ishqor | NH <sub>4</sub> Cl + NaHC <sub>4</sub> H <sub>4</sub> O <sub>6</sub> - NH <sub>4</sub> HC <sub>4</sub> H <sub>4</sub> O <sub>6</sub> Cl, + N<br>aCl<br>2NHJCI + Na <sub>3</sub> [Co(NO <sub>2</sub> ) <sub>6</sub> ] =<br>(NH <sub>4</sub> ) <sub>2</sub> Na[Co(NO <sub>2</sub> ) <sub>6</sub> ]l + 2NaCl<br>MgCl <sub>2</sub> + 2NaOH = Mg(OH) <sub>2</sub> l +<br>2NaCl | Mg' Na <sub>2</sub> HP0 <sub>4</sub> (NH <sub>4</sub> OH<br>yoki NH <sub>4</sub> Cl li bufer)<br>Na <sub>2</sub> C0 <sub>3</sub> (K <sub>2</sub> C0 <sub>3</sub> )<br>natriy<br>karbonat | MgCl <sub>2</sub> + NH <sub>4</sub> OH + Na <sub>2</sub> HP0 <sub>4</sub> =<br>= MgNH <sub>4</sub> PO <sub>4</sub> + 2NaCl + IPO<br>2MgCl <sub>2</sub> + 2Na <sub>2</sub> CO <sub>3</sub> l + H <sub>2</sub> O =<br>(MgOH) <sub>2</sub> C0 <sub>3</sub> l + CO + 4NaCl |
|----------------------|---|---|--|--|

##### 3- tajriba. Atmosfera bosimida haydash

Asbob va materiallar, reaktivlar: benzin (yoki benzol va toluol); Vyurs kolbasi, termometr, sovitgich, alonj, yig'gich kolbalar (50 ml dan uchta), elektr plita.

9- rasmdagidek asbob yig'ing. Kolbaga 40 ml benzin yoki 20 ml dan benzol va toluol soling, shuningdek bir necha dona chinni bo'lagi («qaynatar») dan ham tashlang. Elektr isitgichda kolbani bir me'yorda qizdiring. Qizdirish haydalayotgan distillyat yig'gich idishga minutiga 30-40 tomcidhan tushib turadigan darajada davom ettirilsin. Harorat aralashmadagi biron moddaning qaynash intervaliga yetgach ( $75-80^{\circ}\text{S}$ ) birinchi fraksiya yig'gichga o'ta boshlaydi. Undan yuqori haroratda ( $85-100^{\circ}\text{S}$ ) ikkinchi fraksiya yig'ib olinadi so'ng yig'gich yana almashtirilib ( $101-110^{\circ}\text{S}$ ) uchinchi fraksiya yig'ib olinadi. Haydash kolbasida 3-4 ml suyuqlik qolganda qizdirish to'xtatiladi. Har bir fraksiyaning miqdorini o'lchang, ulaming dastlabki aralashma miqdoriga nisbatan protsentini toping. Qoidiqning foiz miqdorini aniqlang.


Aralashmani bir-biridan yaxshiroq ajratish maqsadida ikkinchi marta qayta haydash mumkin.

Agarda haydab tozalash uchun olinadiqan suyuqlik juda oz bo'lsa uning konsentratsiyalarini, masalan, qaynash haroratini, aniqlash uchun u oz miqdordagi suyuqliklami haydashga mo'ljallangan Emix naychasiga joylanadi. Naychaning shakli uziga xos bo'lib uning diametri 8-10 mm, uzunligi 50-60 mm ni tashkil kilsin. Suyuqliknini haydash uchun naycha tubiga o'tda toblangan ozgina astbest ip qo'yib, pipetka yordamida haydalishi lozim bo'lgan suyuqlik astbest to'la singib bo'lguncha tomizilsin (0,2-0,3 ml), so'ngra naycha tubi asta qizdirilsin. Naycha  $45^{\circ}$  burchak ostida ushlansin. Astbestga shimidirligan suyuqlik bug'i naychaning sharsimon kismida yig'ilib bo'lguncha kuting. Undan keyin qizdirish to'xtilib, naycha gorizontall (yotiqt) holatga keltilrisin. Soviganda naychaning kengaytirilgan qismiga kondensat to'planadi, uni kapilar pipetka yordamida yig'ib olish mumkin. Bunday suyuqliklaming qaynash harorati Sivolobov usuli bilan aniqlanadi.

Reaksiya mahsulotlari tarkibida quyuq va qatron qo'shimchalar bo'lsa birikma parchalanish yoki qatronlanish xususiyatiga ega bo'lsa, bunday moddalar ko'pincha bug' bilan haydab tozalanadi. Ular suvda deyarli erimaydigan va suv bilan reaksiyaga kirishmaydigan bo'lishi kerak.


Laboratoriya va kimyo sanoatida organik moddalarni tozalash va murakkab tarkibli aralashmalarni ayrim komponentlarga ajratishga keng ko'llaniladigan usullardan yana biri - suv bug'i bilan haydashdir. Bu usulning mohiyati qaynash haroratigacha qizdirilganda parchalanadigan, suv bilan aralashmaydigan yoki kam aralashadigan moddani undan suv bug'i yuborganda, uchuvchan holatga o'tishga, hamda sovitgichda suv bug'i bilan

#### kondensatlashuviga asoslangan.



9 – rasm. Oddiy (atmosfera) bosimda haydash uchun qurilma: 1 – termometr, 2 – qurilma: 1 – bug'yaratar, 2 – haydash kolbasi, 3 - Libix sovitgichi, 4 - allonj, 5 - qabul idishi.  
4 – allonj, 5 - qabul idishi.

Suv bug'i bilan haydash asbobi bug' hosil qiluvchi idish, bug' o'tuvchi nay, uzunbo'yinli haydov kolbasi, sovitgich, alonj va yiggich idishdan iborat (10- rasm). Tozalanishi lozim bo'lgan modda ozgina suv bilan haydov kolbasiga uning 1/3 xajmiga qadar quyiladi. Haydov



10 – rasm. Suv bug'i bilan haydash uchun

kolbasi ikki bo'g'izli bug' hosil qiluvchi kolbaga ulanadi. Suv qaynaganda bug' haydov kolbasiga yo'naladi. Suv bug'i bu yerda ham kondensatlanishi uchun haydov kolbasi qizdirilibr turiladi. Haydash distillatdan olingan ozgina (1-2 ml) namuna sovitganda tiniq va bir xil bo'lguncha davom ettiriladi. Haydashni to'xtatish uchun avvalo bug' hosil qiluvchi idishni qizdirish avval bug' hosil qiluvchi idishni qizdirish to'xtalib, unga tashqaridan havo kiritish imkoniyati yaratiladi. So'ngra qabul idishda yig'ilgan distillat ajratgich voronkada suvdan ajraladi. Suv namidan qutulish uchun haydalayotgan birikma toblangan kalsiy xlorid bilan quritiladi va yana zarur bo'lsa haydaladi.


#### Laboratoriya ishi № 20

##### To'yingan uglevodorodlar. Metanning olinishi va uning xossalari

Nazariy qism

Uglevodorodlar

Uglerodning vodorod bilan birikmalari uglevodorodlar deyiladi va ular ochiq zanjirli - atsiklik hamda yopiq zanjirli — karbotsiklik bo'ladi. Umuman ikkala qator uglevodorodlari ham to'yingan va to'yinmagan uglevodorodlarga bo'linadi.



#### To'yingan uglevodorodlar (alkanlar)

Organik birikmalarning eng oddiy vakillari uglevodorodlardir. Umumiyl formulasi  $C_nH_{2n+2}$  bo'lgan, molekulasiagi uglerod atomlari o'zaro oddiy bog' bilan bog'langan, qo'igan valentliklari vodorod atomlari bilan to'yingan organic birikmalar to'yingan uglevodorodlar yoki alkanlar deyiladi. Alkanlarning dastlabki vakili  $CH_4$  metandir, undan keyin  $C_2H_6$  etan,  $C_3H_8$  propan,  $C_4H_{10}$  butan,  $C_5H_{12}$  pentan,  $C_6H_{16}$  geksan,  $C_7H_{16}$  heptan,  $C_8H_{18}$  oktan va hokazo. Umumiyl formulasi  $C_nH_{2n+2}$  bir-biridan  $CH_2$  guruhga farq qiluvchi qatorni alkanlarning gomologik qatori deyiladi. Metan vodorodlarini alkil radikallariga almashtirishdan boshqa alkanlarni hosil qilish mumkin. Alkanlar tarmoqlangan va tarmoqlanmagan zanjirli bo'ladi. Izomeriya hodisasi butandan boshlanadi:



I

бутан

$\text{CH}_3\text{-CH}_2\text{-CH}_2\text{-CH}_2\text{-CH}_2\text{-CH}_3$  изобуган

Alkanlarni olish usullari. Alkanlar asosan tabiiy manbalardan va sintez usuli bilan olinadi.

1. Alkanlarning asosiy manbai neft va tabiiy gazdir. Tabiiy gaz 95-98% metan, 2-5% etan, shuningdek, propan va butandan iborat bo'ladi. Neftni qayta ishlab alkanlar aralashmasi olinadi.


2. Toshko'mir yoki qo'ng'ir ko'mimi vodorod bilan molibden, volfram yoki nikel metallarining oksidlari va sulfidlari ishtirokida  $450-470^{\circ}\text{S}$ , 300 atm. bosimda gidrogenlash natijasida alkanlar va sikloalkanlar hosil bo'ladi.

3. Uglerod(II)- yoki (IV)-oksiidi kobalt va temir katalizatorlari ishtirokida qaytarilsa, alkanlarning aralashmasi hosil bo'ladi:  $nCO + (2n+1)H_2 \xrightarrow[Co, Fe]{290^\circ C} C_nH_{2m+2} + nH_2O$

4. Karbidlardan olish. Ayrim karbidlarga suv ta'sir ettirib metan olinadi:




5. Vyurs (1870 y.) reaksiyasi bo'yicha galogenalkanlardan olish:





Bu usul bilan juft uglerod atomi tutgan alkanylarni olish yaxshi unum beradi. Toq sonli uglerod atomi tutgan alkanylarni har xil galogenalkanlardan olinganligi sababli alkanylarning aralashmasi hosil bo'ladi:



5. (Carbon kislota tuzlaridan olish:



6. Organik birikmalarni vodorod va vodorod galagenidlar bilan qaytarib olish:



Fizik xossalari. Alkanlarning fizik xossalari ularning tarkibi va tuzilishiga bog'liq. 1 - jadvalda alkanlarning muhim fizik xossalari keltirilgan.

1 - jadval


#### Alkanlarning fizik xossalari

| Nomi       | Formulasi                       | N.sh.dagi agregat holatlari  | Suyuqlanish harorati, °S | Qaynash harorati, °S |
|------------|---------------------------------|------------------------------|--------------------------|----------------------|
| Metan      | CH <sub>4</sub>                 | gaz                          | - 182,5                  | - 161,5              |
| Etan       | C <sub>2</sub> H <sub>6</sub>   | --- // ----                  | - 182,8                  | -88,6                |
| Propan     | C <sub>3</sub> H <sub>8</sub>   | --- // ----                  | - 187,7                  | -42                  |
| Butan      | C <sub>4</sub> H <sub>10</sub>  | --- // ----                  | - 138,3                  | -0,5                 |
| Pentan     | C <sub>5</sub> H <sub>12</sub>  | suyuqlik                     | - 129,7                  | 36,1                 |
| Geksan     | C <sub>6</sub> H <sub>14</sub>  | --- // ----                  | -95,3                    | 68,7                 |
| Geptan     | C <sub>7</sub> H <sub>16</sub>  | --- // ----                  | -90,6                    | 98,4                 |
| Dekan      | C <sub>10</sub> H <sub>22</sub> | --- // .....<br>--- // ----  | -29,6<br>174             |                      |
| Pentadekan | C <sub>15</sub> H <sub>32</sub> | qattiq modda                 | - 10                     | 271                  |
| Geksadekan | C <sub>16</sub> H <sub>34</sub> | --- // .....<br>--- // ..... | -18                      | 287                  |
| Eykozan    | ---                             | ..... // ----                | 37                       | 348                  |




Gazsimon va qattiq alkanlar hidsiz, suyuq alkanlar o'ziga xos hidga ega. Tarmoqlangan zanjirlar qaynash haroratlari normal zanjirlar qaynash haroratlardan pastroq bo'ladi, chunki tarmoqlanish qancha ko'p bo'lsa, qaynash harorati shuncha past bo'ladi. Alkanlar qutbsiz erituvchilarda (masalan, benzolda, efirda, xloroformda) yaxshi, qutbli erituvchilarda yomon eriydi yoki mutlaqo erimaydi (masalan, suv, kislota, asoslarda). Alkanlar barcha organik birikmalarga o'xshab oson yonadi.

**Kimyoiy xossalari.** Alkanlarda uglerod atomlari sp<sup>3</sup> gibrildanish holatida bo'ladi. Uglerodning 4 ta gibrildangan orbitalari to'rtta vodorodning Is orbitalaming uchlari to'g'ri tetraedming uchlariiga yo'nalgan bo'ladi va ular orasidagi burchak 109°28' ga teng. C—C bog'ining uzunligi 0,154 nm va C—FI bog'i 0,109 nm ga teng. Alkanlarni *parafinlar* deb ham ataladi. Ular kislotalar, ishqorlar va oksidlovchilar ta'siriga chidamli, ammo nur, harorat ta'sirida reaksiyaga kirishadi.

**Galogenlash.** Alkanlar ftor bilan shiddatli, xlor bilan nur ta'sirida reaksiyaga kirishadi. Metanni xlorlash nur yoki qizdirish bilan boradi:




Reaksiya radikal mexanizmida boradi (S<sub>R</sub>):




vahokazo.


**Sulfoxlash.** Alkanlar S<sub>0</sub><sub>2</sub> va Cl<sub>2</sub> bilan ultrabinafsha nur ta'sirida reaksiyaga kirishadi:



**Sulfocksidlash.** Alkanlar S<sub>0</sub><sub>2</sub> va O<sub>2</sub> bilan ultrabinafsha nur ta'sirida reaksiyaga kirishib alkansulfonlar hosil qiladi:



**Nitrolash.** Alkanlar suyultirilgan nitrat kislota yoki azot oksidlari bilan qizdirilsa, nitrobirkalmalarni beradi.



**Oksidlash.** Alkanlar kislorodda yonib CO<sub>2</sub> va suv hosil qiladi:



Agar oksidlash havo kislorodi bilan Mn(OCOR)<sub>2</sub> ishtirokida olib borilsa, karbon kislotalaming aralashmasi hosil bo'ladi.




#### Ishning bajarilishi

##### 1- tajriba. Metanning olinishi va uning xossalari

Reaktiv va materiallar: sirkal kislotaling natriyli tuzi, natron ohak, xlorid kislota (1:1), kerosin, benzin, bromli suv, kaliy permanganat eritmasi; quruq probirkal, shtativ, chinni kosacha.

Quruq probirkaga uning 2/3 hajmigacha (2-3 g) natriy atsetat bilan natron ohak (1:2 og'irlik nisbatda) aralashmasidan solib, probirkani shtativ qisqichga qiyalalib o'mating (13 rasm). Probirkaning og'zini gaz o'tkazgich nayi bor tiqin bilan berkiting.



13 - rasm. Metan yoki etilen olish uchun ishlatalidigan asbob.

Ikkita probirkaning birinchisiga bromli suv, ikkinchisiga 1% li kalyi permanganat eritmasi soling va shtativga o'mating. So 'ngra aralashmali probirkani qizdiring, bunda quyidagi sxema bo'yicha metan ajralib chiqadi:



Uning bir necha xossalari quyidagi reaksiyalar yordamida o'r ganiladi:

a) ajralib chiqayotgan metanni bromli suv solingen probirkaga yo'naltiring. Eritmaning och qo'ng'ir rangi (sariq) o'zgarmaydi.

b) gaz o'tkazuvchan nay uchini kalyi permanganat eritmasi boigan probirkaga tushiring, bunda ham eritmaning rangi o'zgarmaydi. Demak metan to'yingan uglevodorod: brom birikmaydi, kalyi permanganat ta'sirida oksidlanmaydi.

v) qizdirishni to'xtatmasdan, ajralib chiqayotgan gazni yoqing. Metan ko'kimtir rang hosil qilib yonadi:  $\text{CH}_4 + 2\text{O}_2 \rightarrow \text{CO}_2 + 2\text{H}_2\text{O}$

## 2- tajriba. Benzin va kerosinning alangalanish harorati

Reaktiv va materiallar: benzin, kerosin; 2 ta chinni likopcha.

Chinni likobchalarning biriga 1-2 ml benzin, ikkinchisiga shuncha kerosin quying. Benzin solingen likobchaga yonib turgan gugurt cho'pi tuting, u yonadi, kerosin esa yonmaydi. Unga tushirilgan yonib turgan gugurt o'chadi, chunki kerosinни yondirish uchun avval uni 30-40°C gacha isitish kerak. Shundagina kerosin benzin kabi yonadi.

## Laboratoriya ishi № 21






### To'yingan uglevodorodlar. Etilen va atsetilenning olinishi va xossalari

#### Nazariv nism



Tarkibida ham 8 - bog', ham it - bog' (qo'shbog' yoki uchbog') tutgan uglevodorodlar to'ymagan uglevodorodlar deyiladi.

To'ymagan uglevodorodlar alkenlar, alkinlar, alkadiyenlar, aromatik uglevodorodlarga bo'linadi.


Umumiyl formulasi—  $\text{C}_{\text{n}}\text{H}_{\text{2n}}$ , bo'lgan va molekulalarida bitta qo'shbog' tutgan uglevodorodlar alkenlar yoki etilen qatori uglevodorodlari (olefinlar) deyiladi. Alkenlarni sistematis nomklaturada nomlash uchun tegishli alkanning yakuniy -an qo'shimchasi o'rniya-yen qo'shimchasi almashtiriladi.



Olinish usullari. 1. To'yingan uglevodorodlardan degidrogenlash orqali olinadi:



2. Spirtlami degidratlash usuli bilan olinadi:




Katalizator sifatida  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{H}_3\text{PO}_4$  va  $\text{Al}_2\text{O}_3$  ishlataladi. Ikkilamchi butil spirtidan  $\text{Al}_2\text{O}_3$  ishtirokida buten-2 olinadi:



#### OH

Reaksiya A.M.Zaysev qoidasi bo'yicha borib, ajralayotgan vodorod kam vodorod tutgan uglerod atomidan ajraladi.

3. Molekulasida bitta uglerod atomi tutgan birikmalardan alkanlar, alkenlar va aromatik birikmalar olish mumkin. Buning uchun seolit katalizatoridan foydalainiladi:




Uglerod (II)-oksidini temir, kobalt, nikel katalizatorlari ishtirokida qaytarilsa, alkanlar va alkenlarning aralashmasi hosil bo'ladi:




Agar katalizator sifatida kobalt olinsa, alkenning unumi 80% ga yetadi.



4. Alkenlarni mono- yoki digalogenli birikmalarida ishqorning konsentrangan eritmasi ta'sirida olish mumkin:



Digalogenli birikmalardan rux metali yordamida qizdirish orqali alkenlar olinadi:





5. Diyen va alkinlarni selektiv katalizatorlar ishtirokida vodorod bilan qaytarib alkenlar olinadi:



6. Neftni kreking qilishda hosil bo'ladigan mahsulotlarni bosim ostida haydab olinadi.

Fizik xossalari. Alkenlarning dastlabki uch vakili (etilen, propilen va butilen) oddiy sharoitda gaz,  $\text{C}_3\text{H}_6$  dan  $\text{C}_{16}\text{H}_{32}$  gacha suyuqlik, undan yuqorilari esa parafinga o'xshash qattiq moddalardir. Ular svuda erimaydi, lekin organik erituvchilarda yaxshi eriydi. molekulyar massasi ortishi bilan ularning suyuqlanish, qaynash haroratlari va zichliklari orib boradi. Etilen va propilen dudli alanga berib yonadi.


Kimyoiy xossalari. 1. Nosimmetrik alkenlarga H-X birikkanda. vodorod - vodorodi ko'p bo'lgan uglerod atomiga, galogen esa vodorodi kam uglerod atomiga birikadi (Markovnikov V.V. qoidasi):




Peroksidlar ishtirokida  $\text{HBr}$  propilenga teskari birikadi (Karasli el'IHli);




2. Alkenlami gidrogenlash. Alkenlarni vodorod bilan platina - Pt, Pd, Ni ishtirokida qaytarilsa, alkanlar hosil bo'ladi:



3. Alkenlarni oksidlash. Alkenlarni oksidlanguanda oksidlovchilaming kuchli yoki kuchsiz ekanligiga **qarab** har xil birikmalar hosil bo'ladi. Havo kislороди hisobiga oksidlanguanda gidroperekosidlar hosil bo'ladi:





Etilen havo kislороди bilan kumush katalizatori ishtirokida oksidlansa, etilen oksidini hosil qiladi:



Etilen va uning gomologlari nadkisiotalar bilan oksidlansa ham oksidlar hosil qiladi:  
 $\text{H}_2=CH_2 + C_6H_5COOOH \rightarrow 2\text{CH}_2-OH + C_6H_5COOH$

4. Alkenlarning kaliy permanganatning eritmasi bilan oksidlansa, glikollarni hosil qiladi:




### Alkinlar


Molekulasida uch bog' tutgan uglevodorodlar *alkinlar* yoki *atsetilen* qatori uglevodorodlari deyiladi. Umumiyl formulasi —  $C_nH_{2n-2}$ . Alkinlarning gomologik qatori atsetilenden boshlanadi:

|                        |                           |
|------------------------|---------------------------|
| $CH_3 - CH$            | atsetilen, etin           |
| $CH_3 - C = CH$        | metilatsetilen, propin    |
| $CH_3 - CH_2 - C = CH$ | etilatsetilen, butin-1    |
| $CH_3 - C = CH_2$      | dimetilatsetilen, butin-2 |



Atsetilen va uning gomologlari sintez qilib olinadi. Sanoatda atsetilen metan va etandan sintez yo'li bilan olinadi:  
 $CH_3 - CH_2 - C = CH_2 \xrightarrow{50^\circ C} CH_3 - CH_2 - CH_2 - CH_3$





Metallarning karbidlariga suv ta'sir ettirib olinadi:



Gaiogenalkanlarga K.OH ning spirtdagagi eritmasini ta'sir ettirib olinadi:



Atsetilen gomologlari atsetilenden yoki alkilatsetilenden olinadi:




Alkilatsetilening galogenalkan bilan reaksiysi  $PdCl_2$  katalizatorligida olib borilsa, atsetilening yangi gomologi hosil bo'ladi:




Fizik xossalari. Alkinlarning dastlabki uch vakili (atsetilen, metilatsetilen va etilatsetilenler) - oddiy sharoitda gaz,  $C_5H_8$  dan  $C_{15}H_{28}$  gacha bo'lgan alkanlar suyuqlik, undan yuqorilari esa qattiq moddalardir. Ularning molekulyar massalari ortib borishi bilan suyuqlanish va qaynash haroratlari ham ortib boradi. Alkinlar suvda erimaydi, lekin organik erituvchilarda yaxshi eriydi.


Kimyoiy xossalari. 1. Atsetilenga  $HC_1$  sekinbirikadi:




Uning gomologlarining  $HC_1$  bilan reaksiysi osonroq boradi. Birikish Markovnikov qoidasiga binoan boradi:



2. Galogenlar ham sekin birikadi va sis-, trans- digalogenalkenlarning aralashmasini beradi:




3. Suvning birikishi  $HgSO_4$  va  $H_2SO_4$  ishtirokida quyidagicha boradi:






4. Alkinlami  $KMnO_4$  bilan oksidlansa, karbon kislotalar yoki a-diketonlar hosil bo'ladi:





5. Qaytarish natijasida sis- va trans- mahsulotlar hosil bo'ladi:



6. Atsetilen va alkil atsetilenlar C-H bog'lari hisobiga kuchli asoslar ishtirokida atsetilenidlar hosil qiladi:



7. Og'ir metallarning ionlari kam eriydigan atsetilenidlar hosil qiladi:



Ishning bajarilishi

1- tajriba. Spirtdan etilen olish


Reaktiv va materiallar: etil spirti, sulfat kislota; probirkalar. «qaynatar».

Probirkaning (13 - rasm) chorak qismiga 1 og'irlilik qismi etil spirti va 3 og'irlilik qismlari sulfat kislota soling. Aralashina bir tekis qaynashi uchun probirkaga moslit kuttaligidagi pemza yoki govak chinni sinqlarini soling. Probirkaning og'zini gaz o'tkn/gich o'muiilgun

tiqin bilan berkiting. Nay hosil bo'lgan sulfat angidiridni yutish uchun natron ohak donalari bilan to'ldirlilsin. Aralashmani suyuqlik probirkadan otilib chiqmasligi uchun asta qizdiring. Bunda probirkadagi aralashma qorayadi. Ya'ni etil spirti suvsizlanib, etilen hosil bo'ladi, reaksiya ikki bosqichda boradi:



*этоксисульфон кислота*




Hosil bo'lgan etilen bilan 2- va 3-tajribalami o'tkazib, uning etilen ekanligini isbotlang.

#### 2-Tajriba. Bromning etilenga birikishi

Reaktiv va materiallar: bromli suv; probirkaga.


Hosil qilinayotgan etilen gaz o'tkazgich nay orqali bromli suv quyilgan probirkaga tushiriladi. Bromli suv rangsizlanadi, chunki brom qo'shbog' hisobiga birikib, etilen bromid hosil qiladi:



#### 3- Tajriba. Etilenni oksidlash

Reaktiv va materiallar: kaliy permanganat eritmasi; probirkaga.

Aralashmani qizdiring, ajralib chiqayotgan etilenni ozgina soda qo'shilgan kaliy permanganat eritmasi (2 ml) orqali o'tkazing. Natijada eritmaning rangi yo'qoladi, chunki suvda ervuchan rangsiz etilenglikol hosil bo'ladi. Hosil bo'ladigan qo'ng'ir rangli ikkilamchi mahsulot marganes (IV)-oksid kristallaridir. Bu rang eritmaga ham ta'sir etgan bo'lishi mumkin.




#### 4- Tajriba. Etilennen yonishi

Nay uchidan chiqayotgan etilen yondiriladi. Etilenni yondirayotganda, uning alangasi metan alangasiga qaraganda ravshan bo'lishga ahamiyat bering. Etilen alangasiga kiritilgan tigel qorakuya bilan qoplanadi.

Etilen molekulasi dagi uglerodning foiz miqdorini hisoblab toping.

#### S-Tajriba. Atsetilenning hosil qillinishi.


Probirkaga 2-3 ml suv quyib, ustiga kalsiy karbidning kichik bo'lakchasiidan 1-2 dona tashlab, tezda probirkaning og'zini nayli tiqin bilan berkiting. Gaz o'tkazgich nay ustiga to'ntarilgan probirkaga atsetilen yig'iladi. Bir ozdan so'ng probirkaga yig'ilgan gazni yoqing. Bunda atsetilen dud chiqarib yonadi. Shundan kevin atsetilenni nay uchidan chiqayotgan vaqtida yondiring. Havo yetarli bo'lganda ajralib chiqayotga atsetilen juda ravshan alanga berib yonadi. Atsetilenning yonishini metan va atsetilenning yonishi bilan taqqoslang va undagi uglerodning % tarkibini hisoblang.




Hosil bo'lgan atsetilen gazi bilan keyingi tajribalarni o'tkazing.

#### 6- Tajriba. Atsetileniga bromning birikishi

Probirkaga 2-3 ml bromli suv solib, undan atsetilen gazi o'tkazing. Uzoq vaqt atsetilen o'tkazilganda uchbog' xisobiga brom birikib, tetrabrometan hosil bo'ladi. Bromli suv astasekin rangsizlanadi.



1,2 dibrometan



1,1,2,2-tetrabrometan

#### 7- Tajriba. Atsetilenning oksidlanishi

Probirkaga kaliy permanganat eritmasidan 2 ml olib, unga 2-3 tomchi soda eritmasidan qo'shing, undan atsetilen o'tkazing. Eritmaning rangi o'zgaradi va marganes (IV)- oksidning qo'ng'ir cho'kmasi hosil bo'ladi: bu atsetilenning oksidlanganligini bildiradi. Atsetilenning oksidlanish natijasida har xil moddalarining hosil bo'lishi, shuningdek, molekulaning uchbog' tutgan joyida parchalanishi ham mumkin. Ushbu oksidlanish jarayoni oksal kislota ham hosil bo'ladi.

#### Laboratoriya ishi № 22 Spirtlar

##### Nazariy qism

Uglevodorodlardagi bir yoki bir necha vodorod atomining gidroksil guruhga almashtinshi natijasida olinadigan hosilalar spirtlar deyiladi.


Molekulasi dagi gidroksil guruhning soniga qarab, spirtlar bir, ikki, uch va ko'p atomli bo'ladi.

$\text{CH}_3\text{-OH}$  - метанол - бир атомни спирт

$\text{CH}_2\text{-CH}_2$  "этандиол (этиленгликоль) -  
 $\text{II}$  икки атомни спирт  
 $\text{OH OH}$

$\text{CH}_3\text{-CH-CH}_3$  - пропантриоп (глицерин) -  
 $\text{III}$  уч атомни спирт  
 $\text{OH OH OH}$

Gidroksil guruh bog'langan radikal xarakteriga ko'ra, spirtlar to'yingan, to'yinmagan, atsiklik va siklik bo'ladi. Ular gidroksil guruh qaysi uglerod atomi bilan bog'langanligiga qarab,, ikkilamchi va uchlamchi spirtlarga bo'lindi:





Olinish usullari. Spirtlar tabiatda erkin holda juda kam uchraydi, Ickin iminikkiih elllnr holida keng tarqalgan. Spirtlar: a) sun'iy usul; b) biokimiyoviy usul bilan olinmla


1. Galogenalkanlarni ishqorlarning suvdagi eritmalarini bilan gidroli/lnb olinmla:



1. Alkenlami gidratlash orqali olinadi. Bunda etilenden birlamchi, uning gomologlaridan esa ikkilamchi va uchlamchi spirtlar hosil bo'ladi:



3. Aldegid va ketonlarni Ni, Pt va Pd katalizatorlari ishtirokida vodorod bilan qaytarib olinadi. Aldegidlardan birlamchi spirtlar, ketonlardan esa ikkilamchi spirtlar hosil bo'ladi:



Fizik xossalari. Tarmoqlanmagan zanjirli birlamchi spirtlarning dastlabki vakillari (C, dan Cu gacha) odadagi sharoitda suyuqlik, undan yuqorilar qattiq moddalardir. Metanol, etanol va propanol suv bilan istalgan nisbatda aralashadi. Molekulyar massalar ortishi bilan spirtlarning suvda eruvchanligi kamayadi. Yuqori spirtlar suvda deyarli erimaydi. Quyi spirtlar o'ziga xos o'tkir hidli, yuqorilari esa hidsiz.

Kimyoviy xossalari. Spirtlar: a) gidroksil guruhdagi vodorod atomlari; b) gidroksil turuh; v) bir vaqtini o'zida ham gidroksil, ham radikalagi vodorod atomlari ishtirokida kimyoviy reaksiyalarga kirishadi.

1. Ishqoriy metallar bilan ta'sirlashib, alkogolyatlar hosil qiladi:




Alkogolyatlar suv bilan gidrolizlanib, tegishli spirit va o'yuvchi ishqor hosil qiladi:




2. Spirtlarga kislotalar ta'sir ettirilganda murakkab efirlar hosil qiladi (eterifikatsiya

reaksiyasi):



3. Spirtlarga suvni tortib oluvchi moddalar yoki katalizatorlar ta'sir ettirilganda sharotigaqarab turli organik moddalar hosil bo'ladi.


1) agar spirit mo'l miqdorda olinib, konsentrangan sulfat kislota bilan qizdirilganda, oddiy efirlar hosil bo'ladi:



2) spirtlar mo'l miqdor konsentrangan sulfat kislota bilan yuqoriroq haroratda qizdirilsa, alkenlar hosil bo'ladi:



4. Spirtlar oksidlanguida karbonilli birikmalar hosil qiladi. Birlamchi spirtlardan aldegidlar, ikkilamchi spirtlardan esa ketonlar hosil bo'ladi:




### Ishning bajarilishi

#### 1 - tajriba. Natriy etilatning hosil bo'lishi va gidrolizi

*Reaktiv va materiallar:* Etil spirti, natriy fenolftalein, probirkalar.

Quruq probirkaga moshdek kattalikdagagi natriy metalidan soling. Uning ustiga 1 ml etil spirti () suvsiz quying va probirkaning og'zini tezda barmoq bilan berkiting. Bunda alkogolyat va vodorod hosil bo'ladi. Vodorod rufakchalarai ajralishi to'xtagach, probirkaga og'zini alangaga yaqin tutib, barmog'ingizni probirkaning og'zidan oling. Ajralib chiqayotgan gaz - vodorod yonadi. Qolgan spirtni bug'lantirib yuboring. Probirkaning tubida oqish natriy etilat cho'kmasi qoladi.

Probirkadagi natriy etilatni 1-2 ml distillangan suv bilan eriting. Gidroliz mahsulotlariga 1-2 tomchi fenolftalein tomizing. Eritma qizg'ish rangga bo'yaladi:






Reaksiya muhit qanday? Kuchsiz kislota (ayni misolda spirit) va kuchli ishqor tuzi gidrolizlanganda, qanday moddalar hosil bo'ladi va qanday muhitga ega bo'ladi?

#### 2 - tajriba. Etil spirtini oksidlash

*Reaktiv va materiallar :* Etil spirt, 5% li kaliy bixromat eritmasi In sulfat kislota, kaliy permanganatning 0,1 n eritmasi.

A) . Xromli aralashmaning ta'siri. Probirkaga kaliy bixromatning 5% li eritmasidan 3 ml, sulfat kislotaning 1 n eritmasidan 2 ml va etil spirtdan 1 ml quying. Hosil bo'lgan aralashmani ehtiyyot bo'lib chayqating va to'q-sariq rangdan to'q-yashil rangga o'tguncha rast alanganda ohista qizdiring. Bunda achigan olma hidini eslatuvchi sirka aldegid hosil bo'ladi:



H

B) . Kaliy permanganat ta'siri. Probirkaga 1 ml etil spirt, kniliy |Ч'инн|<ний1п1м|| 0,1 h eritmasidan 2 ml va 1,5 ml sulfat kislota quying. Aralnsuniini ilmigmili uhlstit ijl/(litltg Hlllhll rangli aralashma rangsizlanib, sirka aldcgidning o'ign xos xidi mydii bo'lidi


Aldegid hosil bo'lish reaksiyasi tenglamasini yozing. Nima uchun eritma rangsizlanadi? Spirtlaming ularga mos keladigan uglevodorodlarga nisbatan oson oksidlanishining sababini tushuntiring.

### Laboratoriya ishi № 23 Karbonilli birikmalar. Aldegid va ketonlar

#### Nazariy qism

Molekulasi tarkibida karbonil — C — guruhi bo'lган birikmalarga *oksobirikmalar* deyiladi.


Agar karbonil guruh bitta vodorod va alkil guruh bilan bog'langan bo'lsa *aldegidlar*, karbonil guruh ikkita radikal bilan bog'langan bo'lsa *ketonlar* deyiladi.



3. Atsetilenni simob tuzlari ishtirokida gidratlanishidan sirka aldegid hosil bo'ladi:



Alkilatsetilenidlar gidratlanishidan ketonlar hosil bo'ladi:




Fizik xossalari. Aldegidlar gomologik qatorining birinchi vakili - chumoli aldegid o'tkir hidli gaz, o'rta vakillari — suyuqlik, yuqori vakillari esa qattiq moddalardir. Quyi aldegidlar suv bilan yaxshi aralashadi. Yuqori vakillari suvda erimaydi. Barcha aldegidlar spirtda va efirda yaxshi eriydi.


Ketonlaming quyi vakillari o'ziga xos hidli suyuqlik, suvda yaxshi eriydi. Ulaming yuqori vakillari qattiq moddalar. Ketonlar spirt va efirda yaxshi eriydi.

Kimyoiy xossalari. Aldegidlar va ketonlar kimyoiy reaksiyaga yaxshi kirishadi.


1. Aldegid va ketonlar ishqorlar ishtirokida vodorod sianid biriktirib, oksinitrillar hosil qiladi:




2. Aldegid va ketonlar katalizator (Ni, Pt) ishtirokida gidrogenlanganda, aldegidlar birlamchi spirt, ketonlar esa ikkilamchi spirtlar hosil qiladi:



3. Aldegidlar turli oksidlovchilar ta'sirida oson oksidlanib, karbon kislotalar hosil qiladi:



Aldegidlar havo kislorodi va kuchsiz oksidlovchi - kumush oksidning ammiakdag'i eritmasi ta'sirida ham oksidlanadi. Aldegidlarning kumush oksidning ammiakli eritmasi bilan reaksiyasi «kumush ko'zgu» reaksiyasi deyiladi. Bu reaksiya aldegidlarning sifat reaksiyasidir:



кизл  
Я  
IIIIOH


#### Ishning bajarilishi 1-tajriba. Aldegid guruhiga sifat reaksiyalar

A) Kumush oksid ta'sirida oksidlanishi - «Kumush ko'zgu» reaksiyasi.

Reaktiv va materiallar : kumush nitrat eritmasi, ammoniy gidroksid eritmasi, sirka aldegid; probirkalar, elektr plita.

Toza va quruq probirkaga 1 ml kumush nitrat eritmasidan quying, uning ustiga avval hosil bo'lган oq cho'kma erib ketguncha, oz-ozdan ammoniy gidroksid eritmasidan qo'shing.


Shu eritmaga 5-6 tomchi sirka aldegid tomizing. Aralashmani ohista qizdiring. Probirkka tubida kumush jilo (kumush ko'zgu) hosil bo'ladi:



### 2-tajriba. Atsetonning olinishi

*Reaktiv va materiallar* : sirka kislotaning kalsiy tuzi (suvsizlantirilgan), yodning kaliy eritmasi, o'yuvchi kaliyning 10 foizli eritmasi natriy nitroprussid eritmasi, kumush nitratning 1 foizli eritmasi, ammiak eritmasi, mis sulfatning 5 foizli eritmasi, gidroksilamin, fenilgidrazin, natriy bisulfit eritmasi; probirkalar, gaz o'tkazuvchi nay.

Probirkaning 2 dan 1 qismigacha sirka kislotaning kalsiyli tuzidan solib, gaz o'tkazuvchi nay o'rnatilgan tinqin bilan berkiting. Probirkani shtativga qiya qilib o'rnatib, nayning uchini 2 ml suv solingan ikkinchi probirkaga tushiring. Birinchi probirkani avval sekin, so'ngra kuchliroq qizdiring. Kuchli qizdirish natijasida tuzning bir qismi kuyadi (qorayadi). Ma'lum vaqtadan keyin suvning hajmi ikki baravar ortadi. Shunda qizdirishni to'xtating. Hosil bo'lgan atsetonni uning hididan yoki undan yodoform hosil qilish usuli bilan aniqlash mumkin:



Yuqoridagi reaksiya natijasida hosil qilingan atsetonning suv bilan aralashmasidan bir qism olib, unga yodning kaliy yodid bilan aralashmasidan baravar miqdorda qo'shing. Bir ozdan so'ng yodoformga xos sariq cho'kma paydo bo'la boshlaydi va u cho'kmaga tushadi:



Reaksiya uchun olingan va reaksiyada hosil bo'lgan mahsulotlarni birma-bir aytинг. Bu reaksiyada qaysi element oksidlovchi? Oksidlanish maxsuloti nimadan iborat?

### Laboratoriya ishi № 24,25 Karbon kislotalar

#### Nazariy qism

Uglevodoroddardagi bir yoki bir necha vodorod atomlarining karboksil guruh - COOH ga almashinishi natijasida hosil bo'lgan organik birikmalar karbon kislotalar deyiladi.



Karbon kislotalar karboksil guruhi soniga ko'ra bir asosli, ikki asosli va ko'p asosli, to'yingan va to'yinmagan bo'ladi. masalan, sirka kislotasi -  $CH_3 - COOH$  - bir asosli to'yingan; oksalat kislotasi -  $HOOC - COOH$  - ikki asosli to'yingan; akril kislotasi -

$CH_2 = CH - COOH$  - bir asosli to'yingmagan;


malein kislotasi -

$HOOC - CH = CH - COOH$  - ikki asosli to'yingmagan.

Olinishi. 1. Birlamchi spirtlar va aldegidlar oksidlanganda karbon kislotalar hosil bo'ladi:



2. Uchta galogenli, geminal tuzilishli uglevodorod hosilalariga ishqor ta'sir ettirib olinadi:




Fizik xossalari. To'yingan bir asosli karbon kislotaiarning dastlabki uch vakili (chumoli, sirka va propion kislotalar) odadagi sharoidta o'tkir hidli, suv bilan har qanday nisbatda aralashadigan suyuqlik, oson haydaladi. Keyingi vakillari (moy kislota ( $C_4$ ) dan kaprin kislota ( $C_9$ ) gacha) yoqimsiz hidli, moysimon suyuqlik, suvda yomon eriydi. Yuqori molekulali karbon kislotalar — qattiq moddalar bo'lib, suvda erimaydi, lekin organik erituvchilarida yaxshi eriydi.


Kimyoviy xossalari. 1. Karbon kislotaiarning gidroksil guruhidagi vodorod atomi ishqoriy metallar, metall oksidlari, ishqorlar bilan reaksiyaga kirishib tuzlar hosil qiladi:



2. Fosforning galogenli birikmalari ta'sir ettirilganda tegishli galogenangidridlar hosil bo'ladi:



3. Spirtlar bilan eterifikatsiya reaksiyasiga kirishib, murakkab eftrlar hosil qiladi:



3. Karbon kislotaiarning tuzlariga ishqor ta'sir ettiriisa, quyidagicha reaksiya ketadi:  $CH_3 - COONa + NaOH \longrightarrow CH_3 + Na, CO,$




Monosaxaridlar va disaxaridlar shirin ta'mli, suvda yaxshi eriydigan kristall moddaladir. Polisaxaridlar shirin ta'mga ega bo'limgan amorf moddalar bo'lib, suvda erimaydi, bo'kadi.


Kimyoviy xossalari. Monosaxaridlar oson oksidlanadi. Ular ishqoriy yoki neytral muhitda sekin oksidlantirilganda faqat aldegid guruh oksidlanib, oksikislota (glyukon kislota) hosil bo'ladi:




Monosaxaridlar qaytarilganda ular ko'p atomli spirtga aylanadi:




Disaxarid - maltoza gidrolizlanganda ikki molekula glyukoza hosil bo'ladi:



Dasaxaridlardan, saxaroza gidrolizlanganda glyukoza va fruktoza aralashmasi hosil bo'ladi:



Maltoza gidrolizlanganda esa ikki molekula glyukoza hosil bo'ladi:



Kraxmalni mineral kislotalar ishtirokida qizdirib, gidrolizga uchratsak, quyidagi birikmalar hosil bo'ladi:



Kraxmal qaytaruvchanlik xossasiga ega emas, ya'ni Feling suyuqligini qaytarmaydi, kumush ko'zgu reaksiyasini bermaydi. Kraxmal yod eritmasi ta'sirida ko'k rangga bo'yaldi.

Sellyuloza konsentrangan ishqor eritmasi bilan qayta ishlansa, alkokogolyat sellyuloza hosil bo'ladi:



Sellyuloza organik va mineral kislotalar bilan eterifikatsiya reaksiyasiga kirishib, murakkab efirlarni hosil qiladi.

### Ishning bajarilishi

#### 1- tajriba. Monosaxaridlarning mis (II)-gidroksidi bilan ta'siri

*Reaktiv va materiallar:* 1 % li glyukoza eritmasi, 1 % li fruktoza eritmasi, 10 % li natriy gidroksid eritmasi, mis (II)- sulfatning 5 % li eritmasi; probirkalar, menzurka.

Ikkita probirka olib, ularning biriga 1 % li glyukoza eritmasidan 3 ml va ikkinchisiga 1 % li fruktoza eritmasidan shuncha quying. Har bir probirkaga 1 ml dan ishqor eritmasidan tomchilatib qo'shing. Bunda dastlab har ikki probirkada cho'kma hosil bo'ladi, chayqatilganda ular erib ketadi.

#### 2- tajriba. Saxarozaning inversiyasi (gidrolizi)

*Reaktiv va materiallar:* 2 % li saxaroza eritmasi, 10 % li sulfat kislota eritmasi, 10 % li natriy gidroksid eritmasi; probirkalar, menzurka.

a) Probirkaga saxarozaning 1 % li eritmasidan 4-5 ml quyib, suyultirilgan H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> tomizing va aralashmani 3-5 minut davomida qaynating. Sovigandan so'ng probirkadagi aralashma muhit ishqoriy bo'lguncha 10 % li NaOH eritmasidan Feling suyuqligidan qo'shib, qizdiring. Eritmaning rangi o'zgarib, mis (I)-oksidining qizil rangdag'i cho'kmasining hosil bo'lishini kuzating.

b) Boshqa probirkaga saxaroza eritmasidan 3-4 ml solib, uning ustiga Feling suyuqligidan qo'shib qaynatilganda hech qanday o'zgarish sodir bo'lmasligini kuzating.

### 3- tajriba. Kraxmalga sifat reaksiya

*Reaktiv va materiallar:* kraxmal, yodning kaly yodiddagi eritmasi; probirkalar, menzurka.

5 ml suvda 1 g atrofida kraxmal eriting. Hosil bo'lgan suspenziyani 50 ml qaynoq suv solingen stakanga ag'daring. Bunda tiniq kolloid eritma - kraxmal kleysteri hosil bo'ladi. Boshqa probirkaga kraxmal kleysteridan 1-2 ml olib, unga 1 tomchi yod eritmasidan tozilisa, eritma to'q ko'k rangga bo'yaldi. Kartoshkaning kesilgan qismiga 1 tomchi yod eritmasi tozilganda, «ko'karish»ning sodir bo'lishini kuzating. Yod eritmasini «ko'karish»ni kraxmalga xos sifat reaksiyasidir.

### 4- tajriba. Kraxmalning gidrolizlanishi

*Reaktiv va materiallar:* kraxmal, sulfat kislotaning 10% li eritmasi, natriy gidroksidning 10 % li eritmasi, yodning kaly yodiddagi eritmasi, Feling suyuqligi; probirkalar, menzurka, isitish asbobi.

50 ml sig'imli kolba yoki stakanda 25 ml kraxmal kleyster iva 5 ml 10 % li H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> eritmasidan quyib aralashting. So'ngra stakandagi aralashmani 8-10 minut qaynati qizdiring. Qaynatish davomida 4 yoki 5 ta probirka olib, har ikki minutda alohida qaynatayotgan eritmadan namunalalar olib, ularni ishqor bilan neytrallang va ularga yod eritmasidan 1 tomchidan tomizing. Bunda namunalarning yod bilan o'zaro reaksiyasida yodning rangini o'zgartirishmi kuzating. 15 minut qaynatilgandan so'ng olingen namunada yod bilan o'zgarishning sodir bo'lmasligi, gidrolizning oxirgi mahsuloti glyukozaning hosil bo'lganligini ko'rsatadi. So'ngra aralashmani 2-3 minut qaynatib soviting, ishqor bilan neytrallang va 2-3 mi Feling suyuqligi qo'shib qizdirilganda qizil cho'kma hosil bo'lishini kuzating.

### 5- tajriba. Sellyulozaning kislotali gidrolizi

*Reaktiv va materiallar:* sellyuloza (filtr qog'oz), kons. H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>, NaOH ning 10 % li eritmasi, Feling suyuqligi; probirkalar, menzurka, isitish asbobi.

Probirkaga 4 - 5 ml kons. H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> quyib, unga ozroq maydalab kesilgan filtr qog'oz tushiring va shisha Tayeqcha bilan aralashtrigan holda qog'ozni eriting. Hosil qilingan quyuq eritmani ohistalik bilan 20 ml suv solingen stakanga quying va 10 minut davomida qaynating. So'ngra stakandagi eritmani soviting, ishqor qo'shib neytrallang va unga Feling suyuqligi qo'shib qizdiring. Natijada miss (I)- oksidining cho'kmasi hosil bo'iishini kuzating.

### Laboratoriya ishi № 28

#### Oqsillar

##### Nazariy qism


Oqsillar azotli yuqori molekulalar tabiiy organik modda - biopolimerlardir. Oqsil molekulalari murakkab tuzilishga ega bo'lgan *a*-aminokislotalar qoldiqlaridan tarkib topgan. Oqsillar jonli tirk organizmlar va o'simliklar tarkibining asosidir. Odam organizmi xujayralarini oqsillar tashkil qiladi. Oqsillar qon, sut, go'sht, tuxum, teri, soch, xayvonlarning shoxi va junida bo'ladi. Oqsillar tarkibida asosan, uglerod, vodorod, kislorod, azot, oltingugurt, ba'zi oqsillar tarkibida fosfor, temir elementlari bo'ladi. Oqsillar Ular murakkab tuzilishga ega bo'lib, molekulalar massalari 5000 dan bir necha milliongacha bo'lishi mumkin.

Oqsillar taxminan 23 xil a-aminokislotalar qoldiqlarining

peptidbog'lar ~|T~'T~ orqali bog'langan maleromolekulalardan  
 $\text{o}^H$

j

iborat ekanligi aniqlangan. Bir peptid bog' ikki aminokislotaning kondensatlanishi natijasida hosil bo'ladi deb qarash mumkin:



Oqsillar tarkibiy tuzilishiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

- a) oddiy oqsillar - proteinlar, b) murakkab oqsillar - proteidlar.

Oqsillarning ko'philigi suvda, tuzlaming suyultirilgan eritmalarida, kislotalarda, ishqorlarda eriydi, organik erituvchilarda esa erimaydi. Oqsil molekulalaridagi karboksil -COOH va amino -NH guruhlar oqsillamin amfoter xossali bo'lishiga Sabab bo'ladi. Karboksil yoki aminoguruhlarning ortib borishiga qarab, oqsillar kislota yoki asos xossalariini namoyon qildi. Oqsillar kislotalar yoki fermentlar ta'sirida parchalanadi. Ularning parchalanishi - bosqichli bo'lib, datslab peptonlar, so'ngra polipeptidlар va dipeptidlар hamda  $\alpha$ -aminokislotalar hosil bo'ladi.

## Ishning bajarilishi

### *J - tajriba. Qosillarga xos rangli reaksiyalari*

**1 -tagtub. Oqsimalga Aos Yangi Reaksiyalari**  
**Reaktiv va materiallar :** tuxum oqsili eritmasi, kons. nitrat kislota, 10 % li ammiak eritmasi, natryk gidroksidning 10 % li eritmasi, 2 % li mis (II)- sulfat eritmasi; probirkalar, menzurka, isitish asbobi.

1. Ksantoprotein reaksiysi. Probirkaga 2-3 ml tuxum oqsili eritmasidan quying va unga ehtiyotkorlik bilan 1—2 ml kons. HNO<sub>3</sub> qo'shing va bu aralashmani ohistalik bilan qizdiring. Bunda oqsil moddasi bir joyga to'planib oladi va sariq bo'yalish ro'y beradi. Probirkadagi aralashmaga 10 % li ammiak eritmasidan qo'shganda sariq rangli eritma to'q-sariq rangga bo'yaladi. Bunday bo'yalish oqsil moddalar tarkibida aromatik yadrolar (fenilalanin, tirozin, triptofan) ning borligini ko'rsatadi.

2. Biuret reaksiysi. Probirkaga 2-3 ml tuxum oqsili eritmasi, 2-3 ml o'yuvchi natriyining 10 % li eritmasidan quying va unga 2 % li mis (II)- sulfat eritmasidan 1-2 tomchi tomizing. Bunda eritma binafsha rangga bo'yaladi. Bu bo'yalish oqsil tarkibida (-NH-CO-) peptid bog'i borligini ko'rsatadi.

## **2-tairiba. Qasillarning cho'kishi**

**2-afzida. Oqsimarning cho kishi**  
Reaktiv va materiallar : tuxum oqsili eritmasi, etil spirti, mis (II)- sulfatning to'yingan eritmasi, 20 % li  $Pb(CH_3COO)_2$  eritmasi; probirkalar, menzurka, spirt lampasi yoki isitish asbobi

1. Oqsillami qizdirish natijasida cho'kishi (ivishi). Probirkaga tuxum oqsili eritmasidan 2-3 ml quying va qaynaguncha qizdiring. Bunda oqsil pag'a-pag'a bo'lib, loyqa holda cho'kmaga tushishini kuzating.

2. Oqsillarni spirit bilan cho'ktirish. Probirkaga tuxum oqsili eritmasidan 2-3 ml quying va unga ozgina etil spiriti qo'shilsa, cho'kma hosil bo'ladi. Agar bu cho'kmaga tezlik bilan d'stillangan suy oshilsa cho'kma erib ketadi.

3. Oqsillarning tuzlar ta'sirida cho'kishi. Ikkitga probirkaga olib, ularga tuxum oqsili eritmasidan 1-2 ml quying. So'ngra birinchi probirkaga mis (II)- sulfatning to'yigan eritmasidan, ikkinchisiga esa 20 % li qo'rg'oshin (II)- atsetat eritmasidan qo'shing va probirkalarni chayqating. Bunda har ikala probirkada cho'kma hosil bo'lishini kuzating.